


XAMIDOV ABDUMALIK KIRONOVICH

**MUROD MUHAMMAD DO'ST
ASARLARIDA REALIA BIRLIKLAR
VA LAKUNARLIK HODISALARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOY TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

XAMIDOV ABDUMALIK KIRONOVICH

**MUROD MUHAMMAD DO'ST
ASARLARIDA REALIA BIRLIK
VA LAKUNARLIK HODISALARI**

Monografiya

**Toshkent
"METODIST NASHRIYOTI"
2025**

UDK: 82
KBK: 83
X 24

A.K. Xamidov

Murod Muhammad Do'st asarlarida realia birliklar va lakunarlik hodisalari. Monografiya. - Toshkent: "METHODIST NASHRIYOTI", 2025. - 112 b.

Mazkur monografiyada XXI asrda fan va texnika taraqqiyoti, globallashuv jarayonlari hamda madaniyatlararo aloqalarning kengayishi sharoitida shakllanayotgan antroposentrik lingvistik paradigma asosida til va madaniyat o'zaro aloqadorligi masalalari yoritiladi. Tadqiqotda til inson tafakkuri, ruhiyati, ijtimoiy hayoti va milliy madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan faol kommunikativ hodisa sifatida talqin etiladi.

Asarda tilshunoslikning lingvomadaniyat va lingvokulturologiya sohalari nuqtayi nazaridan realia va lakunarlik hodisalari tahlil qilinadi. Realia birliklari muayyan xalqning madaniy hayoti, urf-odatlarini, turmush tarzi va milliy tafakkurini aks ettiruvchi lisoniy birliklar sifatida, lakunarlik esa bir madaniyatda mavjud bo'lgan tushuncha yoki hodisalarning boshqa madaniyatda ifodalanmaganligi holati sifatida izohlanadi.

Monografiyada o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri — Murod Muhammad Do'st ijodi lingvomadaniy tahlil obyekti sifatida tanlanadi. Yozuvchi asarlarida milliy hayot tarzi, xalqona tafakkur, tarixiy xotira va ma'naviy merosning badiiy in'ikosi chuqur tahlil qilinib, ularda uchraydigan realia birliklari hamda lakunarlik hodisalari semantik, madaniy va tarjimaviy jihatdan o'rganiladi.

Taqrizchilar:

Y. Saidov

Buxoro Davlat universiteti, filologiya fanlar doktori

B. Suyunov

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlar doktori

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti 2025-yil 29-sentabrdagi Kengash yig'ilishining 2-sonli bayonnomasiga asosan nashr etishga tavsiya etildi.

ISBN 978-9910-03-887-7

© A.K. Xamidov, 2025.
© "METHODIST NASHRIYOTI", 2025.

KIRISH

XXI asrda fan va texnika taraqqiyoti, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi inson omilining ijtimoiy fanlar, xususan, tilshunoslik doirasida yangicha ilmiy konsepsiyalar asosida talqin qilinishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda lingvistikada antroposentrik yondashuv ustuvor ilmiy paradigma sifatida shakllanmoqda. Mazkur yondashuv tilni abstrakt tizim emas, balki inson tafakkuri, madaniyati, ruhiyati, ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan faol kommunikativ hodisa sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Tilshunoslikda inson va borliq, shaxs va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlarini chuqurroq anglashga intilish kuchaymoqda.

Ushbu jarayonda lingvomadaniyat va lingvokulturologiya sohalari alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, til birliklari orqali milliy madaniyatni, xalq tafakkurini, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni ifodalash va tadqiq etishga xizmat qilmoqda. Bu esa realia va lakunarlik hodisalarini lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Realia - bu muayyan xalqning milliy-madaniy hayotiga xos bo'lgan, boshqa tillarda to'laqonli ekvivalentga ega bo'lmagan lisoniy birliklar bo'lib, ular xalqning tarixi, urf-odati, hayot tarzi, an'analarini ifodalaydi. Lakunarlik esa bir til yoki madaniyatda mavjud bo'lgan tushuncha va hodisalarning boshqa madaniyatda ifodalanmaganligini bildiradi. Har ikki hodisa ham til va madaniyat o'zaro munosabatining eng muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida ushbu masalalar bo'yicha izlanishlar olib borilayotgan bo'lsa-da, hali ko'plab badiiy matnlar negizida lingvomadaniy birliklarning tizimli tadqiqiga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslub va badiiy-estetik qarashlari bilan ajralib turadigan Murod Muhammad Do'st ijodi lingvomadaniy tahlil uchun dolzarb manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yozuvchi asarlarida milliy hayot tarzining, xalqona tafakkur va dunyoqarashning, tarixiy xotira va ma'naviy merosning badiiy in'ikosi kuchli bo'lib, u realia va lakunarlik hodisalarining xilma-xilligini ta'minlaydi.

Mazkur monografiya doirasida Murod Muhammad Do'st asarlarida uchraydigan realia birliklari va lakunarlik hodisalarining lingvomadaniy tahlili amalga oshiriladi, ularning semantik xususiyatlari, tarjimadagi ifoda vositalari, madaniy konnotatsiyalari hamda o'zbek milliy madaniyati bilan bog'liqligi o'rganiladi. Tadqiqotda badiiy matn asosiy manba sifatida qaraladi, chunki badiiy adabiyot tilda ifodalangan milliy ong, tafakkur va madaniyatni tahlil qilishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

MUROD MUHAMMAD DO'ST ASARLARIDA REALIALAR

Insoniyat yaralibdiki, ularning barchasi umumiy, ayni chog'da, yakka subyekt sifatida mavjud bo'ladi. Odamlarning umumiy jihatlari majud bo'lgani kabi ularning farqli tomonlari ham bo'lishi tabiiy holdir. Mazkur farq va umumiyliklar nimalarda namoyon bo'ladi, qanday yuzaga chiqadi? Shu kabi savollarga javob topish barcha fanlar kabi tilshunoslik uchun ham asosiy vazifalardan biri sanaladi. Har qanday o'xshash va farqli jihatlar sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya va boshqa fanlardagi tadqiq obyektlari orqali oydinlashadi. Mazkur birliklarni aniqlash, albatta, ularning moddiylashgan shakllarini tahlil hamda tadqiqqa tortish bilan oydinlashadi. Borliqda voqelangan har qanday tushuncha haqidagi axborot nutq birliklari orqali yuzaga chiqadi. Tilshunoslikning turli sohalari nuqtayi nazaridan tadqiqlarni amalga oshirish insonni, insoniylikni tadqiq qilish sifatida belgilanishi lozim.

Realiya termini hozirgi kunda tilshunosligimiz uchun ancha yangi hodisa sifatida qaralayotgan bo'lsa-da, har qanday "real" degan leksemaning ma'nosini tushunadigan kishi uchun mazkur birlik haqidagi ma'lumotarni qabul qilish murakkab kechmaydi. "Realiya" so'zi lotin tilida mansub birlik sifatida "haqiqiy, mavjudlik" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Vlixov va Florinlar termin sifatida fanda chuqur tatbiq etish lozimligini o'z ishlari orqali isbotladilar. Realiani tilshunoslik fani doirasida o'rganishning muhim hamda zaruriy tomoni shundaki, har qanday millat, elat, xalqning real qiyofasini ochib berish, uning o'zigagina xos bo'lgan va ayni chog'da boshqa madaniy qatlam doirasidagi xalqlarga ta'sirini o'rganish muhim va dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralishidir. Inson tafakkurini, uning rivojlanish bosqichlarini, bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'lini belgilab olish uchun ushbu birliklarni o'rganish, tadqiq qilish eng zaruriy shartlardan biri

hisoblanadi. Aynan badiiy matn tarkibida realialarning bo'lishi kitobxonga qiziqish uyg'otadi, chunki bunday birliklar mavjud bo'lgan badiiy matnlar nafaqat ta'sirchanlikni oshiradi, balki boshqa xalqlar dunyoqarashiga kirib borish, tafakkurlar integratsiyasini ta'minlab berishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kishilik jamiyati yakka shaxs sifatida mavjud bo'lish bilan birga ma'lum bir guruhlariga birlashadi. Bunday jamoalar dastlab urug', qabila, qabilalar ittifoqi deb atalgan bo'lsa, keyinchalik elat, millat va xalqlarga birlasha boshlashdi. Har birining o'ziga xos psixologiyasi, hayot tarzi, moddiy, madaniy ashyolari mavjud bo'ladi va ular bir-biridan farqlanib turadi. Bunday o'xshash va farqli jihatlarni tadqiq qilishda eng qulay, eng aniq omillar yozma manbalardir.

Badiiy asarlarni tadqiq va tahlil qilish davomida mana shunday ma'lum bir xalq uchun umumiy hisoblangan, ayni chog'da, boshqalari bilan qiyoslanganda tafovuti mavjud bo'lgan birliklarning ilmiy tadqiqini amalga oshirish eng muhim vazifalardan biridir.

Har bir millat, xalqning shaxsiy o'zligini anglatuvchi birliklar tilshunosligimizda realiyalar nomi bilan atala boshlandi. Realialarni o'rganish bilan bog'liq harakatlar jahon tilshunosligida ancha ilgari boshlangan bo'lsa-da, ularning to'liq va aniq chegaralari hali belgilab olingan emas.

Realiyalar, avvalo, tarjimashunoslik sohasi vakillarining diqqatini tortganligi ajablanarli hol emas, chunki har bir xalqning o'ziga xos tushunchalari mavjud bo'ladi va ularni tarjima qilish ma'lum bir muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, ularni, avvalambor, tarjima qilib bo'lmaydi. Tarjimasiz berilganda esa ma'lum bir tushunmovchiliklarga olib keladi. Bunday birliklarni kitobxonga anglatish uchun ba'zi tarjimonlar ularni izohlash yo'lidan borishga harakat qilishadi, bu harakatlar ham ijobiy natija

bermasligi tabiiy. Chunki ma'lum bir millatda mazkur tushunchaning o'zi bo'lmagan holatda, uning boshqa bir tildagi qanday birliklar bilan izohlash mumkin.

Umuman olganda, dunyodagi istalgan bir til solishtirilganda, ularning bir-biriga mos kelishi mumkin bo'lgan yoki butunlay aksi sanalgan birliklarning mavjud bo'lishi maskur tillarning o'ziga xos jihatlari mavjudligi bilan izohlanadi. Ma'lum bir xalqning madaniyati boshqa bir tilning xususiyatlariga mos kelmaydidan birliklarning mavjudligi bilan izohlanadi. Tillar o'zaro solishtirilganda ular orasidagi madaniy yaqinlikning qanchalik yaqin yoki uzoq ekanligiga qarab ulardagi mavjud unsurlarning mos kelishi yoki farqlanishi ham shunga qarab bilinib turadi¹. Yuqoridagi fikrni inkor qilmagan holda aytish mumkinki, ekvivalentsiz birliklarni faqatgina ma'lum bir xalq doirasida emas, balki madaniyatlari tarixiy taraqqiyot davomida mushtaraklik kashf etgan xalqlar, millat va elatlar doirasida qarash lozim. Keyingi o'rinlarda mazkur qarashimizni izohlash uchun badiiy asar tarkibidagi birliklarga murojaat etamiz.

Dunyo tilshunosligida realiyalar deyilganda, faqatgina ma'lum bir millat yoki xalqning o'zigagina daxldor bo'lgan milliy-madaniy ashyolar, tarixiy jarayonlarini faktik materiallar, ma'lum bir xalqqagina tegishli bo'lgan onomastik birliklar, milliy hamda xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqlikda hozirgacha yetib kelgan qahramonlar, mifologik nomlar ham kirishini e'tirof etishadi. Bunday birliklarni ekvivalentsiz birliklar, ma'lum bir xalq madaniyatigagina tegishli bo'lgan leksika sifatida belgilash keng iste'molda bo'lmoqda. Demak. Ekvivalentsiz leksika deyilganda, ma'lum bir xalq madaniyatiga tegishli bo'lgan, boshqa tillarga aynan birgina birlik bilan tarjima qilish imkoniyati mavjud bo'lmagan til birliklari tushuniladi. Mazkur fikrlar qay darajada asosli bo'lmasin, ma'lum bir ixtiloflar mavjudligi badiiy asar

¹ Дхманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. М.: 1957. Учпедгиз. - В 7.

leksikasini tadqiq qilish jarayonida ko'zga tashlanadi. Realialarni tarjima qilishda ma'lum bir murakkabliklar yuzaga chiqishini nazarda tutib V.P.Danilenko quyidagicha fikrlarni keltirib o'tadi: "Ingliz tilidagi realialarni tarjima qilish jarayonida soha kishilari uzoqdan uzoq tariflarni keltirishga yoki shunga yaqin ma'lum bir neologik birlikni yaratishlariga to'g'ri keladi"². Mazkur fikr, haqiqatan ham asosli.

Masalan, Murod Muhammad Do'stning "Dasht-u dalalarda" hikoyasida "gavron" so'zi qo'llanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mazkur birlik forscha so'z sifatida "sigir haydovchi" ma'nosini ifodalashi keltirilgan va uning boshqa mol boqish, uni boshqarishga mo'ljallangan tayoqlarda farqli ekanligini "Bog'bon amaki naq gavron bilan tiriqtiradi. S.Ahmad. Ufq" misoli bilan izohlaydi³. Boshqa millatlarda har bir hayvonni boshqarish uchun alohida vosita mavjud ekanligi yoki mavjud emasligi bizga ma'lum emas, mavjud bo'lmasa, mazkur so'zni izohlash yoki o'sha xalqqa tushunarli bo'lgan boshqa bir so'z orqali berishga majbur bo'ladi.

Olim E.V.Lesnix ma'lum bir tillarni solishtirish jarayonida variant yo'q birliklarni aniqlash osonlashishini, ma'lum bir voqelik bilan aloqador tushunchalarning ajraib ketishi, har bir xalqqa xos madaniyatning aniq namoyon bo'la olishi, kundalik hayotiy sharoit bilan aloqador realiyalar, ma'lum siyosiy mafkura, jamiyat taraqqiyoti asosida bunday birliklarning soni yanada oshib borishi mumkinini ta'kidlaydi⁴.

Realialarni mutlaqo ekvivalentsiz birliklar deyilishi bir qadar nisbiydir, chunki boshqa madaniy birliklar boshqacha nom bilan atalishidan qat'i nazar ular yaqin funksiyalarni bajarishi mumkin, natijada mazkur birliklar bilan almashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

² Даниленко В. П. Русская терминология. - Опыт лингвистического описания. М.: 1977. - В 7.

³ Узбек тилининг изохли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий индеклопедияси, 2006. 1 жилд. - Б. 473.

⁴ Лесных Е.В. Отражение истории народа в слове. Материалы по славянской письменности и культуре. Выпуск XIX. 2001. Липецк. 11б

Tildagi realiyalarni aniqlashda ma'lum bir tillar solishtiriladi, ulardagi mazmun va shaklning farqlanishi ko'zga tashlanadi. Tushunchalar aniqlashtirilganda quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1) ma'lum bir tildagi realiyalar boshqa bir tilda kuzatilmaydi;

2) realiyalar har ikki tilda ham mavjud bo'lishi mumkin, faqat ularda ma'no farqlanishi kuzatiladi.

3) har bir millat yashaydidan o'lka tabiatidan kelib chiqib, turli xil leksik ma'no ifodalovchi birliklar paydo bo'ladi⁵.

Realialarda ma'lum bir til hamda u mavjud xalqning madaniyati chambarchas aloqadorlik asosida namoyon bo'lib turadi. Realialar nafaqat moddiy madaniyat, balki xalq psixikasini, uning maishiy hayotini, tabiati, uni o'rab turgan borliq, urf-odatlarini, udumlari, ma'lum bir obyekt va subyektga munosabatida ham aks etib turadi. Realialar alohidalik xossalari bilan ma'lum bir xalqning umumlashma qiyofasini ham namoyon etishga xizmat qiladi.

Har qanday hodisani tahlil va tadqiq qilishi qiyoslash asosida amalga oshirilishi hammmamimizga ma'lum, shundan kelib chiqib, boshqa xalqlarning ayni o'z madaniyatiga tegishli bo'lgan leksik birliklarini aniqlash uchun ham o'z milliy-madaniy leksik qatlamimizga tegishli bo'lgan leksik qatlamni tadqiq qilishi zarurati tug'iladi. Jumladan, xalqning tashqi ko'rinishi, uning turmush tarzi, bosib o'tgan tarixiy davrni inobatla olish ehtiyoji mazkur birliklarni aniqlash imkoniyatini beradi. Kiyim ashyolari sifatida qaraladigan do'ppi, to'n, salla, oziq-ovqat mahsulotlari sifatida palov, nonning turlicha turlari, milliy-madaniy marosimlar, onomastik birliklar va yana ma'lum bir qatlamga tegishli birliklarni ham realiya sifatida qarash mumkin. Har qanday bizda mavjud bo'lgan, boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin bo'lgan birliklarni ham realiya sifatida

qarash mumkin. O'zbekistonda nonning bir necha turlari mavjud, chunonchi, Suxaryeva Ol'ga Aleksandrovna kitobida Buxoro Amirligining markazi sanalgan Buxoro shahrining Samarqand darvoza qismida nonning ellikdan ortiq turi mavjud bo'lganligi haqidagi ma'lumotlarni keltiradi. Bunday oziq-ovqat mahsulotlari faqatgina xalqimizning tarixiy tafakkuri mahsuli bo'lganligi bilan realiyalar sifatida qaraladi. Zig'ir non, sedana non, kulcha non, non qoq va boshqa turlarini leksik birlik sifatida boshqa tillarga tarjima qilish mumkin, ammo ularning milliy-madaniy koloriti bunday birliklarning realiya sifatida qaralishiga asos bo'ladi. Realialar fanda dastlab boshqa tillardan tarjima qilinmaydigan birliklar sifatida qaralgan bo'lsa-da, aslida tarjima qilinishi mumkin bo'lgan, ammo ma'nosi ma'lum bir izohni talab qiladigan birliklarni ham realiyalar tarzida belgilash maqsadga muvofiqdir. Masalan, Murod Muhammad Do'st asarlarida keltirilgan, belbog', oq, harir ro'mol kabi birliklar tarjima qilinadi, lekin ularning qanday maqsadlarda, qanday vaziyatlarda qo'llanilishi holatlari izohlanmaguncha boshqa til vakillari uning tub mohiyatini anglab yetmasligi mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda, tarjima qilinishi mumkin bo'lgan, biroq ma'lum bir millat, elat, xalqning madaniy belgilarini o'zida jamalagan, izoh talab qiladigan birliklarni ham realiyalar sifatida qarash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ma'lum bir milliy-madaniy tushunchalar erkak va ayollar orasida farqlanadi. Kiyinish vositalari ichida ro'mol, nimcha, kamzul kabilar ayollarga xos bo'lsa, belbog', to'n, etik kabilar erkaklarga mansub sanalgan. Ma'lum bir urf-odatlar ham erkak jinslari orasida farqlilik kasb etgan. Har ikki jins vakillariga ham mansub bo'lgan umumiy qadriyatlar ham mavjudligini yodda saqlash kerak. Jumladan, do'ppi, chopon kabi birliklar har ikki jins vakillari doirasida ishlatilsa-da, ularning mato, tikilish, andaza holatlarida tavovutlar mavjud.

⁵ Смирницкий А. И. Лексикология английского языка. М.: 1956. 204 с. 61.

Har bir millatda yoki xalqda o'ziga xoslik mavjud bo'ladi. Bunda millat va xalq tushunchalariga e'tibor qaratish kerak. Millat ma'lum bir til miqyosida birlashgan, ayni bir tilda gaplashuvchi kishilar jamoasidir. Xalq esa bir necha tilga oid yoki ayni bir tilga doir insonlar uyushmasini ifodalashi mumkin. Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston ko'p millatli xalq sifatida o'ziga xos umumiy jihatlari yaqin bo'lgan odamlar yashaydigan bir maskan hisoblanadi. Mazkur millatlar ming yillar davomida yonma-yon yashab kelishgan, shundan kelib chiqib ularda bir xil qadriyatlar, bir xildagi dunyoqarash shakllangan. Realiza tushunchasini ayni bir millatga tegishli tushunchalar deb baholash bir qadar chegarali va bu tushunchani to'laqonli ifodalash imkonini bermaydi. Milliy o'ziga xoslik deganda ma'lum millatga xos, uning turmush sharoitiga, dunyoqarashiga, madaniyatiga, kiyim-kechagiga, uy-ro'zg'or buyumlariga oid tushunchalarni ifodalovchi realizalar ko'zda tutiladi. Bunday o'ziga xoslik asar personajining xulq-atvorida, o'y-hayollarida, gapiradigan gaplarida, maqollarda, hazillarida, qolaversa, asar muallifining voqea hodisalariga munosabatida, bayonida ham o'z aksini topadi.

Shu sababli o'ziga xoslikni tarjimada to'laqonli aks ettirish asarning badiiy, estetik, semantik, stilistik jihatlarini ikkinchi bir tilda to'laqonli qayta yaratish vazifalarini oldinga suradi. Bu tarjimondan tarjima asari yaratilgan tilni chuqur bilishlikni, shu xalqqa mansub bo'lgan milliy o'ziga xosliklarni, dunyoqarashlarni, asarning badiiy estetik ta'sirini ta'minlovchi barcha jihatlarini chuqur anglashni talab qiladi.

Realiza haqida so'z ketar ekan, birinchi navbatda, shu vaqtga qadar realizaga oid bo'lgan ilmiy ishlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Dastlabki ko'rib chiqqan ishimiz, bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florinlarning ta'kidlashicha: "Realizalar muayyan bir xalqning hayoti (turmushi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyotiga

taalluqli bo'lgan va boshqa tillarda aniq muqobiliga ega bo'lmagan va o'ziga xos yondashuvni talab qiladigan so'zlar va so'z birikmalaridir" ⁶ R.Fayzullayevaning "Yo'llar yiroq, ko'ngillar yaqin" nomli maqolalar to'plamida: "Realizalarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi", -deb realizalarga ta'rif beradi⁷.

Milliy o'ziga xoslik deganda adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, tabiati, o'rmon, tog', dala, suv, zamin, osmon hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi. Kiyim-kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokazolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi ⁸. Realizalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so'zlarni tarjimada muqobil qayta tiklash evaziga original asarning milliy to'qimasini o'zga tilda beshikast qayta yaratishdek yechimi shart bo'lgan tarjima muammosini ma'lum ma'noda hal etish mumkin. Realizalarning aniq ta'rifi, boshqa tillarga tarjima qilishdagi o'ziga xosliklar, ular ifodalaydigan leksik, semantik, stilistik funksiyalar hozirgacha tilshunos va tarjimashunos olimlar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinmoqda. Realizalar ifodalagan milliy o'ziga xoslik, uni tarjimalarda berish masalasi rus va o'zbek olimlarining ko'plab ilmiy tadqiqotlariga mavzu bo'lgan.

⁶ Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М.:Международные отношения, 1986. В-416.

⁷ Файзуллаева Р. Йўллар йироқ, кўнгиллар яқин // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). - Т.: 1973. В-257.

⁸ Саломов Г. Таржима назарияси асослари. -Т.: "Ўқитувчи" нашриёти, 1983. В-101.

Kiyim-kechak realiyalari

Har qanday ijodkor badiiy asarni yozish davomida uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, maqsad-muddaosini ochib berish, uning dunyosini tahlil qilish zaruriyatini juda yaxshi anglagan bo'ladi. Badiiy asar yoki ijtimoiy hayotdagi insonning ichki hamda tashqi qiyofasi uni shakllantiruvchi asosiy ikki jihatdir. Insonning qaysi millatga, qanday tafakkur, e'tiqodga mansubligi, uning tashqi madaniy belgilari qanday leksik birliklarni qo'llashi, qanday ko'rinishda namoyon bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Har qanday millatning tashqi belgisining asosiy va eng muhim faktori kiyim-kechaklardir. Turli millatlarda ayni bir vazifani bajaruvchi kiyim-kechaklar mavjud bo'lsa-da, mato turi, shakli, uning ma'lum darajadagi farqli ko'rinishlari lingvokulturologik nuqtayi nazardan leksik birliklar orqali alohidalashuviga sabab bo'ladi.

Kiyim-kechak nomlarini o'rganish, uning tarkibini aniqlash, leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini tadqiq qilish xalq tilining, bu orqali xalq madaniyatining ildizlarini aniqlash, uning hayot tarzi, tarixiy taraqqiyotdagi yo'lini o'rganishimizga muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Turkiy tillarda kiyim-kechak nomlarini o'rganish uchun eng muhim manba, albatta, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asaridir. Undan keyin yaratilgan lug'atlarda ham kiyim-kechak nomlari bilan aloqador leksik birliklar haqida ma'lumotlar mavjud.

Hozirgi o'zbek tilida kiyim-kechak nomlarini alohida lug'at tarkibiga kiritish, uni o'rganish M.Asomiddinova nomi bilan aloqadordir. Olima muallifligida 1981-yil "Fan" nashriyotida "Kiyim-kechak nomlari" lug'atini chop ettirdi. Muallif mazkur kitobda kiyim-kechak nomlarining leksik-semantik va Grammatik xususiyatlarini shunchaki tahlil qilmaydi, balki uning jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, shunday terminologiyaning

paydo bo'lish sabablarini ham turli olimlar fikrlari asosida dalillab beradi⁹

Hozirgi o'zbek tilida kiyim-kechak nomlari boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham o'rganilgan. Mazkur ishlar M.Asomiddinova amalga oshirgan ish kabi alohida terminologiya sifatida monografik ahamiyat kasb etmasa-da, yozma manbalarni tadqiq qilish davomida tadqiqotlarning ma'lum bir qismlari sifatida olib borilgan. Jumladan, A.Ahmedov, B.Bafoyev, H.Dadaboyev, Q.Sodiqov, Y.Saidov, S.Rustamova, B.Abdushukurov, Z.Xolmanova, Z.Isoqova, A.O'razbayev, D.Abdualiyeva, M.Xolmuradova, L.Sindorov, M.Axatova, S.Ziyotova, R.Cho'liyev kabi olimlarning ishlarida kiyim-kechak nomlari ma'lum darajada tadqiqqa tortilgan¹⁰.

Hozirgi davrda mazkur birliklarning qay darajada o'zgarishsiz yoki o'zgrishlar asosida qo'llanilib kelinayotganligi, uning o'z va o'zlashma qatlamga tegishli ekanligi, leksik-semantik, grammatik tarkibini aniqlashda badiiy asarlar boy manba bo'lib xizmat qiladi.

Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanida bir qator gaplar tarkibida kiyim-kechak bilan leksik birliklarning qo'llanilganligini kuzatish mumkin. "Lolazor" romanidan olingan

⁹ Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. - T.: Fan, 1981. - 116 b.

¹⁰ Axmedov A. Furqat poeziyasining leksikasi: Filol. fan. nomz. ... diss. - Toshkent, 1976. - 179 b.; Bafoyev B. Navoiy asarlar leksikasi. - Toshkent, Fan, 1983. - 205 b.; Dadaaboev X. Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskie terminologiya v tyurkoyazychnykh pismennykh pamyatnikh XI-XIV vv. - Toshkent, 1991. - 195 b.; Saidov Y. Fitrat badiiy asarlari leksikasi: Filol. fan. nomz. ... diss. - Toshkent, 1987 b.; Saidov E. Zuvchi, 1991. - 195 b.; Saidov Y. Fitrat badiiy asarlari leksikasi: Filol. fan. doktori. disser. - Toshkent, 2018. - 276 b.; Rustamova S. M. Koshgariy Y. Jadid badiiy asarlari leksikasi: Filol. fan. nomz. ... diss. - Toshkent, 1998. - 183 b.; Abdushukurov B. Lug'atning leksikografik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtorref. - Toshkent, 1998. - 64 b.; XI-XIV asr turkiy manbalarda tilshunoslik: Filol. fan. dokt. ... diss. - Toshkent, 2017. - 214 b.; Xolmanova Z. Abdushukurov B. "Khasan Rab'uzay" leksikasi: Filol. fan. dokt. ... diss. - Toshkent, 2009. - 238 b.; Isoqova Z. A. Navoiyning "Boburnoma"ning leksik tadqiqi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtorref. - Toshkent, 2010. "Makolisi un-nafonis" asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika: Filol. fan. nomz. ... diss. avtorref. - Toshkent, 2010. - 65 b.; Urazboev A. Oqchiy tarixiy asarlar leksikasi: Filol. fan. d-ri (DSc). ... diss. - Toshkent, 2018. - 201 b.; Abdualiyeva D. A. Navoiy tarixiy asarlar leksikasi: Filol. fan. b'uyincha falsafa doktori (PhD). ... diss. - Toshkent, 2018. - 145 b.; Sindorov L. "Xibat ul-xakoinik" leksikasi: Filol. fan. b'uyincha falsafa doktori (PhD). ... diss. - Toshkent, 2021. - 154 b.; Axatova M. Uzbek tili tasavvuf leksikasi: Filol. fan. d-ri (DSc). ... diss. avtorref. - Toshkent, 2022. - 154 b.; Ziyotova S. "Mehrobdan chayon" asari leksikasi: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. - Toshkent, 2022. - 154 b.; Cho'liyev R. Abdulla Qodiriy kichik prozaik asarlari leksikasi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. (PhD). ... diss. - Buxoro, 2024. - 141 b.

quyidagi gaplarda kiyim-kechak bilan aloqador birliklarni uchratamiz:

"Kelgani barobar dilga joyladi – go'yo ro'molcha uchini tugun qilib tugdi"; "Yaxshiboyev eslaydiki, issiq edi, gir etgan shabada yo'q; uning o'zi ko'ylakchan, Oshno yozlik jujuncha kostyumida atir surtilgan odmigina ro'molchasini olib, manglayiga toshgan mayda terni tez-tez artar edi"; "– Harna, kelin hali yosh-da, Nazar aka! **Chit libos** ham yarashadi"; "Kiyimlarini almashtiradi, **yaponcha kimonosini** kiyib, sochlarini tepaga turmaklab, yelpig'ichini olib, nax Chio-Chio-San bo'lib..."; "Xotini Tamaraning ko'zini quvontirib, badantarbiyachilarning "**Adidas**" yozuvli kostyumini kiyib chiqadi..."; "Uyda tinchgina o'tirsin, choyingizni damlab bersin, **ishton-ko'ylagingizni** yuvsin..."; "Go'yo kelinlarning **kir paypoq** ushlab, burunginalarini jiyrganini ko'rgandek bo'ldim"; "**Paypoqlarimni** qachon yuvishini kutaman"; "Ayniqsa, kir **paypoqlar** solingan yelimxaltani o'ylash..."; "...tuya junini belga **belbog'** bilan tang'ib..."; "...**kiyim** yechiladigan joyda burnimdan buloq ochib, sovuq terga botib turgan edim"; "**To'nimni** teskari kiyib, avval o'zlaridan so'rasak, Sayfiddinjon, deb achitdim..."; "Ukamiz, harna, bizga biror yigirma besh **ko'ylakni** kamroq; to'zitgan, o'rgatgani, pisanda qilib turgani unchalik yoqmadi"; "...besh durrali yulduz izi bilinib turgan budyonniycha **shapkasini** chap qo'lga olib..."; "...**etik** qo'njiga tiqilgan qamchisini olib..."; "Kirib-chiqayotganlar orasida chorig'-u **chopon** kiyganlar ham borligi kutildi"; "Oshno pulga pishiqroq edi, lekin xursandchilik sharofatidan, **lippasiga** tuggan dunyodan ozgina chiqarib berdi..."; "...tim ko'k **shimda**, oppoq maykada..."; "...bu aziz maskanda ohorsiz **kiyim** o'zi bo'lmaydi..."; "Bitta **do'ppi** kiygizib, bitta **to'n** yopaman, xolos"; "O'sha o'ttinchi yillarda qolgan eski **kitelini** yelkasiga ilib yuravergan" kabi.

"Galatepaga qaytish" qissasidagi quyidagi gaplarda kiyim-kechak otlari va uning qismlari bilan bog'liq leksik birliklar qo'llangan:

"Mulla Chori boshqalarning kaftidagi tuproqni ham **belbog'iga** solib, pastda turgan Naim amakiga uzatdi.", "Panji o'g'ri odam bo'lib, belga **belbog'** boylaganidan beri..."; "Turdiqulning soqoliga oq tushibdi. **Salla** chetidan ko'ringan sochlari ham oq.", "...kimdir yarim yo'lda ortidan yetib, yelkasiga ko'k **to'n** tashladi...", "G'aybarovning egnidagi zangor **to'nning** yelkasi tim ko'kka aylandi.", "**Sariq boshmoqchalar** otaning ustidagi **to'nni** loy qildi...", "Oysha marhum erining **etigini** kiydi, **to'nini** kiydi...", "...ko'chada **to'n** kiygan, g'amgin, basavlat Samad qarshi oladi va sekin aytadi: shunday bo'p qoldi...", "Sochlari to'sqi, **jamalaklari** betartib...", "Mijozlarning **etigini** yamaydi...", "Oyog'ida og'ir kirza **etik...**", "Keyin, biror besh oy o'tgach, Raim oqsoqol shaharga keldi. Egnida raislik zamonidan qolgan ko'k **kitel**, oyog'ida sariq xrom **etik...**", "...undan pastda **latta etik** kiygan qishloq faollari, yoshlar...". "Raim oqsoqol ko'rpachaga o'tdi, oyoqlaridagi **etiklarni** yechib, poygakka otdi.", "Galatepaga kirar mahali ustiga **chakmonimni** yopdim." "Mahanboy tizzaladi-yu **shimining** cho'ntagidan bir so'mlik chiqardi.", "Keyin, biror besh oy o'tgach, Raim oqsoqol shaharga keldi. Egnida raislik zamonidan qolgan ko'k **kitel**, oyog'ida sariq xrom **etik**, boshida Mavlonboyning **do'ppisi**, kechki mahal kirib keldi.", "Kabinetdan kumush sochlarini taragancha Haykal G'aniyevich chiqdi. Bardam, kiygan kiyimi bashang, atrofga yap-yangi charm papka va yengilgina farangi atir isini taratib chiqdi.", "...mixga ilingan **choponni** oldi, uni kampirning ustiga tashlab...", "Norboyvali... juldur **choponi** barlarini qo'lga olib...", "U beixtiyor cho'ntagidan **ro'molcha** chiqardi...", "...o'zi ustimga iladigan bitta **chakmon** bilan bitta **ishtonim** qoldi!...", "...mijjalariga qalqqan yoshni **ro'molining** cheti bilan arttdi.", "Anzirat kampir yuvinib bo'lib, **ro'moliga** artinadi.", "Onasi uni musodaradan asrab qolgan, so'ng boshiga

o'rab, turmadagi erini ko'rgani kelgan, mehmonxonada o'g'li bulg'agan kursini tozalab artib, **ro'mol**ni axlat qutisiga otgan...", "Tishlari qamashdi, charchagan lanidan jiqqa ter chiqib, **ko'ylagi** egniga yopishdi", "Do'sti **ko'ylagini** kiyishga ham ulgurmad...", "Murod amakining boshida bor. U pulni **telpak** ichiga solib, yana kiyib oladi", "...o'zi yalang **ko'ylak**da otasining hujrasiga o'tdi...", "...so'nggi qatorda, atlas **ko'ylak** kiygan yoshgina juvonning yonida u kecha bozorda ko'rgan odami — uzumfurush o'tirardi", "Faqat hozirgi qiyofasi bozorchiga aslo o'xshamaydi — egnida kulrang **pidjak**, bo'ynida serhasham **galstuk**, sochlari orasidan farq ochgan...", "...oyog'ida sariq xrom **etik**, boshida Mavlonboyning **do'ppisi**, kechki mahal kirib keldi.", "Hammasining ustida **to'n**, boshida **do'ppi**...", "Ota turmadan qaytadi. O'sha kunlardan esda qolgani: sariq **boshmoqchalar**, yangi, g'archli, tagcharmi, mayin, lekin g'archli bo'lgani juda quvonchli...", "Hozirgacha bola sariq **boshmoqchalarni** oyoqlariga ilib, qir bag'ridagi so'qmoqlarda rosa yuguradi.", "O'tlardan... guliqayrag'ochlardan boshmoqchalarga, shimning pochalariga shabnam sachraydi...", "Namat chetidagi ikki juft **po'puz**ni ko'rdi.", "Qani, **shimingni** yech!", "Samad **shimini** tushira boshladi...", "Zum o'tmay, xotinini **semiz bo'xchasi** bilan boshlab qaytdi. Oyoqlarida o'sha eski **shippak**, egnida eski **surp ishton** bilan **qora ko'ylak**, shu ahvolda poyezdga chiqdi.", "dimog'iga kir **paypoqlar** va ter hidi urildi. Ustidagi kiyimi taxtadek qotgan edi; **po'puz**ni oyoqlarini siqqanini sezdi...", "Hammasining ustida **to'n**, boshida **do'ppi**, ular G'aybarovning ovoz chiqarishini kulmay o'zlari otamlab yuborishdi."; "Ko'chada **to'n** kiygan, g'amgin, basavlat Samad qarshi oladi...", "Ukasining egnidagi **to'n**ning yoqasini tuzata turib: — Komil uydan xabar olgani ketdi.", "Mavlonboy, mullaning yonida, yuzi jiddiy, egnida qora **to'n**, hamdardlik bildirishganda, g'amgin bosh irg'aydi...", "**Shimining** pochalarini **latta etik** qo'njidan chiqargan mahali toza parketga shuvillab tuproq to'kildi.", "Unga qora kishmish solingan savat ortida

yurgan uzumfurushning o'zi ham ma'qul tushdi: egnida **oq joma**...", "Samad mehmonni ishontirish uchun javondan G'aybarovning kitobini olib ko'rsatdi."

"Dasht-u dalalar" hikoyasida quyidagi gaplar tarkibida kiyim-kechak otlari mavjud:

"...alamidan xotin bechoraning uyda qolgan **kiyim-kechagini** hovliga olib chiqib oshpichoq bilan qiymaladi..."; "...chakmonining bariga bir urdi: "Hay, mayli, ketsang ketaber, Xatcha..."; "...egnidagi kiyimning butuni yo'q, yenglari-yu **ishtonining** baloqlarigacha ro'dapoday osilib yotibdi...", "Arazi tarqamagan chog'i: salom bermadi, xuddi begonaday, ko'zlari yerda, **og'zini ro'mol bilan to'sdi**...", "Xadicha **ro'mol** bilan og'zini to'sib, **begonalik** va **xijolat** ifodasini bildiradi.", "...xotini o'ragan bir so'mlik gardi ro'mol-u...", "Xotini **o'ragan bir so'mlik gardi ro'mol-u**, uning kir unnagan ko'ylagi sabab bo'ldimi yoki qo'lidagi cho'ltoq supurgimi, ishqilib, unga betlab qaray olmadi...", "Etik qo'njiga qo'l yuborsa nomardlik bo'ladi...", "Etik qo'njiga qo'l yuborsa nomardlik bo'ladi, gavron ham poda qamalgan kamarda qolgan...", "Sattorqul kelib, yelkasidan etigi bilan bosdi.", "Sattorqul kelib, yelkasidan etigi bilan bosdi: "Xatchaning talog'ini aytasan!", "Etigining uchi bilan Polvonni yuztuban ag'darib tashladi..."; "Etigining uchi bilan Polvonni yuztuban ag'darib tashladi va yag'rini aralash qamchi tortdi..."; "Sarg'ish chakmonni bag'ir tusiga bo'yab boryapti..." , "Qip-qizil, ko'zyoshiday jizillatadi, sarg'ish chakmonni bag'ir tusiga bo'yab boryapti...", "Ko'zlarini yirib oldinda bir juft toshtovon etikni ko'rdi...", "Ko'zlarini yirib oldinda bir juft toshtovon etikni ko'rdi. Ag'darma ko'n, choklari pishiq, jiyirilgan joyi yo'q...", "Ustida o'sha kir ko'ylagi bilan gardi ro'moli..."; "Xadichani Sho'rquduqdan berida, poda yotar joyda topdi. Ustida o'sha kir ko'ylagi bilan gardi ro'moli, etagida qo'ng'iz kavlab ketgan besh-olti g'ovak tezak...", "Ko'zlarini artarkan, ro'moli boshidan sirg'alib tushdi, sochlari yelkasiga yoyildi.", "Ko'zlarini artarkan, ro'moli boshidan sirg'alib tushdi,

sochlari yelkasiga yoyildi.", "Xadicha yaqinroq keldi, erining usti-boshiga chaplangan loy va qonni artmoq bo'lib qo'l cho'zdi...", "Xadicha yaqinroq keldi, erining usti-boshiga chaplangan loy va qonni artmoq bo'lib qo'l cho'zdi...", "Xadichaning bilaklari bo'yniga chirmashgan zamon... yoqasiga qadalgan qator sadaf tugmalarigacha iffatga yor, shubhaga zomin edi.", "Xadichaning bilaklari bo'yniga chirmashgan zamon majoli qochdi... yoqasiga qadalgan qator sadaf tugmalarigacha iffatga yor, shubhaga zomin edi.", "...uning tarashadek qotgan jun chakmoniga betini burkadi.", "...uning tarashadek qotgan **jun chakmoniga betini burkadi.**"

"Darvoza yonidagi it" hikoyasida kiyim-kechak otlari quyidagi gaplar tarkibida qo'llangan:

"Itvachcha yugurib kelishda xo'jayinning tizzasiga yopishdi, uning oppoq ishtoniga so'lagini oqizib, o'zicha muhabbat izhor qilgan bo'ldi", "Xo'jayin yoqasini ushladi", "U boshiga eski ko'k qiyiq bog'lagan, egnida qalin chakmon bor edi", "Xo'jayin qo'lidagi qo'shog'iz tasmasini yelkasiga solarkan...", "Xo'jayin yelkasidagi qo'shog'izni olib, unga to'g'riladi", "Ust-boshini qoqib, bukchaygan ko'yi...", "Miltiq qo'ndog'ini yerga qo'ydi, dag'al chakmonining barini ko'tarib, peshonasini artdi", "U boshiga eski ko'k qiyiq bog'lagan, egnida qalin chakmon bor edi"

"Bir toychoqning xuni" qissasi tarkibidagi quyidagi gaplarda kiyim-kechak otlari ishlatilganligi kuzatildi:

"To'raboy xashaki olmalar ostidan yo'lchadan mayda qadam bosib keldi. Chorpoza yonida turgan oftobadan suv quyib, belbog'iga artindi", "Keyin qo'l artgan qiyiqchasini chap yelkaga tashlab, chorpoza chiqdi", "G'uchchi cholning chopon tagiga yashirilgan qo'lga tikilibroq qaradi", "G'uchchi chol buni rag'bat tushunib, yarador qo'lini chopon chokidan chiqardi", "G'uchchi chol o'ng'aysizlandi. G'uchchi choldan sal norozi bo'ldi. Uning boshiga o'raganidan bo'lak, uyda yana uchta sallasi bor edi", "Oshnasini tozi qopgan kuni buxori sallasidan bir bo'lak yirtib boylagan...", "Mening

birovga ziyonim tegmagan,— dedi u.— Uyda bitta kafanligim bilan tablada bitta otim bor", "G'uchchi cholning chopon tagiga yashirilgan qo'lga...", "To'raboy uning sallasi bilan o'ralgan qo'lini ko'rdi", "— O'zingizni kalishingizni kiying," — dedi Ibodullo Maxsum. — "Meniki hali yangi, to'yga kiyib boradigan...", "To'raboy battar kalovlandi, Ibodullo Maxsumning kalishini yechib, o'zining uvadaroq juftini oyoqlariga ildi.", "Ibodullo Maxsum choponining barlarini qayirib, belbog'iga qistirdi...", "To'raboyning o'zi to'lagina, choponi taniga ham xiyol tor edi" kabilar.

Kiyim – insonni tashqi muhit ta'siridan saqlash, berkitish, kiyish uchun mo'ljallanib, ma'lum bir matodan tikiladigan buyum. Mazkur so'z *kiyim-kechak* tarzida va *sarpo* so'zi bilan sinonim bo'lsa-da, kichik prozaik asarlarda faqatgina *kiyim* shaklida qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Ushbu so'z etimologik jihatdan qadimgi turkiy tilda *badanni mato bilan qopla-* ma'nosini anglatgan *kāz-* fe'lidan (DLT,III,445) *-(i)m* qo'shimchasini qo'shish bilan shakllangan, keyinchalik *ā* unlisi *e* unlisiga (DTS,295) va bu unli o'z navbatida *i* unlisiga *ä* undoshi *y* undoshiga almashgan: *kāz- + -im = kāzīm > keyim > kiyim* tarzida hosil bo'lgan¹¹. Yusuf Xos Hojibning "Qutaqg'u bilig" asarida *kidim, kedim* shakllarida "Hibat ul-haqoyiq" asarida esa *эса keyim* (DTS,295) shaklida qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Navoiy asarlarida *kiygulik-* kiyishga yaroqli, kiyishga yaraydigan ot shaklida berilgan¹².

Murod Muhammad Do'st asarlarida *realiya* sifatida qo'llangan *belbog'* madaniy birligimiz sifatida katta tarixiy davrni bosib o'tgan. Mazkur birlik qadimgi turkiy tilda dastlab qur shaklida ishlatilgan va aynan shu birlik *belbog'* ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan. **Belbog'** birligining o'zi ham mutlaqo mavjud bo'lmagan degan xulosaga kelmaslik kerak. Faqatgina hozirgi o'zbek tili sintaksisi nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, asli

¹¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Т.: Университет, 2000. 1 том. - Б. 209.

¹² Фозилов Э.И. тахрири остида. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. Тошкент, "Фан" нашрияти. 1983. II жилд. - Б. 113.

moslashuvli birikma tarzida mavjud bo'lgan. Turkiy tillarga xos ixchamlashtirish prinsipi asosida og'zaki nutqda *belbog'* shakliga kelib qolgan. Hozirgi o'zbek tilida bunday shakldagi so'z birikmalarining leksik birlikka aylangan holati juda ko'p uchraydi. **Tugma** degan leksik birlik qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lsa-da, ammo u hozirgi shaklda mavjud bo'lmagan, odatda oldi yopiq kiyimlardan foydalanilgan bo'lsa, *belbog'* oldi ochiq kiyimlarni yopib turish uchun ishlatilgan. **Tugma** leksik birligi esa faqatgina *belbog'*ning tugib qo'yilgan joyi ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan. *Belbog'* linvokulturologik birlik sifatida xalqning turli holatlarida, turli maishiy vaziyatlarida ishlatilgan. Masalan, ma'lum bir kasb yoki hunar egasi o'z shogirdlarining shu sohada kamolotga erishganiga, uning mustaqil ravishda faoliyat olib borishiga ishonsa, unga *belbog'* bog'lagan. To'ylarda kuyovlar, azalarda azadorlar bog'lashgan. Barchamizga ma'lumki, xalqimizda bo'ladigan boshqa tadbirlarda ham *belbog'*dan foydalanishadi. Hattoki mazkur birlik asosida xalq o'yinlari, sport musobaqalari ham paydo bo'lganligini kuzatish mumkin. Masalan, xalqimizning milliy qadriyatiga aylangan kurash turi ham aynan *belbog'*li deb nomlanadi. Mazkur birlik turli davrlarda turlicha nomlar bilan atalgan. Jumladan, XI asrda *qur* va *qurshag'*, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida *belbog'*, *bog'*, *o'rama* shaklida keltirilgan. Bunday nomlanishlar tasodifiy emas. **Qurshamoq** yoki **o'ramoq** kabi harakatlar hozirda ham biz *belbog'* deb ataydigan birligimiz orqali amalga oshiriladi. XIV-XV asrga kelib o'tovlarni mustahkamlash, ularni aylantirib bog'lanadigan predmetga nisbatan *qur*, *belbog'* hamda *po'ta* so'zlari ishlatilganligi kuzatiladi. Aynan Borovkov belga bog'lanadigan, hozirgi kunda *belbog'* deb ataladigan birlikka nisbatan *qur* so'zining qo'llanilganligini ta'kidlaydi. Davr o'tishi bilan maishiy hayotga mos va tushunilishi oson birlik sifatida *belbog'* birligi qo'llanila boshlangan.

Boshqa turkiy tillarni qiyosiy o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, turkiy xalqlar *qur*, *qurshag'* va *belbog'* so'zlarini aynan bir semada qo'llagan. Hozirgi kunda qozoq tilida *belbeu*, qirg'izlarda *belboo*, ozar tilida *gurshag*, xakaslarda *xur*, qumiqlarda *belbog'*, no'g'aylarda *belbev* hamda o'zbek tili lahjalari tarkibida qarluq-qipchoqlarda *belqars* tarzida ishlatilishi kuzatiladi. Mazkur leksik birlikning mamlakatimizning turli hududlarida turlicha nomlar bilan atalishi ham uchraydi. Ammo ularning birontasi boshqasini inkor qilmaydi, ya'ni ayni birlik ma'lum bir shevada boshqa bir ma'noni ifodalamaydi.

Respublikamizning turli joylarida *qiyiq* va *belbog'* birliklarini adashtirib qo'llash holatlari ham kuzatiladi, ammo bu ikki madaniy birlik bir-biriga aloqadorlik asosida yuzaga kelsa-da, aslida bir-biridan farqlanib turadi. *Belbog'* hozirgi kunda to'rtburchak, mustahkam matodan tayyorlangan, qarama-qarshi uchlari bir-birining ustiga yotqiziladi hamda boshqa qarama-qarshi qismlari o'ralgan yoki o'z holaticha belga bog'lanadi. *Qiyiq* esa mana *belbog'* detalining qarama-qarshi uchi birlashtirilganidan so'ng boshqa qarama-qarshi uchidan kesilgani, qiyilganini anglatadi. Bunday leksik birlik hajman kichiklashsa *qiyiqcha* nomi bilan ham ataladi, umuman olganda, *qiyiq belbog'*ning yarmi sifatida ham qaraladi. Agar bel kesilmasdan turib qarama-qarshi uch tomonlari birlashtirilgan holda tikilgan bo'lsa, qo'sha *qiyiq* nomi bilan ataladi, har qanday holatda ham *qiyiq belbog'* bilan aloqadorlikda paydo bo'luvchi birlik sanaladi. Hozirgi o'zbek tilida *belbog'* va *belqars* so'zlari ma'lum bir hududlarda yagona tushunchani anglatasa, Yakkabog' va Dehqonobod tumanlarida *belbog'* va *belqars* so'zlarining umumiy funksiya bajarish jihatlari farqlanmasa-da, ammo shakliy tomonida tafovut borligi bilan boshqa-boshqa leksik birlik sifatida qaraladi. Ilmiy manbalarda erkaklar bellariga bog'lashga mo'ljallangan, oddiy, kashta urilmagan predmetga nisbatan *belbog'*, ma'lum bir

qimmatbaho matoga kashta urilgan, bezatilgan predmetga nisbatan *belqars* leksik birligi qo'llaniladi¹³. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, *belbog'* birligi hozirgi kunda mamlakatimizning turli hududlarida turlicha nomlar bilan atalishi kuzatilar ekan, buning sabablari tahlil qilinganda mazkur hududlarda yashovchi xalqlarning etnik kelib chiqishi hamda ularning qaysi millat, elat vakillari bilan yonma-yon yashashiga qarab o'zgarib borgan. Jumladan, Qashqadaryoning Qarshi shahri va Shahrisabz viloyatlarida *belqars*(qars), *belboq*, *qiyiq* tarzida, Farg'ona vodiysining Namangan hamda Uychi shevaarida *belbog'*, *belbog'*, *chorsi*, *qiyiqcha* shaklida, Andijon va Farg'ona viloyatlarida *belvoq*, *belvaq*, *belvag'*, *chorsi*, *qiyiq* tarzida ishlatilishiga guvoh bo'limiz. O'zbek va tojik xalqi ming yilliklar davomida yonma-yon yashab kelishadi. Shu nuqtayi nazardan respublikamizning forsiyzabon aholi yashaydigan qismidagi o'zbeklar nutqida mazkur birlikning shu tilga mansub variantlarini qo'llash odat tusiga aylanib qolgan. Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va mamlakatimizning yana bir qator viloyatlarida o'zbek va tojiklar yonma-yon yashab kelishmoqda, aynan shu hududlarda *belbog'* leksik birligi *miyonband* hamda *ro'pakcha*(ro'pokcha) so'zlari bilan ataladi. *Miyonband* tojikcha so'z sifatida *belbog'* birligining aynan tarjimasidir, ya'ni *miyon-bel*, *band-bog'* so'zlari kompozitsiyasidan tashkil topgan. *Ro'pakcha* so'zi ham tojikcha birlik sifatida *ro'mol* bilan o'zakdosh sanaladi, aslida *ro'y*(yuz) va *pok* so'zlaridan tashkil topgan, yuzni poklovchi, artishga, tozalashga mo'ljallangan buyum ma'nosini ifodalaydi. *Belbog'*ning ham xalqimiz tomonidan xuddi shunday vazifani bajarishi holatlari kuzatiladi.

Salla arabcha *savat*, *to'rxalta*, *tugun* ma'nolarini ifodalab, uzunligi 1,5 metrdan 7 metrgacha bo'ladigan, do'ppi, kuloh, telpak, ustidan o'raladigan mato, doka, musulmon erkaklarining bosh

¹³ Ўзбек халқ шевалари лугати. - Тошкент: 1971. - Б. 49; 106; 216; 222; 227.

kiyimi hisoblanadi¹⁴. Navoiy asarlarida qo'llangan *dastor* so'zi bilan o'zaro sinonimlik hosil qiladi¹⁵.

To'n — an'anaviy uzun erkaklar tashqi kiyimi, matnda "ota boshmoqlarni to'niga battar ishqadi, kuldi: mayli, bolam, otasi boshqa loy-da!..." qismida "otaning to'niga loy yuqdi" deb tilga olingan. Ayonki, *janda* leksemasi bir qancha ma'nolar ifodalaydigan leksema sanaladi. Bu so'z forsiy bo'lib, 1. eski, yirtiq; eski va yirtilgan kiyim; darvesh va qalandarlarning uloq-quroq to'ni; eski, yirtiq, uloq-quroq, juldur kiyim; 2. bolalar o'yinida: o'yinni yaxshi bilmaydigan bolaga ikki marta o'ynash uchun berilgan huquq kabi lug'aviy ma'nolarni ifodalaydi.

Alisher Navoiy asarlarida *janda* so'zi *darveshlar to'ni* ma'nosida qo'llanilgan. She'rda insonning ust kiyimi muhim emasligiga ishora qilinmoqda. *Janda kiygan bilan olim kishi darvesh bo'lmas, kishining kiygan to'ni palosmi, ipakmi farqi yo'q, barcha barobar, ular alloh taolloning birdek bandalari* degan fikr she'r mazmuniga singdirilgan. Ushbu baytda *palos* va *ipak* leksemalari mato nomi sifatida qo'llanilgan. *Ipak* qadimiy va milliy matolardan biri bo'lib, xalq hayotida katta ahamiyatga ega. *Palos* bugungi kunda mato nomini anglatmaydi, balki polga to'shaladigan gilam ma'nosini bildiradi. Baytda *janda* leksemasi *to'n* ma'nosida qo'llanilgan. Qo'llanish davriga ko'ra *janda* va *xirqa* leksemalarining har ikkalasi ham bugungi kunda ishlatilmaydi, *istorizm* sanaladi. Shuningdek, shoir ikki misrada *to'n* so'zi ma'nosini ikki so'z bilan ifodalaydi: *janda* va *to'n*. Bu baytning badiiylilik qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tili hamda O'TILda *to'n*, asosan, quyidagi ma'noni anglatadi: *To'n* 1 Oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. III жилд. - Б. 428.

¹⁵ Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари лугати. Тошкент, Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат, 1972. - Б. 183.

uzun ustki milliy kiyim; chopon¹⁶. Olima M.Asamuddinova fikricha, qadimiy yozma manbalar tilida *to'n* so'zi umuman *ust kiyim, chopon, chakmon, po'stin* ma'nolarini ifodalaydi. VI-VIII asrlarga oid Kultegin yodnomasida *chopon* ma'nosini ifodalagan quyidagi jumla uchraydi: *ichra ashshiz, tashra tonsiz jabyz jablak budunta yza olurtyim*¹⁷.

Qadimiy turkiy so'z *to'n* umuman kiyimni ifodalab, keng ma'noda qo'llangan. Keyingi davrlarda o'zbek xalqi madaniyatining yuksalishi bilan *ust kiyim* turlari ham ko'paydi. Natijada, *to'n* so'zining ma'no ko'lami ancha torayib, turli matolardan tikilgan avra-astarli, erkaklar kiyadigan ustki milliy kiyim turini ifodalaydigan bo'lib qoldi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *to'n*ning eng mos ekvivalenti sifatidagi *chopon* leksemasi faol qo'llanilib kelmoqda¹⁸. *To'n* birligi realiya sifatida xalqimizda muhim sanaladigan qadriyatlardan biridir. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlarida xon yoki umuman, hukmdor tomonidan *to'n* taqdim etish haqida yozadi. Bizning xalqimiz tarixidan ham ma'lumki, ma'lum bir xizmatlari uchun *to'n* in'om etish odat tusiga aylangan, ammo bunday taqdirlashlar farqli jihatlariga ham ega bo'lgan. Chunonchi, xizmat darajasiga qarab beriladigan *to'n*larning turi farqlangan, kimxob, olacha, zarbof kabi qator *to'n* turlari darajalangan va bu juda muhim predmet sanalgan. Xalqimiz orasida paronim sifatida qo'llaniladigan tunamoq va *to'namoq* so'zlarini adashtirib qo'llash holatlari juda ko'p kuzatiladi. Agar ma'lum bir shaxs yoki tashkilotning arziqli narsalari, moddiy boyligi o'g'irlangan holatda *to'namoq* fe'lining qo'llanilishi bejizga emas. Hozirgi kunda ham qadimgi turkiy tilda ifodalagan semasi kabi *to'n* umuman ustki kiyim ma'nosini saqlab

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий инцеклопедияси, 2006. IV жилд. - Б.

¹⁷ Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. -Тошкент: Фан, 1981. - Б.19.

¹⁸ Мухаммадиев Х.Л. Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlaridagi maishiy leksika. Fil. fan. bo'yicha fals. dok. diss.

qolgan, chopon yoki uning boshqa turlari ham aynan shu nom ostida tuhfa qilinishi hech birimizga sir emas.

To'n tagidan haligi shishani chiqarganimda, yuzida hijolatga o'xshash bir nima paydo bo'ldi.

Malol kelmasa, to'nning kissasidan dori olib bersangiz.

- Yo'q, aka, paltomas, to'n, -dedim.

- Eskiroq, uvadasi chiqib ketgan "Lolazor".

Jelak "Sezdi-yu boshiga *jelagini* ilib yugurdi...". O'zbek tilining izohli lug'atida makur birlikning ikki, ya'ni: "*nimcha, yengsiz yupqa kiyim*" va "*xotin - qizlar boshida tashlab yuradigan ro'mol*" kabi ma'nolari mavjudligi izohlangan¹⁹.

Etik uzun qo'njli *poshnali poyabzal*. *Qizimga shu etik ma'qul keldi*. Bu ot qadimgi turkiy tildagi *kiy-* ma'nosini anglatgan *et* fe'lidan *-(u)k* qo'shimchasi bilan yasalgan (ESTYa, I, 321; Devon, I, 98; DS, 188), o'sha davrlardayoq ikkinchi bo'g'in- dagi *u* unlisi *i* unlisiga almashgan (Devon, III, 298): *et-+uk>etuk>etik*. Bu ot dastlab *yumshoq charmdan yasalgan oyoq kiyimi* ma'nosini anglatgan, keyinchalik oyoq kiyimining ma'lum bir turini bildiradi boshlagan²⁰.

Chopon. Bu so'z turkiy xalqlarning asosiy ustki kiyimi hisoblanadigan paxtalik *to'n*ning sinonimidir. *To'n* keng ma'noda, *chunonchi*, *avara to'n*, *avra-astar to'n*, *paxtalik to'nni* ifodalasa, ammo *chopon* aksar *paxtalik to'n* ma'nosida yuritiladi. Qadimiy turkiy yozma manbalarda bu so'z uchramaydi. Jun matodan tikilgan **chopon** tipidagi ustki kiyim XI asr tilida **chukrak** va **jalma** so'zlari bilan ifodalangan: *qul chukraklandi - qul jun choponga ega bo'ldi* (DLT, III, 321). XII asr yozma yodgorligi "Muqaddimatul adab"da *momuqluq to'n*(248) so'z birikmasi bilan berilgan. XV asrdan e'tiboran *to'n* bilan bir qatorda *chopon* so'zi ham uchray boshlaydi. Xo'b yirtiq *to'n* bila ham xo'b, gul yamog'liq *choponi* bila

¹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий инцеклопедияси, 2006. II жилд. - Б. 80

²⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати Т.: Университет, 2000. I жилд. - Б. 471.

mahbub(Navoiiy, MQ.69), Erur yuzungning gadoyi oqgulkim, Ko'rindi borcha momug'lig' choponi uzra momug'(ML,682).

Ayrim mualliflarning fikricha, *chopon* so'zi fors-tojikcha *shaban/cho'bon (pastux)* so'zidan rivoj topgan bo'lib, turkiy tillarga, undan rus tiliga o'tgan²¹. Murod Muhammad Do'st asarlarida ham shu ma'noda kelgan:

"*Mana, bizning yaktak ishton, yakta chopon bilan qolg'onimizdan bilmaysizmu?..*", "*Juldur chopon kiygan jikkakkina chol*" "Lolazor".

Ko'ylak "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da ko'ylak so'zi "*yalang qavat yupqa kiyim*"ni ifodalashi, qadimgi turkiy tilda ko'nglak tarzida talaffuz etilgani (Devon, III, 394); o'zbek tilida *ng* undoshi y undoshiga almashganligi, o' unlisining yumshoqlik kelgisi yo'qolganligi, hozirgi o'zbek shevalarida *ko'ynak* tarzida ham talaffuz qilinishi haqida ma'lumot beriladi.

Ro'mol "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da "yuz" ma'nosini ifodalaydigan *ro'* oti bilan (TjRS, 331) "*bisotdagi narsalar*" ma'nosini bildiradigan arabcha *mol* otidan (ARS, 774) tuzilgan bo'lib, TjRSda asosiy shakli deb *ro'ymol* ta'kidlanganligi(331), bu ot "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "ayollar boshiga o'raydigan buyum" ma'nosini bildirishi, *ro'molcha* birligi esa aslida shu buyumning kichigini ifodalagani, hozirgi o'zbek tilida qo'l uchun mo'ljallangan *dastro'mol*ni bildirishi, ma'noning o'zgartirilganligi izohlanadi²².

Chakmon "O'zbek tilining izohli lug'ati"da chakmon birligi "*odatda jun matodan tikiladigan erkakcha uzun qishki to'n*" ma'nosini ifodalashi keltiriladi²³. XV asr va undan keyingi yozma adabiyotda uchraydigan mazkur birlikni olim M.Asomiddinova keng qamrovli tahlil qilgan. U ushbu birlikning "Boburnoma"da uchrashi, turkiy birlik sifatida *chak/chek* va *-mon* qo'shimchasi

bilan yasalganligi, lug'atlar asosida aslida mato turi ma'nosini ifodalagani, aynan shundan tayyorlangan kiyim ham shunday atala boshlanganligini keltiwradi. U bu birlikning turli turkiy tillarda turlicha fonetik shaklda qo'llanilganligi, usmonli turklar davrida uch xil vazifani bajaruvchi birlikni ifodalaganligi, hattoki turli qabilalarning yuz tarmog'i tarkibida shunday nomga aloqador "Oq chakmon"larning ham mavjud bo'lganligini dalillar asosida keltiradi²⁴. Mazkur tahlillarni kuzatish jarayonida turkilarining Qoraxoniylar davrida o'z nomini tuyaga aloqador qilganligini hisobga oladigan bo'lsak, tuya junidan to'qiladigan matoga ham aloqadorlik asosida urug' nomini atagan bo'lishlari ham ehtimol. Mazkur birlik "Devoni lug'otit turk"da *chaydam* shaklida keltirilgan.

Atlas. Asarda keltirilgan atlas so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi:

Atlas I [*yun. Atlas-mifologiyada Liviya podshosining nomidan; go'yo birinchi bo'lib osmon globusini yaratgan emish*] 1 Muayyan maqsadlarda va muayyan tizim asosida tanlab olingan kartalardan iborat bo'lgan tushuntirish matnlari bilan albom shaklida nashr etilgan to'plam. Geografik atlas.

2 Inson a'zolari, hayvonlar, o'simliklar, turli mexanizmlarning qismlari tasviri tushirilgan va albom shaklida nashr etilgan to'plam. Anatomik atlas. Botanika atlas. Zoologiya atlas.

Atlas II [*a-tekis, silliq, ipakdan to'qilgan mayin mato*] Bir tomoni yaltiroq, guldor, kudunglangan mahalliy ipak gazlama. *Qora atlas. Sariq atlas. Xon atlas. Sakkiz tepki atlas...*"²⁵. Mazkur leksik birlik "O'zbek tilining etimologik lug'ati" va "Devoni lug'otit turk" asarida keltirilgan emas. Alisher Navoiy asarlarida mazkur birlikni

²¹ Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari izohli lug'ati. - Toshkent, 1981. - B. 20.

²² O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. I jild. - B. 631.

²³ O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. IV jild. - B. 448.

²⁴ Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. - Toshkent: Fan, 1981. - B.22.

²⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. I jild. - B. 115.

uchratish mumkin. "Navoiy asarlarining izohli lug'ati"da mazkur so'z quyidagicha izohlanadi:

Atlas -1. Atlas, gazlama:

G'aniyg'a chapon kiyimak andoqdurkim, muflisg'a atlas-u katon kiyimak. (Mahbub ul-qulub. 140);

Xachr-u teva barchasi zebo,

Barchaning raxti atlas-u debo. (Sab'ayi sayyor,91-13);

1. parda, to'shama, to'shalgan narsa:

Biyik qasrig'a to'qquzunchi falak

Ul atlaski botqay amal farshidek (Vaqfiya, 716);

Gardun – osmon, samo bezagi, rang-barangligi:

Navoiy atlasi gardundin etsa maypolo,

Chu dayr durdikashi man demangki, bodani suz. (Xazoyin ul-maoniy(II, 209);

Ishq dashtida balo gardi manga chun parda bas,

Atlasi gardunni yopmasman tani uryonima (Xazoyin ul-maoniy, II, 322);

Falak-moviy osmon; osmon rang-barangligi:

Po'shi deboyi chir: vale necha rang,

Kim anga atlasi falang hamsang (Sab'ayi sayyor, 49-11);

Charx- osmon:

Palosi huzn-u men, ey atlasi charx,

Manga loyiq emas, plo qumoshing (Xazoyin ul-maoniy, (I-257)²⁶.

Yuqoridagi izohlarni to'liq holda keltirishimizning ma'lum bir sabablari bor. Atlas arab tilidan olingan so'z sifatida tilimizga qachondan boshlab qo'llanila boshlagan, uning milliy mato turi sifatida, madaniy belgimizga aylanishining sabablari qanday? "O'zbek tilining izohli lug'ati"da keltirilgan mazkur birlikning yunoncha va arabiy tilga mansub birlik sifatidagi har ikki ma'nosi

²⁶ Фозилов Э.И. тахрири остида. Алишер Навоий асарлари тилининг изохли лугати. Тошкент, "Фан" нашриёти. 1983. II жилд. - Б. 133-134.

ham Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Navoiy asarlaridagi misralardan kuzatish mumkinki, atlas turlicha tovlanuvchi yoki qattiqroq, ammo silliq bo'lgan bir mato ekanligi anglashiladi. Murod Muhammad Do'stning asarlarini o'rganish jarayonida atlas birligining arabcha birlik sifatida qanday qilib milliy qadriyatimiz darajasiga ko'tarilgani, uning qachondan boshlab bizga kirib kelganligi, uning dastlabki shakli qanday bo'lganligini bilish yangi tadqiqotlar olib borilishi lozimligini taqozo qiladi. Hozirgi lug'atlar va Alisher Navoiy asarlarini tahlil qilish jarayonida arabcha va yunoncha so'z sifatida qaraladigan mazkur birlikning ildizi yagona bir tilga mansubday ko'rinadi. Chunki Navoiy asarlarida ushbu birlikning osmonga nisbatan qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin.

Do'ppi istilohi avra-astarli, ko'pincha qavilgan, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topgan guldor yoki gulsiz, to'garak yoki to'rtburchak shaklidagi bosh kiyimi²⁷ ma'nosini anglatadi. Qadimda har qanday bosh kiyimiga nisbatan *bo'rk* so'zi qo'llanilgan. *Börk* – bo'rk, qalpoq, bosh kiyim: *Tatsiz to'rk bolmas, boshsiz börk bolmas // Boshsiz bo'rk bo'lmaganidek, totsiz turk bo'lmaydi* (DLT,I,333). Ushbu so'z qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tillarida turlicha qo'llangan. Uyg'ur tilida *bök, börük*, qadimgi yozma yodgorliklar va "Badai al-lug'at"da *vörk* shakllarida uchraydi, telpak ma'nosini ham anglatadi. Mo'g'ul tilida *börkur* so'zi *покрывало* ma'nosida qo'llangan, shundan *bötur* so'zi yasalib, *yopish, qoplash, kiyish* ma'nolari kelib chiqqan. *Börk* – qalpoq, telpak ma'nosini ham ifodalagan²⁸. Odamlar o'troq hayotga o'tgach, turli xil bosh kiyimlari turlari paydo bo'lgan. *Qoploq* nomi metateza yo'li bilan *qalpoq* shakliga kelib qolgan: *qoploq>qalpoq*. *Qoploqning o'zagi qop, ya'ni kallaning qopi, kallani qoplab turuvchi mato*hdir. Samarqand, Shahrisabz, Kitob, Nurota kabi hududlarda

²⁷ Ўзбек тилининг изохли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I жилд. - Б. 676.

²⁸ Навоий асарлари лугати. Тошкент, Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1972. - Б.

qalpoq/qalpog', Buxoroda *kallapo'sh*, Farg'ona vodiysida *do'ppi*, Toshkentda *to'ppi*, Xorazm shevalarida *taxya*, *tayxa//teyxa*, *taqiya* kabi so'zlar *do'ppi* o'rnida ishlatiladi²⁹. "Devoni lug'otit turk" da *tuba* shaklida kelgan.

Choriq oti qattiq xom teridan tikilgan, asosan, tog'lik hududlar xalqlari orasida rasm bo'lgan oyoq kiyimini anglatadi. Biri ikki bo'lmay, hech narsaga yolchimay kun kechirishga nisbatan choriq sudramoq iborasi qo'llaniladi³⁰. Xalqimiz orasida "*chorig'ini unutmashlik*" iborasi ham mavjud. Mazkur ibora har qanday holatda ham o'z vaziyatini o'zgartirmaydigan, yaxshi kunlarda yomon kunlarini, to'kinchilik paytlarida hech narsasiz qolgan kunlarini unutmagan odamlarning holatiga nisbatan ishlatiladi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati" da "*qalin xom teridan tayyorlangan, kalta qo'njli, uchi yuqoriga biroz qayrilgan oyoq kiyim*"ini anglatishi. Qadimgi turkiy tilda shunday ma'noni anglatgan bu ot asli charuq tarzida talaffuz qilinganligi (Devon, I, 362), qirg'iz tilida bu ot charыk tarzida talaffuz qilinishi (KRS, 851), L.Z. Bugadov lug'atida bu so'z charuq, charыk, charug' shakllarida keltirilganligi (SSTTN, I, 456), charы- fe'li izohlangan yerda shu fe'ldan yasalma sifatida charыq so'zi yana bir marta keltirilganligi (457-b), charыq oti asli "o'rab bog'la" ma'nosini anglatgan charы fe'ldan (bunday fe'li qirg'iz tilida ham mavjud: KRS, 851) -q qo'shimchasi bilan yasalganligi, keyinchalik o'zbek tilida a unli yumshoq a unlisiga almashgan, ы unlisining qattqlik belgisi yo'qolganligi (charы+q=charыq>chariq) qayd etilgan³¹. "U ham shu eski, chegalangan kosadan boshqasini tan olgan emas, ya'ni dehqon bir kuni podsho bo'lib, chorig'ini yostiq qilib uxlagan ekan" ("Galatepaga qaytish").

Ishton "tananing beldan pastki qismiga kiyiladigan, uzun ikki pochali ichki kiyim, lozim"dir. "**Ishtonbog**" esa "ishtonning

²⁹ Ubaydullaev A. "Lug'ati turkiy" da suz ma'no larining izohlanishi // Linqvist VII. Ilmii maqolalar to'plami. - Toshkent, 2016. - B. 18.
³⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. IV jild. - B. 510.

³¹ Ra'hamatullaev III. O'zbek tilining etimologik lug'ati. T.: Universitet, 2000. I jild. - B. 435.

lippasiga o'tkazilgan bog" hisoblanadi³². "O'zbek tilining etimologik lug'ati" da "ich" birligiga aloqador ekanligi, qadimgi turkiy tilda ham xuddi shu ma'noni ifodalovchi ichki kiyim semasida bo'lganligi qayd etiladi³³. Qiziq tomoni shundaki, hozirgi kunda mazkur birlik aynan ayollarning milliy matolar asosida tikilgan tashqi kiyimi ma'nosida keng qo'llaniladi. Erkaklar tomonidan kiyiladigan ichki yoki diniy vaziyatlarda kiyiladigan tashqi kiyimlariga nisbatan ham mazkur leksik birlik ishlatiladi. Bizning ota-bobolarimiz beldan pastki tomonga kiyiluvchi tashqi kiyimlarni "chalvar(chalvar, ba'zi shevalarda chalbar), shim" kabi nomlar bilan atagan.

Kamzul fransuz tiliga mansub so'z bo'lib, "camisole" leksemasidan kelib chiqqan, mazkur birlikning atalishi lingvomadaniy ahamiyat kasb etsa-da, ammo milliy nuqtayi nazardan bunday qarash xato. Xalqimiz shu kiyimga o'xshab ketuvchi, ammo bosh qismini yopish maqsadida ishlatmaydigan "jelak(kalak) kiyimidan foydalangan. "Yomg'irpo'sh" vazifasini ham o'tovchi "kambinzon" so'zi ham shunga aloqadordir.

O'zi kamzulini yerga tashlab, xurjunni yostiq qildi-yu oyni, xira yulduzlarni kuzatib yotdi... ("Bir toychoqning xuni").

Mahsi qo'y va echki terisidan tayyorlanadigan, uzun qo'njli, poshnasiz, tagcharmi yumshoq, kovush yoki kalish bilan kiyiladigan milliy oyoq kiyimi hisoblanadi³⁴. Mahsi turli xil marosimlarda ham maxsus kiyilishi shart qilib qo'yiladi. Masalan, aza yoki kelinlik jarayonlarida.

Hozirgi turkiyshunos olimlar uchun asosiy manba sanalgan "Devoni lug'otit-turk" asarida 216 ta kiyim-kechak nomlar borligi aniqlangan, shularning ichidan bashmak (boshmoq), tuba (do'ppi), qars (belqars), chapan (chopon), kamchi (kamzul), ton (to'n), etuk

³² O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. II jild. - B. 260.

³³ Ra'hamatullaev III. O'zbek tilining etimologik lug'ati. T.: Universitet, 2000. I jild. - B. 129.

³⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. II jild. - B. 575-576.

(etik), charuk (choriq), yaglak (yaktak), ko'nglak (ko'ylak), bilik (belbog'), postan (po'stin) kabi qator birliklar ming yillar davomida shakli deyarli o'zgarishsiz yetib kelgan kiyim-kechak otlari hisoblanadi.

Uy-ro'zg'or maishiy ashyo realiyalari

Murod Muhammad Do'st asarlarida bir qator uy-ro'zg'or anjomlari, oziq-ovqat va maishiy ashyolar nomlari qo'llanilgan. Ular xalqimizning boy madaniy hayoti, uning qadriyatlarini, tarixi xaqidagi qimmatli ma'lumotlarni hozirga qadar o'zida namoyon etadi.

Kigiz - "yungni bostirib tayyorlanadigan qalin palos" ..*kigiz ustiga solingan ko'rpachaga ...choy ho'plab o'tiribdi*. Bu ot qadimgi turkiy tilda "qopla" ma'nosini ifodalovchi *kid-/ kiz* fe'lidan -(i)z qo'shimchasi bilan yasalgan (DS, 306), Mahmud Koshg'ariy "Devon"ida mazkur birlik *kiziz* shaklida "zol" harfi bilan yozilganligi keltiriladi (DLT,I,347), keyinchalik *d, z* undoshining *y* undoshiga almashinishi bilan *kid-/ kiz-+iz= kiziz>kiyiz* shakliga kelib qolgan. Hozirgi o'zbek tilida *y* undoshining emas, balki *g* undoshi bilan aytilishi va shu harf bilan yozilishi qat'iy qoidalashtirilgan: *kiyiz>kigiz*(shevlarda bu otning hozirgi kunda ham kiyiz shaklida talaffuz qilinishi uchraydi³⁵).

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham mazkur birlik *"yungdan bosib tayyorlanadigan qalin pishiq palos, namat"* ma'nosini ifodalashi, undan uy jihozlari tayyorlanishi izohlangan.³⁶

"Mahanboy sakrab tushdi, marhumning oyoq tarafini qo'ltiqqa qisib, kigiz chetlarini yoydi va lahad og'ziga ro'para qildi "Galatepaga qaytish". Lug'atlarda kigizdan to'shama mato va kiyim tayyorlanishi berilgan, ijodkorning asaridan keltirilgan misoldan

³⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Т.: Университет, 2000. I жилд. - Б. 208.

³⁶ Ўзбек тилининг изохли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий инциклопедияси, 2006. II жилд. - Б.

anglash mumkinki, kigizdan tayyorlangan to'shama ma'nosida qo'llanilganligi oydinlashadi. Kigiz ham turkiy tilga mansub birlik sifatida, ham xalqimizning chorvachilik bilan qadimdan shug'ullanib kelganligi, undan turli uy-ro'zg'or buyumlari ham yasaganligi oydinlashadi. Shonli tariximizdan va xalq og'zaki ijodi namunalaridan ham ma'lumki, xalqimiz kigizga alohida bir qadriyat sifatida qaragan. Chunonchi, Amir Temurning taxtga chiqishi, davlat hukmdorligini olganligining belgisi sifatida dastlab kigizga o'tqazilgan. Mazkur birlikning turkiy xalqlarning juda uzoq yillik tarixiy qadriyatiga aylanganligi mo'g'ul xonlarining kigizga o'tqazilgandan keyin davlat tepasiga kelishida ham ko'rinadi. Turkiy tillar davrlashtirilganda dastlabki davr sifatida baholanadigan eng qadimgi turkiy tillar davri aynan mo'g'ul va tungus-manjur tillariga aloqadordir. Xalq dostonlaridan biri sanalgan "Kuntug'mish" dostonida ham davlat qushi Kuntug'mish boshiga har uch marta uchirilganida ham qo'nganidan keyin uni hukmdor deb e'lon qilib, kigizga o'tqazishadi. Ijodkor asarlaridan aynan "Galatepaga qaytish" qissasida turli vaziyatlarda shu ashyo bilan aloqador voqealar ko'p uchraganligi sababli bir necha o'rinda uchraydi. "Xona ship-shiydam, sandiq ustiga taxlab qo'yiladigan kigiz va ko'rpalar bog'ga olib chiqilgan"("Galatepaga qaytish").

Pul - hozirgi kunda savdo vositasi sanaladigan birlik asli yunoncha so'z bo'lib, "tiyin" ma'nosini bildiradi (SSTTTN, I,322), aynan shu ma'nosi bilan fors, tojik tillariga, ular esa o'zbek tiliga o'zlashgan (PRS, 98; TjRS,312; O'TIL, I, 606). Keyinchalik esa mazkur ot ma'lum bir qiymat belgilanganidan keyin metall yoki qog'ozdan ishlab chiqarilgan muomala vositasi umumlashma ma'nosini anglata boshlagan, hozirgi o'zbek tilida ham ayni shu semani ifodalashga xizmat qiladi³⁷.

Pul I [f-pul, aqcha; baliq tangasi]

³⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Т.: Университет, 2009. III жилд. - Б. 195-196.

1. Oldi-sotdi yoki to'lov muomalalarida narx, baho, qiymat o'lchovi bo'lgan metal yoki qog'oz belgi; aqcha....

Pul bo'lmoq Pulga almashinmoq, sotilmoq; Pul qilmoq 1) pul hisobiga bermoq, sotmoq, pullamoq. 2) ishlab yoki boshqa yo'l bilan pulni qo'lga kiritmoq, pul to'plamoq.

Pulning qadrsizlanishi.

2. Sarmoya, mablag'.

3. s.t. Ish haqi; maosh.

4. esk. Ba'zi yerlarda yarim tiyinga, ba'zi yerlarda bir tiyinga teng bo'lgan pul o'lchov birligi va shu qiymatdagi mayda pulning o'zi.

Bir(yoki ikki, uch) uch 1) bir yoki ikki, uch tiyin. 2) hech narsaga arzimaydigan, ahamiyatsiz, bir tiyinga ham qimmat.

5 Afg'onistonning asosiy pul birligi- afg'oniyning yuzdan bir ulushiga teng mayda pul, tanga.

Pulga chaqmoq³⁸. Pulni pul bilan o'ynamoq. Pulning sasig'iga yotolmaydi s.t. Juda boy, puldor odam haqida aytiladigan ibora.

Pul II [f-ko'prik] esk.kt. ayn. ko'prik.

Puli sirot³⁸.

"O'zbek tilining etimologik lug'at" va "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi ma'lumotlar qiyoslanganda, ma'lum bir nomuvofiqlik mavjud ekanligi ko'rinadi. Qiyoslash natijasi shuni ko'rsatadiki, afg'on pul birligining qiymati va xalqimiz orasida tiyin ma'nosida iboralar tarkibidagi semalar yunon tilidagi ma'nosiga nisbatan aynan bir xillikni ko'rsatadi, natijada hozirgi Afg'oniston xalqi bilan mushtarak madaniyatga ega bo'lganligimizdan dalolat beradi. Yana bir ta'kidlash joiz bo'lgan jihat mavjudki, pul so'zining izohi berilayotgan paytda uni aqcha birligi bilan sinonim tarzda berish ma'lum darajada tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki manbadan foydalanuvchi pul va aqcha birliklarini aynan bir

³⁸ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. III жилд. - Б. 319-320.

tushuncha sifatida qabul qiladi va aqcha birligi ifodalaydigan aniq tarixiy semaning ma'lum darajada unutilishiga olib keladi. Aqcha turkiy so'z sifatida oqcha, ya'ni kumushdan yasalgan muomala vositasini ifodalagan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da keltirilgan, alohida leksik birlik sifatida tahlil qilingan ikkinchi pul so'zi ham birinchi birlikdan o'sib chiqqan. Hozirda Buxoro va Samarqand hududlarida pul birligi ingichka yoki kichik ko'prikka nisbatan qo'llaniladi, diniy tushuncha tarzida iste'molda bo'lgan pul leksik birligi ham ingichka ko'prik ma'nosini ifodalaydi hamda ikki tomonni bog'lovchi vosita ma'nosi uni dastabki muomala vositasi sifatida ishlatiladigan pul birligiga yaqinlashtiradi.

Alisher Navoiy asarlarida ham pul ko'prik va pul aqcha ma'nolarini ifodalaganligini ko'rish mumkin³⁹. Hozirgi turk tilida pul birligi o'rnida para so'zi ishlatiladi. Mazkur leksik birlik hozirgi o'zbek tilida qanday ma'nolarni ifodalanishi ko'rish orqali xalqning madaniy qiyofasi yanada ochiqlanadi, leksik birlikning psixolingvistik mohiyati aniqlashadi. Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanida para leksik birligi bir necha o'rinda qo'llangan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da forscha so'z sifatida "bo'lak, laxtak, parcha, hissa, ulush, yirtilgan, kesilgan" semalarini ifodalashi, ikkinchi leksik birlik sifatida forsiy "mayda pul, chaqa, xayr-sadaqa, rishva, pora" kabilarni anglatib, biror ishni noqonuniy bitirib bergani uchun mansabdor shaxsga beriladigan yoki berilgan narsa yoki pul kabilarni bildirishi izohlangan⁴⁰. "O'zbek tilining etimologik lug'ati" faqatgina ikkinchi birlik tarzidagi izoh keltirilgan⁴¹. Hozirgi o'zbek shevalarida mazkur birlikning boshqa bir ma'no ifodalashi ham mavjud. Jumladan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand kabi viloyatlarning ayrim tumanlarida yirik molning axlati, go'ngi aynan shu birlik orqali ifodalanadi.

³⁹ Фозилов Э.И. тахрири остида. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. Тошкент, "Фан" нашриети. 1983. II жилд. - Б. 585.

⁴⁰ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. II жилд. - Б. 319-320.

⁴¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Т.: Университет, 2009. III жилд. - Б. 194-195.

Qashqadaryoning Shahrisabz, Yakkabog', Kitob tumanlarida po'ri tarzida ham talaffuz qilinadi. Buxoro viloyatining Jondor, Romitan, Peshko' kabi qator tumanlarida yirik molning axlati, go'ngiga nisbatan pora so'zi qo'llanmasa-da, ammo qoramollarning ostini tozalovchi, ketmonga o'xshagan, biroq gorizontaal jihatdan yassi bo'lgan maishiy predmetga nisbatan porakash, ya'ni porani tortuvchi nomi qo'llaniladi.

Alisher Navoiy asarlarida pora birligi bo'lak; parcha, birmuncha, numerativ; bo'lmoq, yanchilmoq kabi semalarni ifodalashi keltirilgan⁴².

Ammo "ma'lum bir kishiga ishini bitirib berish uchun beriladigan narsa yoki mablag'" ma'nosini ifodalaganligi kuzatilmaydi, qachondan boshlab bunday semani ifodalagan va uning qaysi ma'noga aloqadorligini aniqlash galdagi vazifalardan biridir.

Navoiy asarlarida pora so'zi alohida birlik sifatida keltirilgan va "yog'och kurak" ma'nosini ifodalaganligi dalillangan. Baytga e'tibor berilsa, qor kurovchi asbob ekanligi anglashiladi:

Ki bolchig' pushtasin no'gi itik bel,

*Vayo poru bila qor oritur el. "Farhod va Shirin"*⁴³.

Murod Muhammad Do'st asarlarida pul va pora so'zlari hozirgi o'zbek tili lug'atlarida izohlangan semalarni ifodalash uchun xizmat qilgan. *O'shanda G'aybarov ozmi-ko'p sarmoyasini yeb bitirgach, pul istab Galatepaga keldi "Galatepaga Qaytish". Muxsina xonim o'z uyida ro'zg'orga aralashmaydi, xarajatga pul sanab beradi "Lolazor". ...lekin o'shanda yomon qo'rqqani bois, mana, qandga chalindi, biladigan odamlar shu kasalxonani aytishdi, sababki, pora-mora so'ramas ekan, noiloj bu azim shaharga kelib, kattaroq odamlarga yalinib, axiyri yo'llanma oldi "Lolazor".*

⁴² Фозилов Э.И. тахрири остида. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. Тошкент, "Фан" нашриети. 1983. II жилд. - Б. 582.

⁴³ Фозилов Э.И. тахрири остида. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. Тошкент, "Фан" нашриети. 1983. II жилд. - Б. 583.

So'm

1. tar. Sobiq Ittifoqda: sovet rublining o'zbekcha nomi; rubl.

...

2. O'zbekiston Respublikasining asosiy pul birligi(1994-yil 1 iyul).

So'm II Katta chipqon, xo'ppoz.

So'm III: so'm go'sht. Suyaksiz va yog'siz yumshoq et, lahm go'sht⁴⁴.

So'm I "yuz tiyinga teng pul birligi". Tiyyin ham pul, yuz ming so'm ham pul(Maqol). Hozirgi o'zbek tilida som tarzida talaffuz qilinadigan bu so'z. KRSda ta'kidlashicha, dastlab "metal parchasi" ma'nosini anglatgan, "pul birligi" ma'nosi keyin paydo bo'lgan(KRS, 653). TRSda som so'zi ma'nolari orasida "quyma" ma'nosi keltirilgan, lekin "pul birligi" ma'nosi ta'kidlanmagan⁴⁵.

- *Bilmadim, - dedi G'aybarov.*

- *Balki uch so'mlikdir.*

Endi meni hisobga qo'shma, meni qo'y, mayli, ulusning ushoq molini boq, taksasini o'zim qo'yaman, qo'y boshiga bir so'mdan, echki boshiga - ellik (tiyyin, mingla qo'y boqsang, ming so'm pul topasan!.. "Galatepaga qaytish".

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar boshqa bir manbalarga asoslanib keltirilgan, aniq bir etimologik ma'lumotni qabul qilishimiz uchun asos bo'lishi murakkab, chunki keltirilgan ma'lumotlarda tillarda sodir bo'luvchi polisemantiklik va obyektlar hosil qilinishining turlicha vaziyatlari inobatga olinmagan. Ilmiy jihatdan tahlil qilinganda, hech bir metal tabiatda ma'lum bir aniq shaklda mavjud bo'lolmaydi, balki ma'lum bir texnik, texnologik ishlov berishni talab qiladi. Qirg'iz-rus lug'atida metal parchasi ma'nosini ifodalovchi birlikning hosil qilinishi "quyish" texnologik jarayoni asosida yuzaga keladi. Har ikki izoh bir tushunchaning ikki

⁴⁴ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. III жилд. - Б. 616.

⁴⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Т.: Университет, 2000. I жилд. - Б. 313-314.

xil vazifasini izohlash hisoblanadi. Chunonchi, hozirgi o'zbek tilida aniq pul birligi sifatida muomalada alohida qo'llanilmaydigan, xalq iboralari hamda maqollari tarkibidagi paqir pul birligining hosil qilinishi ham metonimik ma'no ko'chishi asosida shu turdagi metaldan yasalgan birlik ekanligi hammamizga ayon.

So'm II "suyaksiz va yog'siz"(go'sht haqida); *Bu safar so'm go'sht olmay, qovurg'a oldim.* Hozirgi o'zbek tilida ham so'm tarzida talaffuz qilinadigan bu so'z asli "yaxlit" ma'nosini anglatgan.(KRS, 653; TRS, 545), "suyaksiz va yog'siz" ma'nosi keyinchalik shu ma'no asosida yuzaga kelgan.⁴⁶

"O'zbek tilining etimologik lug'ati"da har ikki so'zning izohlanishi bir xil manbalar asosida amalga oshirilgan, Har ikkisining berilish holati ham deyarli bir xil. Go'yoki har ikki so'z ham bir leksik birlik kabi izohlanganligi ko'rinadi.

Keyin o'g'li - aslida yuz so'mning dardida kelganligini o'yladi, xafa bo'ldi "Galatepaga qaytish". Mazkur so'zlar Alisher Navoiy asarlarida uchramaydi. So'm so'zining hozirgi o'zbek tilida so'm tarzida talaffuz qilinishi bilan aloqador ma'lumot ham yanglish, mulohazani talab qiladi. Chunki hozirgi o'zbek tilida mazkur birliklar o va o' tovushlari oralig'ida yoki o' tarzida talaffuz qilinadi. - *Uch so'mdan, - dedi To'raboy. - Buqalarning yemishiga kerak. "Bir toychoqning xuni".*

Chorshanbiyev ustoziga ilkisroq gapirmoqchi bo'ldi, lekin tilini tiydi, sababki, ikki yilcha burun undan ming so'm qarz ko'targan, lekin haligacha qaytarmagan edi. "Lolazor".

O'n so'm berdim, tumshug'i qoraysa ovga opchiqarman, dedim, lekin burgutning bolasi quzg'un bo'p chiqdi... "Bir toychoqning xuni".

Piyola so'zi "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da keltirilgan emas, buning ma'lum bir sabablari mavjud, jumladan, birinchi jildda turkiy, ikkinchi jildda arabiy, uchinchi jildda forsiy birliklar

⁴⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Т.: Университет, 2000. 1 жилд. - Б. 314.

keltirilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yunon tiliga mansub "phiale" so'zi fors tiliga o'zlashganligi hamda u "suv ichiladigan yassi kosacha" ma'nosini ifodalashi, "tubidan yuqoriga tomon kengayib boradigan, kosadan kichik, taglikli idish(asosan, choy ichish uchun ishlatiladi)" ma'nosini ifodalashi izohlangan⁴⁷. O'zbek xalqi piyolaning bir necha turlarini ishlab chiqaradi. Chinni piyolalar bevosita Xitoy bilan bog'liq bo'lsa, sopolda yasalgan piyolalar aynan o'z madaniyatimizni aks ettiradi. Paxta gulli Toshkent piyolasi esa butun dunyoga mashhur.

- *Shoshma, charchagandirsan, avval bir piyola choy ichib ol! — dedi Raim oqsoqol. G'aybarov mulla Chori choynak tubidan sirqitib uzatgan bir piyola taxir choyni sipqordi. "Galatepaga qaytish".*

Bir-ikki piyola issiq choy ichdi ("Lolazor").

Xalqimiz orasida piyolaning shopiyola turi ham mavjud, mazkur buyum oddiy piyoladan ko'ra kattaroq, ma'lum bir surat yoki boshqa suratli naqshlar bilan bezatilgan bo'ladi. Shundan kelib chiqib, shoh piyola(shopiyola) deb ataladi.

- *Shopiyola opkelaymi? — deb hazillashdim "Lolazor".*

Ikki piyola aroq ichguncha har ne janjalga xezlanib o'tirdi "Dasht-u dalalarda".

Alisher Navoiy asarlarida payola so'zi qadah bilan sinonim sifatida keltirilib, ma'lum bir suyuqlikni quyib ichishga mo'ljallangan buyum ma'nosini ifodalagan⁴⁸.

Ma'lum bir birliklarning lingvomadaniy belgisi uning shaklidan ko'ra mazmunida ko'proq namoyon bo'ladi. Choy o'simligi hududimizga Xitoydan kirib kelganini bilamiz. Til nuqtayi nazaridan va xalqning umumiy turmush tarzi jihatidan ayni mazkur xalqqa tegishli. Xalqimiz azalda turli damlamalardan foydalangan.Tabobat yo'lida va boshqa iste'mol maqsadlarida

⁴⁷ Ўзбек тилининг изохли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий инцеклопедияси, 2006. III жилд. - Б. 256.

⁴⁸ Фозилов Э.И. тахрири остида. Аlisher Navoiy asarlarini tilining izohli lугati. Тошкент, "Фан" нашрнети. 1983. II жилд. - Б. 572.

damlamalar tayyorlangan. Qurilgan mevalardan, meva po'stloqlari va turli tabiiy giyohlardan damlamalar tayyorlangan. Qiziq tomoni shundaki, choy o'simligining qaynagan suvga solinishidan tayyorlanadigan ichimlik xalqimiz orasida keng tarqalgan. Uning maishiy hayotidagi eng muhim iste'mol mahsulotiga aylangan. Hozirgi kunda O'zbekiston hududida choyning juda ko'p turlari uchraydi. Tur sifatida ko'k va qora choy turlariga ajratiladi. Yantoq, olma, sut, anor po'stlog'i, tut, isiriq va boshqa mahsulotlardan damlamalar tayyorlanib ular ham choy nomi bilan atalaverilgan. *Yantoq choy, anor choy, tut choy, isiriq choy, shirchoy* kabilar. Bularning barchasi metonimiya usulida hosil bo'lgan. Choy leksik birligi emas, balki u orqali tilimizga kirib kelgan funksional semalar lingvokulturologik ahamiyat kasb etadi.

Chaqa

2. Mis, jez kabi ma'dandan qilingan, qiymati eng kichik pul. Birov chaqaga zor, birov hidiga yotolmaydi. Bu ot eski o'zbek tilida chaq- fe'lining "parchala-", "bo'lak-bo'lak qil-" ma'nosidan -a qo'shimchasi bilan yasalgan; keliyinchali qattiq a unlisi yumshoq a unllariga almashgan; chaq-+a=chaqa>chaqa(nuqtali) I. Dastlabki vaqtlarda pul(so'm, tanga, chaqa) qiymati turlicha bo'lgan ma'dan parchasi sifatida tayyorlangan; demak chaqa so'zi asli "mis(jez) parchasi" ma'nosini anglatgan(KRS, 836: chaqa II "metal. "Vedro" 2."melkaya mednaya moneta", "polushka".

Chaqa III "Bola-chaqa "katta - kichik farzandlar". U yerda xotin-xalajlar, bola-chaqalar chuvullashib paxta terishayotgan edi. Mustaqil ishlatilmay, bala-chaqa(nuqtalik) juft so'zi ali "kichik" ma'nosini anglatib, juft so'z tarkibida "yoshi kichik farzand" ma'nosini bildiradi⁴⁹. Bu so'z shunday ma'no bilan o'zbek tilining ayrim shevalarida mustaqil holda ishlatiladi.

Sariq chaqasi yo'q odamga o'xshamas edi. Bola-chaqasi bilan birga o'tirib qarg'aydi. "Galatepaga qaytish".

⁴⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. IV tom. - B. 465.

Men tirik ekanman, bozori chaqqon, uni birov sariq chaqaga olmaydi.

...keyin bola-chaqani ham ayamay ko'paytiribmiz. (Lolazor).

Kambag'al odam, qo'li egri-ku, biroq bola-chaqasi ko'p — rahm qilishdi. "Galatepaga qaytish".

Murod Muhammad Do'st asarlarida qo'llangan har ikki so'z ham realiya sanaladi. Dastabki so'z pul birligi sifatida aniq bir xalqqa tegishlilikni ifodalasa, ikkinchi izohdagi birlik hozirgi o'zbek tilida, faqatgina ayrim shevalardan tashqari, juft so'z tarkibida reallashadi, alohida holda qo'llanilmaydi. Tarjima jarayonida uni izohlash tab etiladi. Manbalardagi ma'lumotlarga tayanilsa, har ikki birlikning ildizi bir semadan o'sib chiqqanligi oydinlashadi. Polisemantik birliklar o'rtasidagi ma'no zanjirining uzoqlashib, so'ngra qay darajadadir uzilishi natijasida omonimlarga aylanish hodisasi kuzatilladi. Yuqorida keltirilgan birliklar Alisher Navoiy asarlarida uchramaydi.

Tandir leksik birligi xalqimiz turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan, ammo mazkur birlik asli arabcha so'z bo'lib, "o'choq" ma'nosini ifodalagan. Ma'lum bir taomlarni pishirishga mo'ljallangan, o'tin qalab ishlatiladigan har qanday o'choqqa nisbatan arab tilida tannur(un) birligi qo'llaniladi⁵⁰. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da arabiy so'z sifatida "non yopiladigan o'choq, qurilma" tarzida izohlanib, nnon, somsa, kabob kabilarni yopib pishirish, tayyorlash uchun loydan yasalgan qurilma" sifatida keltirilgan. Hozirgi o'zbek tilida aynan shu ma'noni ifodalovchi leksik birlik sanaladi. "Tandir supasida yotgan eski mis barkashga o'tirdi". Aynan tandir so'zi bilan aloqadorlik asosida xalqimiz orasida bir qator gipo-giperonimik munosabatlarga asoslangan birliklar paydo bo'ldi. Jumladan, tandir tovuq, tandir go'sht, umuman, tandir nomli lingvokulturologik aspektda tahlilga tortilishi mumkin bo'lgan birliklar yuzaga keldi.

⁵⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологияси: луг'ати. Т.: Университет, 2003. II жилд. - Б. 415.

Tandir so'zi bilan aloqador xalq maqol va iboralari ham shular jumlasidandir. Tandir chinakam mazmunda xalqimiz qadriyatiga aylandi. Tandirsiz uylar xosiyatsizlik keltirilishi, tandirning buzilishi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligi tanzidagi psixosomatik qarashlar ham vujudga keldi. Davrdagi turlicha o'zgarishlar, yangi texnika, texnologiyalarning kirib kelishi ham tandir bilan aloqador qadriyatlarimizga putur yetkaza olgani yo'q. Bu tushuncha davrga qarab moslashuvchanlikda davom etmoqda, hattoki tandir lavash kabi taom nomlarining paydo bo'lishi buning yorqin dalilidir. Buxoro viloyati Shofirkon tumanida Tandir nomli toponim ham mavjud:

Tandir – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumani. Tandir – kulcha yopish uchun pech, ko'chma ma'noda – *issiq joy* ma'nolarini anglatadi. ("Toponimlar lug'ati", 459).

"Barkash" "O'zbek tilining izohli lug'ati"da forscha so'z sifatida "ko'tarmoq, tortib chiqarmoq" ma'nolarini ifodalashi, "jez va misdan tayyorlanadigan va patnis o'rnida ishlatiladigan, doira va to'rtburchak shaklidagi ro'zg'or asbobi"ni anglatishi haqida ma'lumot beriladi va uning ko'chma ma'nolari ham berilgan⁵¹. Mazkur birlik qatnashgan xalqimiz orasida qo'llaniluvchi bir qator maqol va iboralar ham mavjud, jumladan, "boshini barkash, yelkasini obkash qilmoq" kabi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da barkash so'zi quyidagicha izohlangan:

Barkash bu ot "meva-cheva" ma'nosini anglatuvchi tojikcha bar III otiga "sol-" ma'nosini anglatadigan kashidan fe'lining kash hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, "meva-cheva solinadigan ro'zg'or buyumi", "patnis" ma'nosini anglatadi⁵².

"Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da *bor* so'zi omonim sifatida to'rtta va uning polesemantiklik xususiyati, grammatik ma'no hamda vazifa bajarishi kabi jihatlari haqida ma'lumotlar

⁵¹ Uzbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. I tom. - B. 169.
⁵² Raхmatullaev Ш. Uzbek tilining etimologik lug'ati. T.: Universitet, 2009. III jild. - B. 22.

berilgan. Ayni shu birlik bilan aloqador holatdagi ma'nolari "*barcha narsa: mavjudlik, mavjudot*", "*meva, hosil*" kabi alohida-alohida ma'nolarni ifodalovchi so'zlar sifatida keltirilgan. Demak, uning *meva, hosil* ma'nosini ifodalashi Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan ekan, meva tashishga mo'ljallangan buyum ham "**borkash**" deb atalishi lozim. Alloma asarlarida "**borkash**" birligi ham keltirilgan, ammo narsa-buyum oti tarzida emas. Balki shaxs oti sifatida berilgan, ya'ni **borkash** "*yuk tashuvchi shaxs*" leksik birligini ifodalashi berilgan. Hozirgi kunda O'zbekiston hududida tojik tilida muomalada bo'luvchi aholida deyarli barcha viloyatlarda uchraydi. Viloyatar kesimida olinadigan bo'lsa, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Namangan, Qashqadaryo, Toshkent va boshqa hududlarda ham tojikzabon aholi yashaydi. Mazkur viloyatlarning aksariyatida *barkash* va *borkash* bir xil tarzda qo'llaniladi. *Barkash* faqatgina oziq-ovqatlarni dasturxonga tortuvchi buyum, *borkash* esa ham shaxs oti, ham barkash ifodalaydigan vazifa ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. *Borkash* Buxoro va Samarqand hududlari tilida marosim ma'nosini ham ifodalaydi, ya'ni kelinning uyiga turli mahsulotlarni yetkazishga mo'ljallangan marosim ma'nosini ham ifodalashga xizmat qiladi. *Barkash* lug'atlarda *patnis*ga sinonim birlik tarzida keltirilishini ko'ramiz. *Patnis* rus tiliga mansub so'z sifatida *podnosit*, ya'ni olib kelmoq ma'nosini ifodalaydi. Idish – tovoq yoki biror narsani tashish yoxud non, qand-qurs, meva-cheva kabilarni solib, dasturxonga qo'yish uchun mo'ljallangan, keng, yassi, chetlari sal qayrilgan metall yoki plastmassa buyum", "mehmonlarning oldiga qo'yish uchun tuzalgan shunday idish", "samovar ostiga qo'yiladigan", "duxovkada pishiriladigan narsa terib qo'yiladigan yassi tunuka" izohlar asosida keltiriladi. *Patnis* va *barkash* tushunchalarini aniq bir tushuncha sifatida qarash tog'ri emas, chunki barkash, odatda, hajman yirik bo'lgan, qo'lda yoki boshda ko'tariladigan predmet tushunchasini ifodalaydi. U sopol, jez, mis, temir, yog'och, hattoki qamishdan ham tayyorlangan. Unga

misgarlar, yog'och o'ymakorlari, rassomlar tomonidan ishlov berilgan. Ruslar orqali kirib kelgan *patnis* kichik hajmga ega bo'lib, to'rtburchak, uchburchak shakllarida ham bo'lgan. Uning odatiy aylana shakli mamlakatimizda *barkash* shakli orqali ommalashishiga olib kelgan. Bir qadar vazifasi mutanosib bo'lganligi sababli ularni ma'nodosh birlik sifatida qarash shakllangan.

Chorsi, chorus forsiy birlik sifatida "to'rt tomon; to'g'ri burchakli kvadrat; bozorda rastalar kesishgan maydon" lug'aviy ma'nolarini bildiradi. Tarixiy jihatdan to'rt tomoni teng to'rtburchak shakldagi, kvadrat ma'nolarini ifodalovchi o'lchov birligi, shaharlarda usti yopiq savdo-sotiq joyi, ya'ni bozorning markaziy, rastalar kesishgan joyi, umuman, savdo-sotiq joyi kabi ma'nolarda ishlatilgan. Hozirgi o'zbek shevalari tarkibida *belbog'*, *qiyiqcha*, *katta ro'mol* kabi semalarni ifodalovchi leksik birlikni anglatishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda uning o'lchov birligi va bozor ma'nosi xalq orasida deyarli qo'llanmaydi. Faqatgina Toshkent shahridagi bozor nomi ergonim sifatida saqlanib qolgan. Hozirgi ozar va turk tillarida usti yopiq savdo-sotiq majmuasi ma'nosini ham ifodalaydi. Milliy til doirasida ikkinchi va uchinchi ma'nolari mavjud. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da o'lchov birligi va to'rtburchak shaklidagi erkaklar belbog'i ma'nolarini anglatishi keltiriladi⁵³. Murod Muhammad Do'st asarlarida belbog', qiyiqcha tushunchalarini anglatadi.

Mulla Chori, qo'lida tuproq solingan ko'k chorsi G'aybarovning yoniga keldi "Galatepaga qaytish".

Tobut arabcha so'z bo'lib, "sandiqliq, quti, tobut, qabr" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Hozirgi o'zbek xalqi orasida "dafn marosimida o'likni solib, mozorga yelkama-yelka ko'tarib boriladigan to'rt dastali moslama"ni bildiradi⁵⁴. Mazkur birlik

xalqimiz orasida realiya sifatida milliy qadriyatlarimiz tarkibiga kirgan. Bu so'zni xorij xalqlaridagi dafn marosimida ishlatiluvchi boshqa predmetlar bilan aynan bir tushuncha sifatida qarab bo'lmaydi. Xalq maqollari va iboralari tarkibida ham tobut so'zining ishlatilishi bejizga emas. U xalqning psixik holatini ham namoyon etishga yordam beradi. Murod Muhammad Do'stning "Galatepaga qaytish" qissasida bevosita dafn marosimi tarkibiga kiruvchi tobut bilan aloqador boshqa bir marosimning ham mavjudligini ham ko'rishimiz mumkin.

Tugadi. Tobutni sindirishdi. Tobut cho'plarini ham sindirishdi. Hammasi terakdan edi — oson sindi "Galatepaga qaytish".

Demak, xalq orasida boshqa bunday ayriliqlar bo'lmasligini ta'minlash uchun ham shunday marosim o'tkazish odati mavjud.

Oziq-ovqat realialari

Chalpak 1 shv Xamirni yupqa yoyib, yog'da pishiriladigan yegulik. -Esimdan chiqibdi, -deydi kampir. -Mayliga, men o'zim chalpak pishirib, chiroq yoqaman. M.M.Do st, Galatepa qissalari.

2 O'rik, olcha va shu kabi ho'l mevalar shinnisidan yo'yib quritilgan shirinlik.

Chalpak bo'lmoq yoki chalpak(dek) bo'lib tushmoq Yiqilib uzala tushmoq, chalqanchasiga yiqilmoq; chalqancha yotmoq.(O'TIL, 453).

Chalpak "xamirni yupqa yoyib, yog'da pishiriladigan ovqat" Qani, qaymoq, saryog', kulcha, chalpak, yog'li patirdan ol, to'yganingcha ye!(N.Maqsudov). Bu ot o'zbek tilida chal- fe'lining parchala-" ma'nosidan kuchaytirish(takror) ma'nosini ifodalovchi -pa qo'shimchasi bilan hosil qilingan shakliga -k qo'shimchasini qo'shimchasini qo'shib yasalgan: (chal+pa=chalpa-) + k =chalpak(O'TEL, I, 409). "...xaltadan un va yog' olib chalpak pishiradilar"("Galatepaga qaytish").

⁵³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Т.: Университет, 2009. III том. - Б. 258.
⁵⁴ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий инцеклопедияси, 2006. IV том. - Б. 127.

Bo'g'irsoq sut, tuxum, yog' solingan xamirdan yumaloqlab, yog'da pishirilgan ovqat ma'nosini ifodalaydi(O'TIL, 427).

Qatlama oddiy xamirdan yupqa qilib yo'yib, yog'da pishiriladigan taom, bu xamirdan tayyorlangan taom boshqa ovqat turlaridan qatlamligi bilan farqlanib turadi(O'TIL, 261). "O'zbek tilining etimologik lug'ti"da qatlama leksik birligi qavat-qavat qilib pishiriluvchi taomni anglatishi, turkiy tilga mansubligi berilgan. "Shunday bir hikoya bo'lardi. ...chalpakmidi? E, bari bir emasmi! Balki, chalpak emas, qatlamadir. Chalpakmi, bo'g'irsoqmi, bir yegulik narsa pishirib, qornini to'yg'azadilar, so'ng, tongni bo'zartirib, ikkovi bor ovozda uvvos tortadilar: voy to'ram, voy, to'ram!..". Mazkur birliklar bilan aloqador o'zbek xalqi orasida marosimlar ham mavjud. Respublikamizning deyarli barcha qismida qatlama pishiriladi va uning pishirish tarzi, iste'mol holati bir xil, ya'ni qat-qat qilib yog'da qovurib olinganidan so'ng ustiga shaker sepib yoki murabbo surtib, yo hech qanday qo'shimcha vositalarsiz iste'mol qilinadi. Bo'g'irsoq taomi aslida respublikamizning barcha qismida ham bir xil tayyorlansa-da, ammo ularning atalish holatida o'zgachalik ko'zga tashlanadi. Chunonchi, ichiga hech narsa solinmay oshirilgan xamir vositasida pishiriladigan taom turi bo'g'irsoq deb ataladi. Qatlama, bo'g'irsoq, qovurib pishiriladigan har qanday xamir taomlar "is chiqarish" marosimining ajralmas qismidir. Diniy bayramlarda, ma'lum bir favqulodda psixologik jarayonlar sodir bo'lganda, xatm, ma'raka kabilarda alohida "is chiqariladi". Buxoro viloyatida is chiqarilgan paytda qovurib pishiriladigan, ichiga hech narsa solinmaydigan xamir-taom metonimik ko'chim asosida "is" deb ataladi, shu yerda yashovchi tojikzabon aholi orasida aynan o'zbekcha so'zning tojikcha variant "bo'y"(is) leksik birligi qo'llaniladi. Is chiqarish jarayonida ichiga kartoshka, go'sht solinib tugilgan holatda qovurib pishiriladigan taom ba'zi qishloq shevalari, Qorako'l, Olot tumanlari, Xorazm viloyatining qishloq shevalarida hamda

Turkmanistonning o'zbek shevalari tarkibida "bepiri", ya'ni 'bo'yi piri' deb ataladi. Buning sababi ulug'lar, o'tganlar ruhiga atab is chiqarish jarayonida qovurib pishirilgan taom hisoblanganligidadir.

Shavla forscha "guruchdan tayyorlangan yumshoq osh" tushunchasini ifodalaydi. Hozirgi o'zbek tilida "go'sht, sabzi-piyoz va guruch solib pishiladigan bo'tqasimon ovqat"ni anglatadi(O'TIL, 532). "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da shavla so'zi keltirilmagan.

Osh forsiy birlik sifatida "yovg'on sho'rva, xo'rda; ovqat" kabilarni ifodalaydi. Hozirgi o'zbek tilida pishirilgan har qanday issiq ovqatga nisbatan osh birligini qo'llash mumkin(O'TIL, 168). Uning asosan suyuq ovqatga nisbatan ishlatilishi "Oshing halol bo'lsa, ko'chda ich" maqolida, har qanday taom ma'nosini ifodalashi esa "Elga bersang oshingni, Erlar silar boshingni", "Jon bo'lsa, jahon topilar, Osh bo'lsa, qozon topilar" kabi maqollarda kuzatiladi. Osh birligining aynan birgina palov taomi ma'nosida kelishi ham xal orasida uchraydi. Masalan, marosimlarda osh damlanishi shu jumladandir. Xalqimiz turli munosabatlar bilan o'tkaziladigan ziyofatlarni ham osh nomi bilan bog'laydi hamda metonimik ma'no ko'chishi kuzatiladi. Jumladan, qiz oshi, nahor oshi, maslahat oshi kabilar.

Osh Bu ot PRSda [ash] shaklida keltirilib, "suyuq ovqat", "yemish" ma'nosini (25). TjRSda osh shaklida keltirilib, "issiq ovqat", "yemish", "palov" ma'nolarini (291), O'TILda "issiq ovqat", "palov" ma'nolarini keyinchalik anglata boshlagan(O'TEL, III, 175). "U yerda xalfana osh tayyor ekan ("Lolazor)". "Ahmad sal ulg'aysin, unga ozroq yordam qilarman, lekin boshqaga... Jonga tegdi, opa. Ilik osh, qazi-yu hasiplar qornimni og'rityapti("Galatepaga qaytish)". Aslida, "xalfana osh" birligi xalqimizning milliy qadriyati, g'amxo'rliqi, mehribonligi va kuyunchakligi kabi xislatlari asosida yuzaga kelgan. Bir kishiga xarajatning og'ir tushmasligini inobatga

olib, har bir kishi ma'lum bir taomni tayyorlash uchun, baholi qudrat, o'zida mavjud bo'lgan, oilasining umumiy iqtisodiy holatiga jiddiy zarar yetkazmagan holatda ma'lum mahsulotni olib kelgan, yig'ilgan mahsulotlar asosida ma'lum bir taom tayyorlangan. Mazkur holat xalqimizning mehmondo'stligi, hamjihatligining ham bir belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy asarlarida osh birligi "ovqat, taom" ma'nolarini ifodalaganligi keltiriladi (NATIL, II, 540). Murod Muhammad Do'st asarlarida ham ayni shu ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan. "Devoni lug'otit turk" da osh so'zi as tarzida uchraydi va, umuman, ovqat ma'nosini ifodalagan. Foyda ma'nosida kelgan asig' birligi ham shu ot bilan asosdoshdir. Hozirgi o'zbek tilida ham mazkur birlik ovqatlarning umumiy nomini anglatish bilan bir qatorda palov ma'nosini ham ifodalaydi. "Qo'llar oshga cho'zildi; Keyin lagan yarimlay degan paytda sho'xligim tutdi-yu, sekin gap otdim ("Lolazor)". "— Bari bir, oshning tagiga uloq go'shtidan bosasiz,— deb e'tiroz bildirdi To'raboy". ("Bir toychoqning xuni"). "— Sen ham baraka top, moling halol bo'lsa, bemalol yeysan, uzumda ayb yo'q, mayli, osh bo'lsin!.." ("Galatepaga qaytish"). "Osh" birligi umumiy taom nomi yoki alohida "palov" tushunchasini ifodalagan yoki ifodalanmaganligini matndagi bishqa birliklar orqali ham aniqlash mumkin, turli milliy harakat, ashyo etiketlari ham uning qanday tushunchani anglatishini aniqlashtirib beradi.

Palov forscha so'z bo'lib, "asosiy masallig'i guruch, yog' va sabzidan iborat bo'lgan, qovurib, qaynatib yoki damlab tayyorlanadigan quyuq ovqat" ma'nosini bildiradi. Uning xalqimiz orasida bir qator turlari mavjud. Jumladan, ivitma osh oldindan ivitib qo'yilgan guruchdan tayyorlangan yumshoqroq palovni anglatadi. Samovar osh deyilganda choyxonada sara masalliqdanyaxshi pazanda tomonidan tayyorlanadigan palov anglashiladi. Xalta palov guruchi alohida xaltada suvga qaynatilib, pishiriladigan palov hisoblanadi. Qovurma palov esa masallig'i

obdan qovurilib, guruchi ivitilmagan holatda pishiriladigan palov sanaladi. Palovning pishirilishi hududlar kesimida farqlanadi. Qo'qon oshi, Farg'ona oshi, Andijon oshi, Namangan oshi, Toshkent oshi, Samarqand oshi, Buxoro oshi kabi hududiy farqlanish asosidagi oshlar mavjud. Farg'ona vodiysi, ba'zan Toshkentda ham oshga achchiq qalampirlar qo'yish rusumi mavjud, bu hududlardagi oshlar asosan qovurilgan holatda pishiriladi. Buxoro, Samarqand hududlarida palov asosan damlash orqali tayyorlanadi. Buxoro viloyatidagi "oshi sofi" deb ataluvchi palov turi faqat qaynatilgan mahsulotlar yordamida tayyorlanishi bilan ajralib turadi. Qiziq tomoni shundaki, mamlakatimizning barcha hududida ham osh deyilganda palov nazarda tutilmasa-da, "Osh markazi" deb nomlangan ergonimlarda faqatgina palov tayyorlanishining guvohi bo'lamiz. "Endi tezroq kech tushmog'ini, o'choqlarga o't qalab, marhumning arvo'higa shom oshi pishirib kelishni o'ylashardi. Kim shavla pishiradi, kim palov — tashvishining o'zi bir olam" (GQ). "Bo'lmasa, keling, bitta qo'lbola osh qilamiz,..." ("Lolazor").

Patir arabcha so'z bo'lib, "oshirilmagan ko'ptirilmagan non" ni anglatadi. Xalqimiz orasida ko'pincha saryog' aralashtirib, oshirilmagan xamirdan chekichlab tayyorlanadigan yupqaroq, qavat-qavat non turiga nisbatan patir so'zi ishlatiladi. Mamlakatimizda mazkur predmet bilan aloqador marosim ham mavjud. Kelin va kuyov unashtirilgan paytda patir ushatiladi yoki non sindiriladi, shu bilan ikki toonning rizq-nasibasi qo'shilishiga ishora qilinadi (O'TIL, 237-238). "O'zbek tilining etimologik lug'ati" da patir arabcha so'z sifatida asli fatir(un) shakliga ega bo'lgan ekanligi (ARS, 502), o'zbek tiliga so'zlashuv tilidagi talaffuz asosida f undoshining p undoshiga, shuningdek, cho'ziq -i-unlisining qisqa -i- tovushiga almashinishi yuzaga kelgan. Hozirgi tojik tilida ham asliga yaqin holatda fatir shakli qabul qilingan. Bu so'zning asli "nonushta qildi" lug'aviy ma'nosini anglatadigan fatara

fe'lidan (ARS, 601) yasalgan asliy sifat ekanligi(ATG, 43), "oshirilmagan xamirdan tayyorlangan non ma'nosini ifodalashi keltiriladi(O'TEL, II, 348).

Parvarda forscha so'z bo'lib, "keragida foydalanish uchun tayyorlangan, marinadlangan" degan ma'noni bildiradi. Shirinlik sifatida oliy navdagi bug'doy uni, o'simlik yog'l va qiyomdan tayyorlanadigan shirinlikni anglatish uchun ushbu leksik birlikdan foydalaniladi(O'TIL, 219). "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da parvarda so'zining tojikcha ekanligi, o'zbek tilida "o'stir-" ma'nosidagi parvardan fe'lga aloqadorligi(TjRS, 298), parvard o'tgan zamon asosidan -a qo'shimchasi orqali hosil qilingan o'tgan zamon sifatdoshligi(TjRS, 298), hozirgi o'zbek tilida un va yog'dan tayyorlanadigan shirinlik ma'nosini ifodalashi haqida ma'lumot berilgan(O'TEL, III, 183).

Alisher Navoiy asarlarida parvarda so'zi "tarbiy qilingan, parvarishlangan" kabi ma'nolarda kelishi matn orqali izhlangan.(NATIL, II, 558-559). "O'rtada to'rt-beshta patir non, parvarda". Umuman, olganda non tushunchsi realiya sanalmaydi, ularning turlari, milliy o'ziga xos holatda tayyorlanish jarayonlari unga nisbatan yangicha atalishlarni qo'llashni taqozo qiladi va natijada tarjima qilinmaydigan, izoh talab qila oladigan birlikka aylanadi, natijada lingvomadaniy birlik sifatida realiyallarga aylanadi.

Supra arabcha so'z bo'lib, "safir ozuqasi, ovqati, tushlik dasturxon" kabi ma'nolarni anglatadi. Mazkur birlik dastlab ro'zg'or anjomi sidfatida emas, balki oziq ovqat ma'nosida qo'llangan, metonimiya usulida ma'no ko'chishi natijasida anjob ma'nosini ifodalay boshlagan. Hozirgi o'zbek tilida xamir yoyish, non yasash uchun mo'ljallangan, odatda oshlangan teridan tayyorlanadigan dasturxonsimon ro'zg'or buyumiga nisbatan ishlatiladi(O'TIL, 589). Hozirgi o'zbek tilida supra birligini alohida holatda dasturxon ma'nosid qo'llash deyarli kuzatilmaydi. Ayrim

shevalarda surpa shaklida ham ishlatilishi kuzatiladi. Supra birligining aynan hozirgi kunda biz tushunadigan dasturxon ma'nosida ishlatilishi maqollar, iboralar tarkibida kuzatiladi. Jumladan, "Nomi ulug', supras quruq", "avlodning supraqodisi" kabi holatlarda. Metaforik ma'no ko'chishi asosida "quloq supras" birligi ham nutqimizda mavjud. Supra bilan aloqador marosim nomi sifatida "supraqod" mavjud. Bundan anglash mumkinki, supra tarixiy davr mobaynida xalqimizning moddiy-madaniy boyligiga aylanib ulgurgan.

Supra Bu arabcha asli sufrat(un) shakliga ega(ARS, 360); o'zbek tilda f undoshini p undoshiga almashtirib, so'z oxiridagi t tovushini tashlab qabul qilingan: sufrat->supra; ko'p ma'noli safara fe'lining "ochdi" ma'nosi asosida(ARS, 360) hosil qilingan I bob masdari bo'lib (UAY, 568), arab tilida "yo'l ozig'i", "ovqatlanish stoli" ma'nolarini anglatadi(ARS, 360); o'zbek tilida "xamir yoyish, non yasash uchun ishlatiladigan dasturxonga o'xshash ro'zg'or buyumi" ma'nosini anglatadi.(O'TEL, II, 397). Alisher Navoiy asarlarida supra tarzida qo'llanilgan:

Yoyar sufraki, ul och emas,

Berur to'n anga yalang'och emas. Alisher Navoiy asarlarida dasturxon ma'nosida qo'llanilganligi kuzatiladi.

Rapida forscha so'z sanaladi va "bog', bog'ich, belbog'" kabi lug'aviy ma'nolarni anglatadi. Hozirgi o'zbek tili tarkibida tandirga non yopish uchun ishlatiladigan, matodan tikilgan, to'garak shakldagi qalin qo'lqop tushuniladi. Metaforik ma'no ko'chimi asosida yuzga nisbat beriladi, masalan, rapida yuz kabi.(O'TIL, 351).

Rapida oti TjRSda rafida shaklida keltirilgan bo'lib(322), hozirgi o'zbek tilida f undosh tovushining p undoshiga almashinishi holatida qabul qilingan, "non shakli berilgan xamirni tandirga yopishtirishda qo'l kuymasligi uchun ishlatiladigan, ich qismiga paxta to'ldirilib, orasiga qo'l tiqiladigan joy qoldirib tikilgan

dumaloq mato" ma'nosini anglatadi(O'TEL, III, 198). Mazkur birlik hozirgi kunda Buxoro, Samarqand va respublikamizning tojikzabon aholisi orasida rafida shaklida qo'llaniladi. "Unda onalari un solingan xaltalar, supra, rapida va boshqa anjomlarni saqlardi".

Jinchiroq paxta piligi bilan yonuvchi shishasiz chiroq. qorachiroqni ifodalaydi(O'TIL, 93). "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da jin so'zi bilan aloqadorlikda bir nehta birlik keltirilgan. Jin so'zi arabiy leksik birlik sifatida jinn(un) shakliga ega bo'lganligi, keyinchalik jinn shakliga o'tganligi(TjRS, 515), hozirgi o'zbek tilida so'zning oxirgi qismidagi nn tovushlarining tushib qolishi natijasida jin shakliga kelib qolganligi, aslida janna fe'lining "yashirdi" ma'nosidan (ARS, 140) hosil qilingan masdar bo'lib, kishi ko'ziga odam qiyofasida ko'rinib, go'yo uni biror dardga chalintirib ketadigan xayoliy mavjudot" ma'nosini anglatishi, hozirgi o'zbek va tojik tillarida ajina shaklida ham ishlatilishi haqida ma'lumotlar berilgan(II, 129). Bu birlikning muhim llingvokulturologik jihati shu bilan ahamiyatliki, diniy e'tiqod tarzida kirib kelgan mazkur birlik tilimizda turli milliy ashyolarning, turli qadriyatlarining yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Jin so'zining yo'ldan ozdiruvchi aqlida faromush qiluvchi semalari asosida jinni, uning g'ira-shiralik, to'liq yetilmaganlik, nome'yoriyligi asosida jinchiroq, kichiklik, ko'zga ko'rinmaslik, xayliylik belgilari asosida jinday, jindak, jinqarcha kabi leksik birliklar yuzga kelgan. Xalq ichida "jin chalmoq", "ajinaga yo'liqmoq" kabi iboralar ham mavjudki, bular mazkur birlikning diniy tushunchalar asosida tilimizda linvomadaniy qatlam hosil qilganligidan dalolat beradi. "Tunda bu manzara sal qo'rqinchli tuyildi; xonaning huvillab qolgani, jinchiroqning miltiragani...".

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da po'st so'zi bilan aloqador o'n bitta lug'aviy birlik keltirilgan shulardan ikkinchisi po'stak so'zidir. Po'stak forsiy birlik sifatida po'stning kichigini anglatadi, o'siq

jumli oshlangan teridan iborat bo'lgan to'shakdir(O'TIL, 330). Aslida xalqimiz tomonidan yirik yoki kichik chorva mollari so'yilganidan so'ng uning oshlanib, tayyorlanadigan to'shakni anglatadi. Xalqimizning ibora va maqollari tarkibida ham mazkur birlik ishtirok etadi. Uy-ro'zg'or buyumi sifatida faol iste'molda bo'lishi xalqimizning chirvachilik bilan bog'liq tarixiy hayot tarzini ham o'zida aks ettirishi bilan izohlanadi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da tojik tilida "odam va hayvonlarning tanasining sirtini qoplaydigan yupqa teri qatlami" ma'nosini bildiradigan po'st otiga 9TjRS, 316) -ak qo'shimchasini (TjRS, 543) qo'shib hosil qilingan bo'lib, "o'siq junli oshlangan teridan iborat to'shakcha" ma'nosini anglatishi izohlab berilgan(O'TEL, III, 196). "Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da po'st, po'stin kabi leksik birliklar izohi mavjud, ammo po'stak so'zi berilmagan. Murod Muhammad Do'st asarlarida ham aynan shu ma'nolarda kelganligi kuzatiladi. "G'aybarov burchakdagi po'stak ustida bir burda bo'lib yotgan Anzirat kampirga qaradi".

Gilam so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da forscha so'z sifatida tuksiz gilam, palos ma'nosini ifodalashi, metaforik ko'chim asosida yer betini qoplam olgan maysa, gul, hattoki qorni bildirishi, kurash tushiladigan sport anjomi, tatamini ham gilam deyish mumkinligi qayd etilgan(O'TIL, 501). "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da esa "odatda, jundan to'qilib, polga to'shaladigan yoki devorga osiladigan buyum ma'nosini bildirishi, ARSda gelim va kelim tarzida cho'ziq y undoshi bilan(427). TjRSda gilem shaklida(102), O'KAAKLda ham gilem shaklida(160), O'TILda gilam shaklida keltirilishi, tojik tilidan o'zbek tiliga o'zlashganligi, ikkinchi bo'g'indagi e unlisining a unlisiga o'zgarganligi aytiladi(O'TEL, III, 62). Alisher Navoiy asarlarida gilam so'zi gilem tarzida beriladi(NATIL, I, 402). Hozirgi kunda milliy tilimiz doirasida Buxoro, Samarqand hamda tojikzabon aholi o'rtasida ayni shu shaklda talaffuz qilinadi. Navoiy asarlari lug'atida ham va

boshqa tilshunoslik lug'atlarida ham gilam so'zining izohi uchun palos so'zi keltiriladi. Gilam birligining lingvokulturologik tabiatini aniqlash uchun hozirgi kunda amalda bo'lgan qolin, palos so'zlarining ham izohlariga diqqat qaratish talab etiladi. Qolin birligi "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da Alisher Navoiy asarlarining izohiga doir lug'atlarda ham mavjud emas. Alisher Navoiy asarlarida palos, shol, kigiz ma'nolarini ifodalovchi birlik sifatida ko'raka leksik birligi mavjud(NATIL, II, 155). Shol forscha so'z bo'lib, "qalin jun mato" ma'nosidagi otdir. Yungdan to'qilgan qalin mato, yung gazlama"ga nisbatan shol birligi ishlatiladi(O'TIL, 583). "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da mazkur birlik shol emas, balki sholcha tarzida keltirilgan va "yungdan to'qilgan qalin dag'al mato" ma'nosini anglatadigan forscha shali otiga (ORS, 303) -cha kichraytirish shaklini qo'shish orqali(TjRS, 542) hosil qilinganligi, qo'shimcha qo'shilgandan keyin esa I tovushi aytilmay qolganligi(TjRS, 460), hozirgi o'zbek tilida "yungdan to'qiladigan kichik hajmli polos" ma'nosini anglatishi izohlangan(O'TEL, III, 266).

Palos forscha "tuksiz dag'al gilam va darveshlarning jun, qildan tayyorlangan dag'al kiyim"ini ifodalaydi. Hozirgi o'zbek tilida qo'lda yoki mashinada tayyorlanadigan katta jun sholcha, tuksiz gilam; yerga, polga to'shaladigan buyum(gilam, kigiz, sholcha kabi)larning umumiy nomi kabilarni anglatadi(O'TIL, 210). Palos so'zi "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da uchramaydi, faqatgina sholcha so'zining izohlanishi jarayonida polos tarzida berilgan.

Qilib masnad qanoat bo'ryosin,

Kiyib debo kibi uzlat palosin. Ushbu baytda kigiz, sholcha, gilam ma'nosida qo'llangan.

Egnidin soldi shohvor libos,

Kiyindi o'rnig'a shomrang palos. Mazkur baytda esa junli kiyim, libos ma'nosida kelgan(NATIL, II, 556). Murod Muhammad Do'st "Galatepaga qaytish" qissasida quyidagi gapga e'tibor qarataylik:

"Soyaga ikkita katta gilam to'shalgan". Demak, ushbu gap orqali to'shahga mo'ljallangan istalgan narsa emas, balki devorga bezak uchun ilinadiga buyum nazarda tutilgan, chunki "katta gilam" deyilish bilan uning qanday buyum ekanligi oydinlashadi. Hozirgi kunda mahalliy xalq orasida "qolin, palos, gilam va sholcha" tushunchalarini alohida leksik birliklar sifatida semantik qo'llanilishi kuzatiladi. "Qolin" deyilganda, zamonaviy fabrikalarda ishlab chiqarilgan, qalin, hajman istalgan turdagisini topish mumkin bo'lgan, to'shama, mexlik uy ashyosi anglashiladi. "Palos" leksemasi orqali qizil, yashil, ko'k yana boshqa bir qator ranglarda bo'lgan, odatda, hajmi uchga to'rt shaklda bo'lgan, yakrang, yupqa ashyo tushunoiladi. "Gilam" esa to'qilgan, turli xil manzaralar tasvirlangan, devorga ham osishga moslashtirilgan uy anjomini anglatadi, "sholcha" sifat jihatdan uncha yuqori bo'lmagan yoki kichik maydonni egalaydigan to'shama sanaladi. Mazkur birliklarning deyarli barchasi hozirgi davrda, aksariyat hududlarda "gilam" nomi bilan yuritiladi.

Bo'za forsiy kalima bo'lib, "tariqdan qilingan ichimlik"ni anglatadi. Boshuq, tariq, arpa, shu kabilardan tayyorlanadigan, kayf beradigan ichimlikka nisbatan ishlatiladi(O'TIL, 397). Bo'za deyilishining sababi uning bo'z rangi bilan aloqador hisoblanadi. Ichimlikning ham rangi ayni shunga yaqin sanalganligi sababli metonimik ko'chim asosida nomlanish yuzaga kelgan. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da bo'za so'zi mavjud emas. Hozirgi o'zbek tilining leksik qatlamlari tahliliga doir manbalarda bo'za so'zi forsiy birlik tarzida berilgan bo'lsa-da, Alisher Navoiy mazkur birlikning turkiy ekanligiga "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ishora qiladi: "Sortlar qimizni va suzmani va boxsumni va bo'zani dag'l turkcha ayturlar(NATIL, I, 344). Hozirgi kunda ham bu birlik mast qiluvchi ichimlikni ifodalab kelishi adib asarlari orqali aniqlashadi. "Bittasi yoshligida bo'za ichib olib, osmonga miltiq bo'shatardi: xudongni topib ber,..."

Kosa forscha 'piyoladan kattaroq, asosan, suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun qo'llaniladigan idishni bildiradi. Tarvuz kosasi, bosh kosasi kabilarda metaforik ko'chimyuzga keladi. Kosa ichida nimkosa, sabr kosasi kabilarda iboralar tarkibida qo'llanadi(O'TIL, 410-411). Alisher Navoiy asarlarida kos, kosa shsklida qo'llangan, toshbaqaning qobig'i ham kosa tarzida ishlatilishi baytda ko'rinadi(NATIL,II, 129). Kosa so'zi "O'zbek tilining etimologik lug'ati" fofsrcha-ruscha lug'at asosida asli ka's, ko'plik shaklida ko'chat va kous shakllarida keltirilganligi, "chasha, kubok" deb(391), kase shaklida keltirilishi bilan "bolshaya chashka, chasha" tarzida izohlangan(194), o'zbek tilida shu shakl olinganligi qayd etilgan(O'TEL, III, 123). "Murodboy, yesangiz — osh, ichsangiz — achchiq choy, manavi mening o'zimning piyolam, manavi mening o'zimning kosam, hammasi sizniki, Murodboy, ozgina dam oling", "— Aytaman, amaki, sizga otamning gulli kosasida berishadi("Galatepaga qaytish")".

Dasturxon forscha "ovqat qo'yiladigan mato, unga qo'yilgan taomlar"ni ifodalashga xizmat qiladi. Dasturxon o'rtaga yozib, ustiga ovqat qo'yiladigan maxsus mato, ro'zg'or buyumidir. Dasturxon boshqa turkiy va sharq xalqlarining ming yillar davomida foydalanib kelayotgan buyumi sanaladi. Dasturxon birligi asosida metonimiya usulida ma'no ko'chishi natijasida dasturxonga qaramoq, bir dasturxonda o'tirmoq, metafora yo'li bilan ko'chim asosida "dardini dasturxon qilmoq", dasturxon yemoq", "dasturxonga oyoq artmoq" kabi iboralar vujudga kelgan(O'TIL, 574). "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da PRSda dasturxon shalida(218), O'KAAQLda dasturxon ko'rinishida(183), TjRSda dasturxon holatida berilishi bilan birga dasturxon shakli ham havola qilinganigi, hozirgi o'zbek tilida dasturxon, oddiy so'zlashuvda dasturxon tazida talaffuz etilishi keltirilgan. Manbalar qiyoslangan hamda dasturxon shaklida qabul qilish to'g'riligi qiyoslangan. Asli kichik dasturxon dastarche deyilganligi, dast ,

ya'ni qo'l birligiga aloqadorligi, "tuzilgan, tartib toptirilgan" ma'nosini anglatuvchi xvan xan birligining ham kreyinchalik qo'shilishi natijasida hozirgi ko'rinishga kelib qolganligi dalillangan(O'TEL, III, 82). Alisher Navoiy asarlarida dasturxon shaklida uchraydi(NATIL, I, 467) "Devoni lug'otit turk" asarida dasturxonning qadimgi turkiycha nomlanishi tewsi(tevsi) bo'lgan va uning bir necha turlari farqlangan. Turli-tuman noz-u ne'mat, taomlar bilan to'ldirilgan dasturxon tergu (tergu), odatiy taomlar qo'yigan bo'lsa, tergi (tergi), bir kishi uchun maxsus ajratilgan, belgilangan, tamg'alangan dasturxon tamg'aliq (tamg'aliq), boshqalarda o'ttiz gaz yuqorida tayyorlangan dasturxon nisbatan kencliyu (kenchliyu) nomlari ishlatilgan. Hozirgi kunda dasturxon matosi nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin, ammo yuqoridagi kabi alohida turlarga ajratilmaydi, yagona bir dasturxon nomi bilan ataladi. "Dasturxonning mulla tarafida qaymoqli patir bilan qand-qurs, pastroqda, faollar va yoshlarning oldida, ustiga barra piyoz maydalangan qatiqli kosalar...; — U dasturxon chetida yotgan tugunchasini olib, o'rnidan turdi", "...dasturxonimiz ochiq, tabiatimiz zo'r, ayniqsa bahor payti, shirvoz qo'zilar baayni tobga kelganda... ("Galatepaga qaytish")". "Bolalar bir zumda dasturxonni yangilashdi("Lolazor")".

Kabob fofsrcha so'z bo'lib, "ko'rada pishirilgan go'sht"ni anglatadi. Asosan, go'shtni sixga , ko'raga terib, cho'g' damida pishiriladigan, shuningdek, tandirda yoki qozonda ham tayyorlanadigan taom hisoblanadi.Uning tandir kabob, lo'la kabob, qiyma kabob, qozon kabob kabi turlari mavjud. Xalq orasida bag'ri(yuragi, dili, jigari, ko'ksi) kabob bo'lmoq, six ham , kabob ham kiymasin kabi iboralar tarkibida qo'llaniladi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"daghi kabobpaz birligi orqali yuqoridagi ma'noni anglatishini bilib olish mumkin(O'TEL, III, 113). Alisher Navoiy asarlarida ham aynis hu ma'noni ifodalsh uchu shu so'z keltirilgan(NATIL, II, 86). "...hech kimga aytmadim, tog'dan

cho'pon tanishining o'tovida yashadi, qirg'izlardan qimiz olib ichdi, tandirkabob yedi, ikki-uchta hikoya yozdi" ("Lolazor").

Devzira birligi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da forsiy so'z sifatida "katta ziraday" degan ma'noni anglatishi, mahalliy jaydari sholidan olinadigan yirik, suv ko'taradigan guruch ekanligi yoziladi (O'TIL, 5870.. Demak, mazkur birlikning yirikligi dev birligiga aloqador qilib ko'rsatiladi. Uning mahalliy sholi navi ekanligi mahsulot nomining ham lingvomadaniy birlik ekanligini tasdiqlab turadi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da esa tojikcha dev otiga arabcha "ek-" ma'nosini anglatadigan zara'a fe'lining (ARS, 327) "ekin, o'simlik" ma'nosini bildiruvchi zar'a masdarining (ARS, 328) zira shakli qo'shilishida hosil bo'lganligi, "gurunchning yirik, suv ko'taradigan navi"ni bildirishi haqida yoziladi (O'TEL, III, 85). Demak, bu ot hozirgi o'zbek tilida qiyoslanish, belgi asosida hosil qilingan ot sanalar ekan. "Devzira guruch, ziravordir hidiga har yonga ufurgan, sergo'sht-u seryog' osh keldiki, kimdir boyagi zayldagi xitoblardan uyalgan bo'lib, sekin uh tortdi" ("Lolazor").

Jamalak qiz bolalarning hali uncha o'smagan, yoyilib ketmasligi uchun, paxta pilik qo'shib o'riladigan sochlarini anglatadi. Soxta kokil, sochga taqiladigan ziynat asbobi, sochpopukni ham anglatadi (O'TIL, 67). "Har holda, hamshira juda yosh, Sharif o'lganida jamalak taqib yurishgani aniq;..."

Dutor fors tiliga mansub bo'lib, "ikki tor, ikki torli" ma'nosini anglatadi va iiki torli, chertib chalinadigan uzun dastali musiqa asbobini anglatadi (O'TIL, 670). Tojikcha -ruscha lug'at asosida izohlangan "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da ham aynan shunday ma'noni ifodab kelishi izohlangan (O'TEL, III, 95). "...ma'lum muddat dutorchilik ham qilgan ekan" ("Lolazor").

Baldoq so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da taqinchoq sifatida berilmagan, uning shakldoshi sifatida "hassa, qo'ltiqayoq" ma'nosidagi baldoq leksik birligi berilgan. Xalq hunarmandchiligida baldoq deyilganda, tekis, ko'zsiz, turli xil

naqsh va bezaklar bilan bezatilgan ayollarning qulog'iga taqiladigan taqinchoq, bezakni ifodalaydi. Ijodkor asarida ham ayni shu ma'noda kelgan. "Muxsina xonimning tilla uzuk-u tilla baldoqlari bisyor edi" ("Lolazor"). Uzuk birligini realiya sifatida qarab bo'lmaydi, chunki boshqa xalq va elatlarda ham bunday taqinchoq mavjud va ularning ham ayni tarjimalari mavjudligi kuzatiladi.

Tiyin bir so'mning yuzdan biriga teng pul hamda shunday qiymatga ega bo'lgan mayda chaqani bildiradi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da "bir so'mning yuzdan biriga teng pul(chaqa)" tiyinni ifodalashi, ushbu so'z teying tarzida talaffuz qilinganligi, qadimgi turkiy tilda "olmaxon" ma'nosini anglatganligi (ESTY, III, 180), natura bilan savdo qilingan vaqtlarda ayirboshlanadigan narsaning qiymati necha dona teying(olmaxon) terisi evaziga almashtirilishi bilan belgilanganligi, shu asosda teying so'zining yuqoriga ta'riflangan ma'nosi yuzaga kelganligi, keyinchalik so'z oxiridagi ng undoshiga n undoshiga, birinchi bo'g'indagi e unlisi u unlisiga almashganligi, natijada teying>teyin>tiyin tarzida ishlatilganligi haqida ma'lumot berilgan. Qadimgi turkiy tildayoq bu so'z tovush jihatidan qisqarib, tin tarzida ham talaffuz qilingan (PDP, 430: tin-"kopeyka", "grosh"), shunday shunday talaffuz hozir o'zbek so'zlashuv nutqida ham mavjud (O'TEL, I, 334-335). Ushbu so'zni Sobiq Ittifoq davrida realiya tarzida tahlil qilish bir qadar chegaralangan edi. Tiyin so'z sifatida turkiy tilga mansub birlik sifatida realiyaga mansub bo'lishi mumkin, ammo ifodalaydigan tushunchaning asl semik tarmog'i nuqtayi nazaridan tarjimaga muhtoj emas edi. So'm, tiyin so'zlari rubl, kopeyk kabilar bilan aynan bir tushunchani ifodalay edi, Sobiq Ittifoq tarkibidagi davlatlari tarkibida pul birliklari yagona bir tushunchani ifodalay edi, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng so'm, tiyin leksik birliklarining realiyalik xususiyati obyektivlashdi, aniqlashdi. Alisher Navoiy asarlarida olmaxon, olmaxon terisidan tikilgan

pocha po'stin; olmaxon terisidan tikingan po'stin kabi ma'nolarni ifodalashi keltirilgan(NATIL, III, 225). Demak, bunday aniqlash mumkinki, natural xo'jalik davridagi molni molga ayirboshlash natijasida eng past qiymat bilan almashtirilgan olmaxon nomi bilan aloqadorlikda hozirgi mazmuniy muomala-munosabat birligiga aylangan. "...bir bog' shivitni uch tiyin arzoniga bergan muxlislariga Muxsina xonim yigirma tiyin qimmatroq berishga ham tayyor"("Lolazor"). "Endi meni hisobga qo'shma, meni qo'y, mayli, ulusning ushoq molini boq, taksasini o'zim qo'yaman, qo'y boshiga bir so'mdan, echki boshiga — ellik (tiyin, mingla qo'y boqsang, ming so'm pul topasan!.."("Galatepa qaytish"))".

To'qim jazliq yoki egar ostiga qo'yiladigan, odatda, kigizdan qilinadigan ot-ulov abzali hisoblanadi(O'TIL, 252). Alisher Navoiy asarlarida to'qum tarzida keltirilgan bo'lib, otning ustiga jibil, ya'ni mahkam bog'lab, mustahkamlab qo'yiladigan va turkiycha aytiladigan kalima ekanligini keltiradi(NATIL, III, 273).

Ayil birligi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da egarning usti bilan otning qornidan aylantirib bog'lanadigan to'qali qayishni ifodalashi izohlangan. Xalq orasida ma'lum bir gap, holatning qattiq boshi, qattiq ta'sir qilishini ifodalaydigan "ayil botmoq" iborasining mavjudligi uni yanada madaniy birlik ekanligini ta'kidlaydi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da mazkur birlik xuddi izohli lug'atdagi kkabi ma'noni bildirishi izohlanadi. Bu ot qadimgi turkiy tilda "doira shaklida harakat qil-" ma'nosini anglatgan ay- fe'lining -(ы)l qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik qattiq a unlisining yumshoq a unlisiga almashinishi, ы unlisining qattqlik belgisining yo'qolishi bilan hozirgi ko'rinishiga kelib qolgan. (O'TEL, I, 21). Alisher Navoiy asarlarida ayil- va ayildur- kabi fe'llar berilgan bo'lib, mazkur birliklarning biz tahlilga tortayotga leksik birlikka mutlaqo aloqasi yo'qligi angashiladi(NATIL, I,64). Ayil birligining etimologik tadqiq shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda aylantirmoq ashlakida qo'llaniluvchi fe'lning asosi ham aynan ay- fe'lga

aloqafdorligi anglashiladi. "...terisi qalin, to'qimi undan ham qalin, ayili mahkam tortilgan,... ("Lolazor")".

Lapar to'y va yig'inlarda, xalq sayillarida yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf bo'lib, aytiladigan xalq terma qo'shiqlari, shuningdek, birgalikda ijro etiladigan qo'shiq va raqslarni bildiradi(O'TIL, 487). "...lekin oyim ashulani og'zaki eslagan bo'ldiyu, birdan lapar bo'lgandan keyin yonida o'yini ham bo'ladi"("Lolazor").

Bek tarixiy jihatdan turkiy xalqlarning ba'zilarida xonliklar davrida davlat arboblari, shahar va viloyat hokimliklariga, ularning bolalariga beriladigan faxriy unvon hamda shu unvonga sazovor bo'lgan shaxsni ifodalagan. Ulug'lariga nisbatan beklar begi shaklida ham ishlatilgan(O'TIL, 214). Bek "shahar yoki viloyat hukmdori", "yuqori martabali amaldor"ni bildirgan so'z bo'lib, qadimgi turkiy tilda bag(PDP, 369), BEG(Devon, iii, 169) tarzida talaffuz qilingan bo'lib, keyinroq unilarning almashinishi natijasida hozirgi ko'rinishga kelib qolgan(DS, 91), dastlab "katta, yirik" kabi semalarni anglatgan, semantik taraqqiyot natijasida bu sifat otga aylangan(O'TEL, I, 43). Sifatlarning otlarga almashinishi otlashish hodisasidan tashqari hozirgi sinxron tahlilda ham juda ko'plab kuzatiladi, masalan, o'g'ri, kasal, bemoq, shifokor va hokazolar. Bek so'zi tarkibida hozirgi kunda doimiy mavjud bo'lgan birinchi shaxs birlikdagi egalik shakli o'z grammatik vaifasini bajarmaydi, asl lug'aviy ma'nosidan yiroqlashgan, ayollarning erkaklarga, qizlarning yigitlarga "begim" deb murojaat qilishida ham tarixiy mazmun mavjud emas, bunday holatni "xonim" tarzida ayollarga murojlat aetishda ham kuzatish mumkin. Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanida shaxsning darajasini, unga hurmatni yoki boshqa uslubiy ottenkalarni ifodalash maqsadida mazkur leksik birlik sihlatilgan. "bekka alohida urg'u berib..."("Lolazor")

Qozixona tarixiy birlik sifatida qozi tomonidan sudlov sihlaro mamalga oshiriladiga joyni ifodalaydi(O'TIL, 322). Hozirgi kunda mzkur birlik qo'llanilmasa-da, xalq iborasi tarkibida "ota go'ri qozixonami?" shaklida uchraydi. Qozi birligini, u sud olib borivchi mahkamani hozirgi yoki boshqa bir qator davlatlardagi mazkur faoliyat amalga oshiriladigan tashkilotlarga qiyoslash mumkin, ammo aynan bir hodisa sifatida tahlil qilib bo'lmaydi. Qozixonalarda barcha ishlar Islom fiqhi qoidalari asoida olib borilgan. Qozi arabcha yumshoq a unlisi bilan aytiluvchi qadin shakliga ega bo'lgan(ARS, 644), o'zbek tilida cho'ziq talaffuz qilinuvchi a unlisining qisqa aytilishi, dzat undoshini z tovushiga almashtirilishi, so'z oxiridagi n undosh tovushining tushirilishidan hosil qilingan va "huk chiqaruvchi ma'nosini anglatadi, aynan tojikcha xona birligining qo'shilishi bilan qozixona leksemasi vujudga kelgan. Qozixona birligi etimologik lug'atda tojikcha so'z sifatida izohlangan. Ijodkor asarida xalq iborasi tarkibida uchraydi. "Qo'ying-ey, uka,-dedim, shungayam ota go'ri qozixonami, axir, iblisga murid bo'lganin yo'q-ku, bekorga o'zingizni ovora qilmang"("Lolazor"). Matn tarkibida keltirilgan murid birligining ham diniy ta'lim tushunchasi nuqtayi nazaridan lingvokulturologik birlik sifatida qarash mumkin.

Murid arab tilida olingan bo'lib, "izdosh, ergashuvchi, shogird yoki so'fiylar shogirdi" ma'nolarini ifodalaydi. Parning yoki eshon(murshid)ning etagini turgan, unga qo'l bergan, so'fiylik yo'lga kirgan shaxsdir(O'TIL, 645). Murid arabcha murid(un) shakliga ega bo'lib,(ARS, 320), hozirgi o'zbek tilida cho'ziq l unlisining qisqa unliga almashinishi natijasida hzoirgi shakliga kelib qolgan, arabcha rada fe'lining "o'rgandi" ma'nosi bilan(ARS, 320) hosil qilingan IV bob aniq nisbat sifatdoshi bo'lib, "ruhoniyni o'ziga pir deb bilgan, unga muxlis, shogird bo'lgan kishi"ga nisbatan qo'llaniladigan shaxs otidir.

Munojot bu arabcha so'z bo'lib munajat(un) shakliga ega(ARS), o'zbek tilida cho'ziq a unlisining qisqa aytilishi holatida qabul qilingan. Aslida bu leksik birlik "sirini ishonib aytdi" ma'nosini anglatuvchi naja fe'lining III bib masdari bo'lib, arab tilida "pinhpna suhbat, kelishuv" ma'nosini anglatadi, hozirgi o'zbek tilida "Ollohga pinhona iltijo qilish" ma'nosini anglatadi(O'TEL, II, 289). Milliy musiqamiz sanalgan "Munojot" kuyida ham aynan shunday kayfiyat yetakchilik qiladi. "Munojot" o'zbek musiqa ilmida o'ziga xos o'ringa ega. Katta hajmdagi kuylardan iborat turkumni tashkil etadi. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, "Munojot" uch tarkibiy qismdan tashkil topgan: "Munojot: , Savti munojot" va "Ufori munojot" kabi. "Munojot" kuyining umumiy ijro turkumi kuzatilganda, avval "Savti munojot, keyin "Oromijon" nomli kuy, undan so'ng esa "Ufori munojot" yangraydi. Alisher Navoiyning "Kecha kelgumdur debon..." deb boshlanuvchi g'azali ham "Munojot" kuyi asosida ijro etilgan. Islomiy e'tiqodga asoslangan turli xalqlarda ham uchraydi. Ergash Ochilov mazkur kuy va u asosida yaratilgan qo'shiqlar haqida atroflicha ma'lumot bergan⁵⁵.

Nog'ora arabcha so'z bo'lib, *naqqarat(un)* shakliga ega (ARS,823) o'zbek tiliga birinchi bo'g'indagi a unlisini va ikkinchi bo'g'indagi cho'ziq á unlisini â unliga, q' undoshlarini g' undoshiga almashtirib, so'z oxiridagi t tovushini tashlab qabul qilingan: *naqqârat ->nâg'âra (nogora)*. Bu asli *naqqâr* otdan *-at(un)* qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib(O'TEL,331), tuvaksimon sopolga teri qoplab yasalgan va ikkita cho'p bilan urib chalinadigan bir juft musiqa asbobi hisoblanadi (O'TIL,III,65). Alisher Navoiy asarlarida naqora , naqqora shaklida qo'llangan(NATIL, II, 446). Nog'ora chaluvchi shaxs nog'orachi, Navoiy davrida ham naqorachi tarzida qo'llangan. Nog'oraning ovozi juda baland chiqqanligi sababli urushlarda ham olib yurilgan. Adib asarlarida

⁵⁵ Ergash Ochilov. Umrboqiy qo'shiqlar, 1-jild, Toshkent: „Sharq“ nashriyoti, 2013-yil — 456-bet.

qahramonning umumiy holatini, uning psixologik vaziyatini aniqlash uchun mazkur birlikdan foydalanilgan, "Munojot" kuyida, odatda, nog'ora cholg'u asbobidan foydalanilmaydi, kutilmaganlik, vaziyat taqozosi turli yo'sinlarga majbur qilishi mumkinligini dalillar uchun bu ikki birlik bir matn tarkibida keltirilgan. "Munojot"ni nog'orada chalgan odamlarni ham ko'rganmiz. Mayli, ixtiyor sizda, o'ylangki, mayli, men bechora nog'orachi bo'lay..."("Lolazor").

Baxshi leksik birligining "O'zbek tilining izohli lug'ati" bir leksema doirasida uch ma'nosi berilgan. Mazkur birlikning sanskrit tilidan olingan bo'lib, "budda ruhoniysi, donishmandi; duoxon, darvesh" ma'nolarini anglatadi. Hozirgi o'zbek tilida xalq qo'shiqlari va dostonlarini yoddan kuylovchi shoir, oqinni bildiradi. Ikkinchi ma'nosi "irim-sirimlar qilib, duolar o'qib, dam solib davolovchi tabib"ni anglatadi. Uchinchi semasi – tarixiy, Buxoro xonligida qurilish uchun belgilangan mablag'larning hisob – kitobini nazorat qiluvchi lavozimli kishidir (O'TIL, 180). "Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da baxshi so'zi keltirilgan va uning ifodalaydigan ma'nosi "kotib, mirzo" so'zlari ekanligi ta'kidlangan, bu ma'nolarni izohlash uchun Alisher Navoiy asarlari tarkibidan misollar ham berilgan. Bizning nazarimizda, keltirilgan misollar mazkur birlikning izohlanishi uchun yanglish tanlangan. Dalillash uchun keltirilgan misollarga e'tibor qarataylik:

...necha navisanda, necha baxshi, necha parvonachi jonlarig'a yetib, necha hiyla bila qutulurlar.(Munshaot, 129). Misraga aniqroq e'tibor qaratilsa, "navisanda" "kotib, mirzo" tushunchalariga mos keladi, ammo bunday izohning baxshiga qanday daxldorligi noma'lum, noaniq, ammo kasblar sanalgan ketma-ketlikda faqatgina "navisanda" birligi "kotib, mirzo"ga mos keladi.

Sortqa garchi bu borur yaxshilar,

Turk ila ham yaxshi borur baxshilar(Hayrat ul-abror, 133-23)(NATIL, I, 231). E'tibor berilsa, mazkur baytda ham "kotib" yoki

"mirzo" ma'nosining anglashilishi mumkin emas, chunki baytning mazmuniy tahlili bunga yo'l qo'ymaydi. Baytni quyidagicha izohlash mumkin: "Agar sartga yaxshilar borar bo'lsalar, turklar bilan baxshilar ham boradilar". "Borur" biz hozirgi kunda tushunadiganimiz "bormoq" birligi emas, bu birlik "kelishmoq, til topishmoq" kabi ma'nolarda keladi. Hozirgi davr turk tilida ham "kelishuv" "barish" so'zi orali beriladi. Demak, baytni quyidagicha tushunish mumkin: "Agar yaxshilar sort bilan kelishsalar, til topishsalar, turklar ham baxshilar bilan til topisha oladilar". Bundan anglashiladiki, "baxshi" so'zi "kotib, mirzo" ma'nosini emas, balki "guruh, qabila" yoki qandaydir bir "jamo" ma'nosini ifodalashga xizmat qilmoqda. Hozirgi o'zbek tilida baxshi deyilganda, do'mbira yoki tor yordamida xalq qo'shiqlarini ijro qiluvchi shaxs tushuniladi. Ijodkor asarida ham ayni shu ma'nodagi shaxs ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan.

Go'yanda Alisher Navoiy asarlarida "qissago'y, afsona aytuvchi, qo'shiq aytuvchi, baxshi" tarzida izohlangan(NATIL, I, 435). "O'zbek tiling izohli lug'ati"da forscha "hikoya qiluvchi, notiq, suxandon" ma'nosini anglatishi berilar ekan, uning uchta semasi alohida-alohida holatda izohlangan. Qadimda to'y, sayil-tomosh, va shodiyonalarda hikoya aytuvchi odam; hofiz, ashulachi kishi; ta'ziyada yig'ini boshlovchi, marhumning yaxshi xislatlarini aytib yig'lovchi ayol kabi tushunchalarni anglatadi(O'TIL, 533). Ijodkor asarida ikkinchi ma'noda kelgan. "Yozuvchiligimiz shu ediki, yozgi ta'til kezlarida qishloqlarga chiqib, baxshi-yu go'yandalarning aytganlarini yozib kelardik("Lolazor").

Gap fors tiliga mansub bo'lib, asl "quruq safsata; maqtanchoqlik, so'z" kabi ma'nolarni naglatadi(O'TIL, 481). Hozirgi xalqimiz nutqida keltirilgan ma'nodan tashqari, muomala birligi, marosim kabi ma'nolarni ham bildiradi. Mehmondorchilikka borish, turli holatlarda bir-biridan xabardor bo'lish, har xil mavzudagi suhbatlar "gap-gashtak" nomi bilan yuririladi. Har ikki

birlik ham forscha bo'lib, "gashtak" "sayr" ma'nosini anglatadi. "Ammo quruq gap-gashtak bilan o'shal zamonna, o'shal zamondagi O'rtaqo'rg'on muhitini tasvirlab bo'lmasdi("Lolazor)". "G'uchchi cholni it qopganidan keyin galatepaliklar Barot Qiyshiqning choyxonasiga yig'ilib, allamahalgacha Jonuzoq arabning tuyalaridan gap-gashtak qilib o'tirishdi"("Bir toychoqning xuni")".

Tanbur [a-torli chertma musiqa asbobi; ud] Dastasi uzun, uch yoki to'rtta sim torli, noxun bilan chertib chalinadigan musiqa asbobi. Tanbur chertmoq. Tanburni sozlamoq. Barot polvon dodxoh kelibdi, shekilli deb samovar tomonga qaragan edi, dutor, tanbur, g'ijjak, nay, doira ko'tarib kelayotgan mashshoqlarga ko'zi tushdi. M.Ismoilij, Farg'ona t.o.

Eshakning(yoki ho'kizning qulog'iga tanbur chertmoq(yoki chalmoq) Gapni uqib olmaydigan(olmagan) shaxsga nisbatan qo'llanadi. -Ho'kizning qulog'iga tanbur chertdimmi, nodon xotin! - qizarib ketdi Yormat. - Kimga bo'lar edi, boy otam o'ziga so'rayapti. Oybek, Tanlangan asarlar. Yig'ilishdagi gaplar ho'kizning qulog'iga tanbur chertganday bo'пти-da. A.Muhiddin, G'anisher. (O'TIL,660). Alisher Navoiy asarlarida ham musiqa asbobini ifodalagan, ammo tanbur chaluvchi shaxsni tanburchi emas, balki tanburachi tarzida berilgan(NATIL, III, 179). Bu cholg'u asbobining nomi ijodkor asarida ma'lum bir ruhiy holat, tashqi ko'rinishini tasvirlash uchun ishlatilgan. "...to'q rang kostyum-u sutday oppoq ko'ylakda misoli tanburning torlariday tarang; yuzida tavoze, ammo jilmaygani sezilmasdi("Lolazor")".

Quloch "yelka balandligida kerilgan har ikki qo'lning o'rta barmoq uchlari orasidagi masofa" miqdoridagi(uzunlik o'lchov birligini anglatadi. Xalqimiz orasida "tili bir quloch", "quloch yozmoq" kabi iboralar mavjud(O'TIL, 370).

"O'zbek tilining etimologik lug'ati"da qadimgi turkiy tilda ham xuddi shunday ma'noni ifodalaganligi(DS, 464), Mahmud Koshg'ariy qol outi va a:ch- fe'lidan tarkib topganligini

dalillaganini(Devon, I, 30) yoziladi. Muallif qadimgi turkiy tilde ach-fe'li tarkibidagi unlini qisqa, aksincha, qo:l so'zi tarkibidagi unlini cho'ziq deydi. Bu bilan ot va buyruq-istak mayli shaklidagi fe'lning birlashib kompozitsiya usuli bilan qo'shma so'zning hosil bo'lishiga ishonish qiyin ekanligini ta'kidlaydi va bunday izohni "xalq etimologiyasi"dan kelib chiqqan fikrga yaqin deb hisoblaydi. Olimning fikricha, aniq bo'lmasa-da, bu so'z qo:l oti bulan uch otidan tashkil topgan degan farazni ilgari suradi hamda unlilar tarkibining o'zgarishga uchragani bilan hozirgi shaklga kelib qolganligini aytib o'tadi: qo:l uch=qo:luch>quluch>qulach>quloch kabi(O'TEL, I, 571). Bizning fikrimizcha, "qo'lning yelka baravar ochilgan miqdori" aniq o'lchovni bera olishi dargumon, chunki har kimning ochilgan qo'lining uzunligi har xil. Bu borada ham ma'lum tadqiqotlar olib borish talab qilinadi. Murod Muhammad Do'st asarida ham chuqurlik miqdorini ifodalash uchun ushbu birlikdan foydalanilgan. "Etak tomonlardagi xonadonlar qirq qulochlik quduq qazib, tuya yoki yilqi tortib oladigan qovg'alardan suv ichishardi"("Lolazor"). Etimologik lug'atda muallif-olimning fikri mana shu misol orqali ham biroz oydinlashganday bo'ladi, chunki qirq qulochlik chuqurlik izohli lug'atdagi ta'rifga asoslanib hisoblanadigan bo'lsa, juda katta miqdorni tashkil etishi ma'lum bo'ladi. Alisher Navoiy asarlarida quloch so'zi quloch va quchoq ma'nolarida kelgan(NATIL,IV, 78).

Qadoq so'zi Navoiy asarlari izohli lug'atida mavjud emas, faqatgina qadog' leksik birligi keltirilgan bo'lib, u qo'l kaftlariga nisbat berilish bilan izohlangan.

Qadoq qiymat jihatidan bir funtga teng bo'lgan qadimgi o'lchov birligi yoki metonimiya usuli asosida tarozi pallasiga o'lchash uchun qo'yiladigan shu miqdordagi toshni anglatadi(O'TIL, 206). "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da ham shu ma'noni ifodalashi, turkiy tilga mansubligi, fonetik tarkibida ma'lum o'zgarishlar yuz berganligi haqida ma'lumotlar

berilgan.(O'TEL, I, 502-503). Nosirning asarlarida ham o'lchov birligi semasini ifodalagan. "Kalonboyning ikki qadoq bo'yog'ini o'g'irlagan"("Lolazor").

Botmon fors tiliga mansub so'z sanaladi va 898,5 gramga teng o'g'irlik birligini anglyatadi. Tariximizda O'rta Osiyining, shu bilan bir qatorda, O'zbekistonning turli makonlarida turlicha mezonga, saloqqa ega bo'lgan, ya'ni ikki puddan o'n bir pudgacha, og'irlik o'lchov birligi hisoblanadi. Taminan bir gektarni ifodalovchi sath birligini ham bildirgan. Alisher Navoiy asarlarida sakkiz pudga teng og'irlik o'lchov birligi sifatida qayd etilgan(NATIL, I, 318-319). Ijodkor asarida yerning sath o'lchiv birligi ma'nosida qo'llangan. "Qo'sh ho'kiz ovora-yu, bir botmon yer haydaysan"("Lolazor").

Omoch so'zi Alisher Navoiy asarlarida "nishona, o'q otib mashq qilish uchun qo'yilgan nishon, omochxona esa "o'q otiladigan joy, mashq joyi" ma'nolarini ifolab kelishi izpohlangan(NATIL, II, 521-522). "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "ulov qo'shib yer haydaladigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog'och yoki temir asbob" omoch ekanligi qayd etilgan(O'TIL, 124). Adib ham ayni shu ma'nodagi omoch so'zidan foydalangan. "...omochlarning tishlari yeyilib bitgan"("Lolazor). — Bo'lmasa, nega Murod juvozkashning xotinchasi baytalga o'xshab kishnaydi?("Bir toychoqning xuni")".

Juvoz forscha bo'lib, "yog'och yoki tosh o'g'ir"ni anaglatadi, o'simliklar urug'idan, xususan, chigitdan moy chiqarishgan mo'ljallangan qurilmadir, mazkur birlikning ikkinchi ma'nosi sifatida "sholi oqlaydigan qurilma" sifatida izohlanib, ushbu uskuna "objuoz" deb atagan, bundan kelib chiqadiki, ikkinchi ashyoda "suv" elementiham aralashadi, "juvozkash" esa "juvoz tortuvchi" degan semani abildirib, otga nisbatan "juvozkash ot", "shaxsga nisbatan "shu ish bilan shug'ullanuvchi yoki shi kasb bilan kunini ko'ruvchi shaxs"ni bildiradi"(O'TIL, 110). Yuqoridagi matnning badiiy asardagi vazifasi nuqtayi nazaridan qaralsa, uning "objuoz"

yoki "moyjuvoz" ekanligi oydinlashmaydi, balki umumiy har ikki vazifani bajaruvchi ashyo ma'nosi tushuniladi.

"...uni o'z holiga qo'yib yuborib, yo'l-yo'lakay "Qaro ko'zim..."ni xirgoyi qilardi"("Bir toychoqning xuni").

Qaro ko'zum... "kuyi" xalqimiz orasida "Munojot" kuyi bilan aytiluvchi, uning ruhiy olami, qadriyatiga aylanib ulgurgan tushunchadir.

"Ochil Kuch guppiroq odam, gapga tez uchadi".

Guppi so'zi lug'atlarimizda "shoshqaloq, o'ylamasdan qaror chiqaradigan" ma'nolarini ifodalab, shaxsning belgisi tushunchasini anglatsa-da, aslida mazkur birlik milliy ro'zg'or ashyosi bo'lgan, qatiq yoki suzmani tez harakatlar bilan savib, uning tarkibidagi yog'ni ajratib olishga mo'ljallangan qurilma ma'nosining ko'chishidan hosil bo'lgan, ayni shunday vazifani bajaruvchi boshqa elektr bilan ishlovchi qurilmalar paydo bo'lishi bilan mazkur nomning iste'moli ham kamayib bormoqda.

"Sen-chi, enag'ar Eshmat, ishtonbog'day eshilib yotguncha, dalaga sal ertaroq chiqmaysanmi?"("Lolazor) Mazkur gapda ishton leksemasi bilan aloqadorlikda uning qismi sanalgan birlik ham milliy xarakter kasb eta oladi.

"Ayni holatda ular ikkovi cho'chib-uyalib turgan asnoda, orqadan qirq tuyali karvon yetib keldi("Lolazor).

Karvon forsiy birlik bo'lib, "tuya va boshqa yuk tashuvchi hayvonlar qatori" degan ma'noni bildiradi, "uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi, izma-iz boruvchi hayvonlar, aravalar va ularni boshqaruvchi shaxslar to'dasi, qatori" hispblanadi. **Karvonboshi** esa "savdo karvonining boshlig'i, karvonga boshchilik qiluvchi" shaxsdir. "Karvon" so'zi shu ma'no asosida turlicha ko'chma ma'nolarni ham ifodalaydi.(O'TIL, 320, 321). "Yigitlar o'rnilaridan turib, karvon boshiga qulluq qildilar", "Karvonboshi boshiga qiyiq tang'igan sersoqol kishi, ularga mensimayroq qaradi:..."("Lolazor), "Jonuzoq arabning o'zi, ostida oq bo'z oti, o'ychan, qiyaga qo'ngan

qirg'iyday tik, karvon yonida ketardi".(Bir toychiqning xuni). "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da forsiy va tojikcha birlik sifatida "ish, mehnat" ma'nosini bildiruvchi kor so'zidan kelib chiqqanligi, -von qismi esa hozirgi kunda o'zbek tilida, asosan, shaxs, ba'zan narsa buyum oti yasovchi -bon birligini qo'shilishidan hosil bo'lganligi izohlanadi. Aslida "boshqaruvchi kishi" ma'nosini anglatgan bu ot, vaqt o'tib, "uzoq yerlarga yuk tuyalar va ularga qarovchi shaxs" ma'nosini bildira boshlagan, "karvonboshi" va "karvonsaroy" so'zlari ham ayni shu so'zdan kelib chiqqan(O'TEL, III, 119). Hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, "karvon" shaxs ma'nosini emas, "balki yuk tashuvchi tuya, ot, eshak kabilardan tashkil topgan topgan qator" semasini ifodalaydi. "Karvonboshi esa shularga qarovchi, nazorat qiluvchi shaxsdir. Demak, antroponimda metonimik ko'chim yuz berib, "qator" ma'nosi anglashila boshlagan. "Imtihondan xursand bo'lib chiqib, to'g'ri karvonsaroyga borisdi"(Lolazor). Xalqimizning hayotining muhim va ajralmas qismiga aylangan "karvon", karvonsaroy" va "karvonboshi" birliklari milliy-madaniy, maishiy jihatdan realiyalar hisoblanadi.

"...qulay kelgan onda sizni oyog'iga patak qilib ketsa, dedi"(Lolazor).

"**Patak**" oyoq kiyimi ichiga qalin va yumshoq mati (mas., kigiz)dan qirqib solinadigan to'shamadir(O'TIL, 236). Mazkur matoning aynan kigizdan qilinganligi uni reliyalashtiradigan vositalardan biridir.

"-E, o'sha ko'nglingga...qo'tir jomashov!..."(Lolazor)

"**Qo'tir jomashov**" yirtiq-yamoq, uvadasi chiqqan kiyimga nisbatan ishlatiladi, bu birlik odatda, nutq tarkibida matnning qo'llanilish vaziyatiga qarab obrazlar yoki xaq vakillari nutqida qo'llaniladi.

"...og'aynilarim ko'p, deya va'da qildi, keyin qo'llariga kurak tutqazib, sayisxonaga boshlab kirdi"(Lolazor)

"**Sayis** arab tilidan olingan bo'lib, "otboqar, hayvonlarga qarovchi" degan ma'noni bildiradi. Sheva birligi sifatida "umuman otboqar"ni ifodalaydi.

Sayisxona tarixiy "sayislar yashashi uchun bevosita otxonalar yonida qurilgan maxsus uy" va "otxona" ma'nolarini anglatadi.(O'TIL, 423). "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da har ikki so'z ham izohlanmagan. Hozirgi o'zbek milliy tili doirasida Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlarida "sayisxona" deyilganda, "turli yem-xashaklar va turli boqiladigan hayvonlarga mo'ljallangan asbob-uskunalar saqlanadigan joy" tushuniladi, "qoramol, ot, tuya" bog'lanadigan, boqiladigan joy "molxona", "og'ilxona", "qo'y, echki" boqiladigan, saqlanadigan joy "qo'ra" yoki "qo'tan" deb ataladi. Xalq dostonlarida ham ayni shu ma'noni ifodalagan. Jumladan, "Kuntug'mish" dostonida Kuntug'mish Zangar taxtiga chiqqandan keyin har bir davlatdagi mansabdorlarga qirq kundan sayislik qilishni tayinlaydi, ammo dostonida aniq bir hayvon nomiga ishora qilinmaydi, demak, umumiy hayvonlarga qarovchi shaxsga nisbatan "sayis" qo'llangan. "Alpomish" dostonida esa Qultoy Boybo'ring sayisi, uning otlarga qarashi asarda oydinlashadi.

"— Mmenga raisning gulli kosasida sho'rva bersin, — dedi Murod amaki. — Ssen... sen o'zing ayt", "— Men ertalab uyda sho'rva ichuvdim (Bir toychoqning xuni)".

"**Sho'rva**" forsiy birlik sifatida "guruch, go'shtli suyuq ovqat, mastava"ni bildiradi. Go'sht, piyoz, kartioshka va boshqa sabzavotlar solinib pishiriladigan suyuq ovqatga nisbatan mazkur leksema ishlatiladi. "Sho'rva-sho'lti" juft birligi "yovg'on suyuq ovqatlarning umumiy nomi"ni ifodalaydi(O'TIL, 13).

"**Sho'rva**" forsha-ruscha lug'atda "shurba, shurva" shakllarida(PRS, 318,319), tojikcha-ruscha lug'at sho'rbo shaklida berilibhi, hozirgi o'zbek tilida sho'rva tarzida talaffuz qilinadi, "go'sht va savzavotni qovurib yoki qovurmasdan pishiriladigan

suyuq taom"ni anglatadi(O'TEL, III, 268). Mamalakatimzning biron maskanida mastava va sho'rva so'zlari adashtirib qo'llanilmaydi, gurunli taomlarga nisbatan mastava, "qovurib yoki qovurilmay pishiradigan suyuq ovqatga nisbatan sho'rva birligi ishlatiladi. Buxoro va Samarqand viloyatlarida guruchli taom birinjoba, "qovurib yoki qovurilmay pishiriladigan taom" piyoba va sho'rbo nomlari bilan yuritiadi.

"Xona ship-shiydam, sandiq ustiga taxlab qo'yiladigan kigiz va ko'rpalar bog'ga olib chiqilgan(GQ)".

"**Ko'rpa** leksemasini lingvokulturologik birlik sifatida qarash mumkin, chunki paxta solib tayyorlanadigan, ustga olinadigan xo'jalik ashyosi sifatida qaraladi, boshqa vositalar yordamida tikilgan, masalan, ichiga paxta o'rnida ishlatilib tikilgan, xuddi shu vazifani bildirgan birlikni ham shu nom bilan ataymiz. Ko'rpacha deyilganda, uning kichigi anglashilmaydi, balki -cha funksiyasini yo'qotib, so'z tarkibiga singib ketgan va ostga tashlanuvchi, o'tirishga mo'ljallangan uy-ro'zg'or buyumidir.

"...lekin so'roqlatgan paytda Raim oqsoqol olamdan o'tgan edi(Lolazor)".

"**Oqsoqol** birligi ham lingvomadaniy ahamiyatga ega. Xalqimiz oqsoqollikka yoshi ulug', soch-soqoli oqargan, el-yurt o'rtasida obro' qozongan, hayotiy tajribaga ega bo'lgan odamlarni saylashgan. Xalqning bunday kishilari xalq vakillarining turli muammolarini hal qila olish bilan birga, ularning xonadoniga bemalol kirish, ular bilan turli masalalarda suhbatlashish huquqiga ham ega bo'lgan, bunday huquqni unga xalqning o'zi bergan, hech bir xonadon, oila bu odamni o'ziga begona deb bilmagan. Bunday holat xalqimiz madaniyatining ajralmas bir bo'lgi sifatida saqlanib qolgan.

"...birga chillak-u birga quloqcho'zma o'ynaganini biladi. Har holda, u Oshning telpaktepdi yoki qushimboshim kabi ermaklardan chetda turmaganini tushunadi"(Lolazor)".

"**Chillak**" forscha birlik bo'lib, "bir turli bolalar o'yini" hisoblanib, bitta kalta, bitta uzun yog'och bilan o'ynaladi, o'yinda xizmat qiladigan ingichka yog'och ham shunday deb ataladi. Bu o'yinda har bir yog'och alohida nomga ega, kalta yog'och "chillak bola", uzun yog'och "chillak ona"deb ataladi(O'TIL,484)".

"**Quloqcho'zma**" xalqimiz orasida juda ko'plab asrlar davomida mavjud bo'lgan etnografik jihatdan "bola tavallud topgandan bir hafta keyin beriladigan ziyofat, mazkur tadbir davomida farzand ko'rgan xotin tishlab turgan ikkita nonni birinchi tishlagan bolaning olib qochganida uni ushlab olish uchun orqasidan boriladi va qulog'idan cho'ziladi, ikkinchidan bekinmachoqqa o'xshagan bolalar o'yini bo'lib, bir bola poyloqchilik qiladi, boshqalar belgilangan marraga qarab qochishadi, poyloqchi kimni birinchi tutib olsa, uning qulog'idan cho'zib marraga olib kelishi kerak(O'TIL, 374).

"**Telpaktepdi**" xuddi "lanka" o'yini kabi bosh kiyimini tepish bilan aloqador xalq o'yinidir.

"**Qushimboshim**" o'yinida bolalar ma'lum bir masofani belgilab olib, sochilgan narsalarning barchasini terib, ayni belgilangan joyga olib borishadi, g'olib bo'lganga qush boshi kiydiriladi. Bu o'yin xalqning ming yillik tafakkuri, madaniyati, orzularining samarasi sifatida paydo bo'lgan. "Kuntug'mish" dostonida ham egasiz qolgan davlatga shoh tayinlash uchun "Davlat qushi" uchirilgan, uch marta kimning boshiga qo'nsa, u davlat rahbari, podshoh, bo'lgan.

"...sakrab tushgan jinko'chaga kirgan, jinko'cha bo'ylab ularning ortidan yurasan"(Lolazor)".

"**Jinko'cha**" birligi xalqimiz dunyoqarashida ikki tushunchani anglatadi: birinchidan, xilvat, qandaydir favqulodda kuchlar, sirli narsalar mavjud bo'lgan, ovloq ko'cha, ikkinchidan, qadimiy eski shaharlardagi har xil tor ko'chalar kabi. Qanday ma'noni

anglatishidan qat'i nazar xalqimizning asrlar davomida shakllangan so'z magiyasiga asoslanadi.

"G'aybarovning miyasiga so'yil tushganday bo'ldi("Lolazor")"

"**So'yil**" "Uzun, yog'on kaltak, tayoq"ni ifodalaydi. So'yil dasta qismidan boshlab uch qismida qarab yog'onlashib borgan(O'TIL, 611).

"...yaxshisi novvoyga shogird tushinglar, non-u kulcha bepul bo'ladi, faqat kiyim-bosh o'zlaringdan, deb maslahat berdi. Oshno novvoy bo'lishga ko'ndi".

"**Novvoy**" mazkur leksemani lingvomadaniy birlik sifatida qarashimiz uchun ma'lum tahlil, mulohazalarga asoslanish kerak, rus tilida "olovda turli un mahsulotlarini pishiruvchi shaxs" mahsulot nomi bilan emas, balki bajariladigan harakat nuqtayi nazaridan nomlanadi va shu turdagi istalgan narsani pishiruvchi shaxs sifatida "pekar" deb nomlanadi. "Non" xalqimizning ming yillik tarixining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan bo'lsa-da, uning turlarigina lingvomadaniy birlikdir, mulohazali tomoni shindaki, aynan "non" qadrlanadigan va alohida madaniy qadriyat sifatida qaraladigan xalqlarda uni pishiruvchi shaxs ham xuddi shunday qadriyatning ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi, jumladan, nemislarda non muhim qadriyatlarga ega bo'lgan mahsulot sifatida qadrlanadi va uni pishiruvchi shaxs ham shu qadriyatlarning muhim bir qismi sifatida qaraladi. "Palov" milliy madaniy birligimiz sifatida qaraladi va ko'pgina joylarda "osh" shu tushunchani anglatadi, mazkur taomni pishiruvchi "oshpaz" ham shunday madaniy qadriyat doirasidagi muhim kasb-hunar kishisi sifatida qadrlanadi.

"**Kulcha**" leksemasi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da forscha so'z sifatida "tandirda yopilgan kichkina, dumaloq, doirasimon yog'li non, kulcha"ni ifodalab kelishi qayd etilgan(O'TIL, 427). "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da mazkur birlik berilmagan. "Kulcha"ning tayyorlanish jarayoni bilan bog'liq jarayonlar

kuzatilganda, yurtimizning bir necha hududlarida uning "kul" birligi bilan aloqadorligi ayonlashadi, ya'ni tandirda non pishirib bo'lingandan so'ng ichki yuza qismi bir qadar soviydi, olovning ust qismini kul qoplaydi, shunda kichik-kichik, aylana shaklga keltirilgan xamirlar kul ustiga tashlanadi va tezda olinadi, bundan xalqimizning ham bolajonligi, ham mavjud birliklarni isrof qilmaslik, ham ming yillik qadriyatlarimizning bir bo'lagi sanalgan olovga ham hurmat yagona psixik majmua mohiyatini kasb etadi.

"O'rtaqo'rg'onda, turli karvonsaroy-u ijara hujralarda jon saqlab yurganlarida, ..."("Lolazor")

"**Hujra**" birligi "kichik xona, yotoqxona" ma'nolarini bildiradi, Hozirgi kunda xalqimiz tafakkurida "hujra" deyilganda, madrasalarda ilm olinadigan, yotoq vazifasini ham o'tovchi, diniy ilmlarni chuqur o'zlashtirish mumkin sanalgan joy tushuniladi.

"-Bu, deyman, Ostonaqul bolam, qazi-qartadan bormi?"("Lolazor")

"**Qazi**" "otning to'sh va peshnop go'shti va shunday go'shtdan otning yo'g'on ichagiga tiqib tayyorlangan oziq-ovqat mahsuloti"ni anglatadi(O'TIL, 209). Qadimgi turkiy tilda ham "qorin go'shtining kindik atrofidagi yog'li qismi" ma'nosini anglatgan(O'TEL, I, 503).

"**Qarta**" "otning yog'li yo'g'on ichagi va undan maxsus tayyorlangan, ko'pincha yaxna qilib tayyorlanadigan taom"dir. Har ikki nomlanishga e'tibor qaratisa, metonimik ko'chim asosida hosil qilinganligi ayon bo'ladi. "Qazi-qarta" juft so'zi aynan shu ikki taom majmuini ifodalashga xizmat qiladi.

"Xurjunniam oling, men tuyada bir amallab yetib borarman("Bir toychoqning xuni"), "...xurjundagi gazeta, xat va jurnallarni olar, ularni devor osha tomorqa uvatlariga irg'itardi"("Darvoza yonidagi it"), "Sababki, Oshno bir kuni cholni yangi to'n-u mahsida ko'rди, tagida gijinglagan ot, xurjuni to'la, shahar bozoridan chiqib kelayotgan ekan..."("Lolazor")

“Xurjun so’zi “O’zbek tilining izohli lug’ati”da forsiy yoki arabiy birlik bo’lishi mumkinligi, “qo’shaloq bo’lmali xalta’ semasini bildirgani, “egar ustiga yoki yelkaga oshirib tashlanadigan, yuk solinadigan ikki ko’zli qop, qo’sh xalta”ni ifodalashi keltirilgan(O’TIL, 426).

“To’raboy noiloj chorpo yadan tushdi”(“Bir toychoqning xuni”)

“Chorpoya” milliy-madaniy birlik sifatida ayna hozirgi kundagi “karavot” tushunchasini anglatmaydi, turli marosimlarda, uy xo’jaligida va boshqa maqsadlarda foydalaniluvchi to’rt oyoqqa ega bo’lgan o’rindiqlik, bir necha odam davra qurib o’tirishga mo’ljallangan yirik uskunalarga nisbatan ham aynan shu leksema amal qilgan.

“...Mo’ltoni xalqi ahmoq emas...”(Bir toychoqning xuni).

“Mo’ltoni” “Pokistonning Mo’lton” shahri nomiga aloqador bo’lib, eski o’zbek tilida “lo’li” ma’nosini anglatgan, ko’chma ma’noda “firibgar , muttahaam “ kabi semalarni ifodalaydi. “Kuntug’mish” dostonida ham Gurkiboyni topib olgan cho’ponlar ayna shu so’zni qo’llashadi, “mo’ltoni” ifodalaydigan ma’nosi va xalqimiz tomonidan qanday semada qo’llanilishiga ko’ra milliy-madaniy birlik sanaladi.

“— Qo’l endi ko’pkariga yaramaydi-ku, yurt og’asi!(“Bir toychoqning xuni”)

“Ko’pkari” shv ayn. uloq III (O’TIL, 464). “Uloq” o’yini aynan shu obyekt bilan amalga oshiriluvchi o’yin sifatida nomlanishini tushunish mumkin, lekin nima sababdan “ko’pkari” deb atalishi izoh talab qiladi, shuning uchun bu borada izlanishlar olib borish lozim.

“Alamidan orqaroqda borayotgan sigirning kuymichiga gavron bilan tushirdi...”(“Dasht-u dalalarda”)

“Gavron” forscha “sigir haydovchi” degan ma’noni bildiradi, sigirni o’tlatish va boshqa jarayonlarda ishlatiluvchi tayoq hisoblanadi.

“Palag’da tovushda qurtdakkina so’kinib, irg’ay xalacho’p bilan eshagining sag’risiga tushirdi”.(“Darvoza yonidagi it”)

“Xalacho’p”, odatda, eshakka minilganga ishlatiladigan yog’och hisoblanadi, “xala” tojikcha “suqil” ma’nosini bildiradi, eshakning yurishini tezlatish uchun unga suqib ishlatiladigan cho’p, yog’och.

“Ustiga namat yopilgan savatning bir tomoni ko’tarilib, oraliqdan kattakon qora mushuk sirg’alib chiqdi”(“Darvoza yonidagi it”).

“Namat” kigiz matodan tayyorlangan, oyoq ostini issiq saqlash uchun ishlatiladi. Namat qo’y, echki, ot , tuya junlaridan ham tayyorlangan milliy ashyo hisoblanadi.

“Sababki, Oshno bir kuni cholni yangi to’n-u mahsida ko’rdi, tagida gijinglagan ot, xurjuni to’la, shahar bozoridan chiqib kelayotgan ekan...”(“Lolazor”) “Mahsi” milliy asyo sifatida kalishning ustidan kiyiladigan birlik sanaladi.

“...eski toltovoqning ostiga qo’yib ketadi”(“Dasht-u dalalarda”).

“Toltovoq” toldan yasalgan tovoqdir, aynan shu daraxt o’sadigan hududlarda mazkur birlikdan ko’p foydalanilgan, tabiiy, yengil qulay mahsulot bo’lganligi sababli taom iste’mol qilishda, turli mahsulotlarni saqlash, qurt tayyorlash uchun ishlatilgan.

“...bizga atab dehangizdan, ya’nikim qishlog’ingizdan yakta mesh qimiz-u qimron bilanopkelsangiz”(Lolazor)

“Qimiz” biya sutidan maxsus idishlarda bijg’itish yo’li bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi , shifobaxsh ichimlikdir(O’TIL, 293,294).

“Qimron” tuya sutidan tayyorlanadigan shifobaxsh ichimlik, qimiz kabi tayyorlanish jarayoniga egaligi uchu xalqimiz orasida qimizning bir turi sifatida ham qaraladi(O’TIL, 295).

“U xotinini umrida bir marta — chimildiqda amallab ko’tarib olgan, xolos”(“Dasht-u dalalarda”).

“Chimildiq” milliy ashyo sifatida nikoh to‘yiga aloqador, kelin va kuyov kiritilib ma‘lum marosimlar o‘tkaziladigan joy yoki uning mato bilan aloqador qismini anglatadi.

“Borsa, Salim hovli o‘rtasida sandal qo‘yib, oldida mag‘zava to‘la tog‘ora, bir parcha pishiq g‘isht bilan tovonining yemini qirtishlab o‘tiribdi” (“Dasht-u dalalarda”).

“Sandal” ota-bobolarimiz tomonidan sandal daraxtidan yasalgan, qishning sovuq kunlarida isinish uchun ishlatiladigan ashyo yoki uning bir qismidir. Sandal deyilganda, ham aynan shu daraxtdan yasalgan ashyo, ham usti ko‘rpa bilan yopiladigan umumiy konstruksiya tushuniladi.

“Enasinikida o‘sma qo‘yib o‘tiribdi, deb o‘ylaysanmi!..” (“Dasht-u dalalarda”)

“O‘sma” qadimdan ayollarimiz tomonidan pardoz matohi sifatida qo‘llangan, shu nomdagi o‘simlikdan tayyorlangani uchun ham metonimik ko‘chim asosida fitonim nomi bilan atala boshlangan.

“Yor-yor-yoron-ey!” deb qo‘shiq aytishdi” (“Dasht-u dalalarda”).

“Yor-yor-yoron-ey!” - nikoh to‘yi marosimlarida ijro etiladigan xalq qo‘shig‘i.

“— Chillasi chiqarkan-da, — dedi Nazar Maxsum. — Bekor qipti, Polvonboy, sochi uzunlik qipti, endi sizday yigitni topolmaydi, Taloq-palog‘ini aytdingizmi?” (“Dasht-u dalalarda”)

“Chilla” milliy qadriyat sifatida bola tug‘ilganda, onada, qiz turmushga chiqqanda, yigit uylanganda, marhum ko‘milgandan keyingi yoki ma‘lum bir hodidsalarga nisbatan qirq kunlik davrni bildiradi (O‘TIL, 483).

“Tinchgina molini haydab ketayotib edi, yo‘lda Maxsum uchradi, taloqni olib ketmoqchi bo‘ldi, uni iziga qaytarib, o‘zi keldi” (“Dasht-u dalalarda”). “U xotinning talog‘ini tutqaza turib,

yuziga qaramayman, deb qasam ichgan. Taloq ancha oldin aytilgan, bolaning o‘limi ko‘p keyin sodir bo‘lgan (“Galatepaga qaytish”).

“Taloq” arabcha “ajralish, xotin bilan ajrashish, qo‘yish” degan ma‘noni bildiradi. Nikohni buzish, bekor qilish haqidagi er tomonidan aytiladidan so‘zdir, uch marta aytilganidan so‘ng ayol barcha xotinlik majburiyatlaridan ozod bo‘ladi (O‘TIL, 651,652). “Taloq” diniy qadriyatlarimiz jihatidan lingvomadaniy birlik sanaladi.

“Cho‘ntagimda tanga-chaqalarim bor edi (“Lolazor”).”

“Tanga” leksemasi bir necha tushunchalarga nisbatan ishlatiladi, tarixan Buxoro xonligida 15 tiyin, Qo‘qon xonligida 20 tiyinga tegishli pul birligini, hozirgi kunda esa qog‘ozdan boshqa, oltin, kumush, mis, temir kailardan zarb etilgan pulni bildiradi (O‘TIL, 661). Keltirilgan izoh nuqtayi nazaridan faqat birinchi semasi realiya, ammo hozirda ifodalaydigan, ijodkor asaridan keltirilgan kabi holatlari realiya hisoblanmaydi.

“Tasavvur qilingki, torgina chorburchak hovli, sahniga musulmoni g‘isht to‘shalgan, ... (“Lolazor”).”

“Musulmoni g‘isht” madaniy birlik sifatida qo‘llaniladi, uni tarjima qilganda ham aynan shu tarzda berish talab etiladi, bu birlik o‘z davrida boshqa qurilish ashylaridan farqlangan, qimmat baholangan, juda mustahkamligi bilan ajralib turgan, O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasida ham shu birlikning keltirilishi bu xonadonning qachondir to‘kin yashaganligiga ishora qilinadi.

“Gapga kashta chekishning nima keragi bor? (“Galatepaga qaytish”).”

“Kashta” forschadan tarjima qilinganda, “ekilgan, urug‘ qadalgan, ishlov berilgan” kabi ma‘nolarni bildiradi. Igna bilan tikib tushirilgan gul, rasm, chiziq vashu kabilardir. Gul, rasm, chiziq va shu kabilar tikilgan mato hisoblanadi (O‘TIL, 338).

“Ahmad sal ulg’aysin, unga ozroq yordam qilarman, lekin boshqaga... Jonga tegdi, opa. Ilik osh, qazi-yu hasiplar qornimni og’riyapti(“Galatepaga qaytish”).

“**Hasip**” so’yilgan qo’y yoki qoramolning ichagiga go’sht, jigar, qorataloq kabilarning qaiymasi va guruch aralashtirib solinib, qozonda qaynatib yoki qasqonda dimlab ytayyorlanadigan milliy taom nomidir(O’TIL, 513,514).

“Opa parishon bo’lib, to’rga — taxmondagi usti bo’sh og’ir sandiqqa qaradi”(GQ).

“**Taxmon**” uy yoki ayvon devorida sandiq o’rnatib, ustida o’rin-ko’rpa yig’ishtirib qo’yiladigan tokchasimon maxsus joydir(O’TIL, 18).

“To’r” leksemasi joy nuqtayi nazaridan lingvomadaniy birlik hisoblanmasligi mumkin, ammo xalqimizning insonga qanday munosabatda bo’lishi, ulug’larga munosabat jihatidan shunday birlik sanaladi, realialar tarkibiga kiritib bo’lmaydi.

“Miyadagi og’riq so’lakka qo’shib, mis dastsho’ga oqib tushadi, lunjing karaxtlanadi(“Galatepaga qaytish”).

“**Dastsho**” tojikcha “dast” “qo’l” va “sho’(y)” “yuv-“ qismlaridan tarkib topgan. Dastsho’ deyilganda, ikki xil tushuncha tushunilgan: birinchidan, obdasta bilan qo’lga suv solinganda uning ostida suv to’kilishiga mo’ljallangan buyum, ikkinchidan, ichidan suv bor bo’lgan, o’rta qismi chuqur, atrofi keng yassi uy-ro’zg’or ashyosi nazarda tutilgan.

“E, qo’y, qo’shig’ingni ayt, oshna! Anavi... Tanavoringni ayt(“Galatepaga qaytish”).

“**Tanovar**” forscha “semiz, bo’liq, barvasra, gavdali” kabi leksik ma’nolarni va “o’zbek xalq raqs kuylaridan birining nomi “ ham shunday yuritiladi(O’TIL, 666). Kuyning bunday atalishiga sabab shuki, kuyning kamchiliksiz, mukammal yaratilganligiga ishora mavjud.

“Bozorda uzum deganning turi ko’p edi: **husayni, shivilg’oni, muskat, doroyi...**(“Galatepaga qaytish”). Uzunning o’zi maxsus realiyalar tarkibiga kirmaydi, xuddi non birligi kabi, uning “husayni, shivilg’oni(shibirg’oni), muskat, doroyi” turlari esa realialardir.

Realialar xalq hayotining turli bo’g’inlarida milliy lingvomadaniyatning muhim va alohida jihatlarini o’zida aks ettirishi bilan dunyo lingvokulturologiyasining ham ajralmas bir qismi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, realialarni tarjima qilinmasligini ustuvor deb qarash bu tushuncha haqidagi tasavvurimizni bir qadar toraytiradi, mazkur birliklarni aniqlash, uni tahlil qilishda xalqning ma’lum bir birliklarga o’ziga xos tarzda yondashuvini ham inobatga olish joiz.

MUROD MUHAMMA DO'ST ASARLARIDA LAKUNARLIK HODISASINING IFODALANISHI

Til ichidagi va tillararo munosabatlarda ma'lum bir tushunchalarni ifodalovchi yoki tushunchalarning o'zi ham bo'lmaydi. Mazkur hodisa haqida bir qator sohaning yetakchi olimlari o'z qarashlarini bildirishgan. Ushbu fikrlar asosida Murod Muhammad Do'st asarlarida shu hodisaning ifodalanishini izohlashga harakat qilamiz.

J.Vine, J.Darbelne kanadalik lakuna deganda, ma'lum bir tildagi birlik boshqa bir tilda muqobilini topmagan holatda vujudga keladigan hodisani bildirishini ta'kidlashadi va uni *intralingvistik va tillararo* kabi turlarga ajratishadi⁵⁶.

Y.Stepanov va V.Murayovlar lakunalarni bir tilda xos bo'lgan boshqa tilda shu tushunchasini ifodalaydigan aynan birligi yoki muqobili mavjud emasligini aytishadi⁵⁷. Bu birlikni tilda mavjud bo'lgan, ammo tushunarsiz, matn uchun qulay, ammo ifodalashda noqulaylikka sabab bo'luvchi hodisa ekanligini ta'kidlashadi⁵⁸. Olimlarning mazkur qarashi amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki bir kundalik muloqot jarayoni shunday holatlarga duch kelamizki, ularni ifodalovchi birliklarni topa olmaymiz, natijada *"ishqilib-da"*, *"shunday, shunaqa"*, *"endi, shu-da"* kabi birliklarni ishlatish bilan kifoyalanamiz. Keltirilgan fikrning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, lakuna muammo sifatida hali to'liq tadqiq qilinmagan ekan, ularni o'rganilishining nozik jihati bevosita mana shunday holatlarning mavjuli bilan xarakterlanadi.

Lakuna mavzuning nozikligi, uni atroflicha tadqiq qilishdagi muammoni bartaraf etish maqsadida, tushunchaning turli vaziyatlar va leksik-semantik mohiyatini chuqurroq qamrab olish maqsadida G.Bikova "tizimli, kommunikativ, to'liq, nisbiy, motivlashgan yoki motivlashmagan, tilning ichki tizimi bilan aloqador, tur-jins munosabatlil, shakllantiruvchi, segmentar, latentli kabi bir necha turlarini taklif etadi⁵⁹.

Lakunaning "tushunarsiz, g'alati, noto'g'ri" tushuncha sifatida qarash Y.Sorokin, I.Markovina, Y.Lipatova, G.Shryoder kabi qator olimlar tadqiqotlarida uchraydi. Y.Stepanov, L.Barxudarov, M.Karapetyan kabi olimlar "haqiqiy madaniyatga xos so'z", "tasodifiy g'ovaklar", "tilning semantik xaritasidagi oq dog'lar", "muqobilsiz leksika", "til tizimining bo'sh hujayrasi", "madaniy leksika", "antiso'zlar", "etnoeydema", "matndagi qorong'ilik", "ekzotizmlar", "varvarizmlar", "etnokonnotatizmlar", "tushirib qoldirilgan so'zlar" deb nomlash, shu asosda tadqiq va tahlil qilishni taklif qiladilar.

Miray Turker "bir millat tilining egasiga tegishli bo'lib, boshqa millat tilida nomga ega bo'lmaydigan so'zlar lakunalar ekanligini isbotlashga urinadi"⁶⁰. Olimning mazkur fikriga tayaniladigan bo'lsa, lakunalarning bunday ta'rifi ularni realialarga yaqinlashtirishini kuzatish mumkin.

Hozirgi kunda lakunalarni tillararo birlik sifatida qarash mavjud, ammo V.Savitskiy, Y.Savitskaya bunday qarash bir qadar noto'g'riligini, bu tushunchaning faqatgina bir til doirasida tadqiqqa tortish zarurligi, chunki har bir til egalarini o'ziga xos tafakkurlari, olam haqidagi tasavvurlari bor ekanligini, bunday qarash faqatgina mazkur tushunchani anglashni murakkablashtirishini ta'kidlashadi.

⁵⁶ Shaymardanova A.R. Madaniy lakunaning muloqotdagi urini ("Ying" tushunchasi misolida) // UZA ILM-FAN // -T., 2021. <https://cdn.uzawz/2021/12/22/11/27/yvj5Sm6BRqLnUJMuC191ouiyavOskgld.pdf>

⁵⁷ Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). - Владимир, 1975. - С. 96; Стернин И.А. Структурная семасиология и лингводиактика // Русское слово в лингвострановедческом аспекте: Межвузовский сб. научн. трудов. - Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1987. - С. 104 - 121.

⁵⁸ Сорочкин Ю.А., Морковина И.Ю. Текст и его национальная культурная специфика // Текст и перевод. - М.: Наука, 1988. - С.77.

⁵⁹ Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. - Благовещенск, 2003. <https://eudocs.ru/v33236/?download2=1>.

⁶⁰ Türker M. Rus dilbiliminde lakuna (lacuna) kavramına bir bakış. Erciyes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Yüksek Lisans Tezi, Mayıs 2014.-S.5.

Intarlingval (bir til ichidagi) hamda tillararo lakunarlik hodisasini L.Bayramova, V.Ryabov, V.Jelvis kabi bir qator olimlar farqli xususiyatlarga egaligini, chunki har bir tilning o'ziga xos jihatlari mavjudligini, har ikki lakunaning turini bir sferada tahlil qilish ma'lum yanglish qarashlarga sabab bo'lishi mumkinligi haqidagi qarashlarni ilgari surishadi. Buning sababi sifatida muqobilsiz birliklar (realialar) ning borligini ko'rsatishadi⁶¹. Bu fikr, albatta, asosli. Tillararo bu holatlarni tahlil qilishda har qanday tushunchani alohida tahlil va talqin etish murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

G.Bikova, Z.Popova, M.Sterninlar lakunalarni tasniflashda mavhumlik, noaniqlik darajasini alohida ta'kidlashadi. Ularni "predmetli hamda mavhum" kabi turlarga ajratishadi⁶².

G. Bikovaning quyidagi ta'rigiga e'tibor qarataylik: "lakuna – bu so'z sifatida moddiylikka ega bo'lmagan, biroq muloqot uchun tushunchalarning sintaktik darajada ifodalanish xususiyatlariga ega, leksik mazmun, sememadir"⁶³. Mazkur ta'rif diqqatga sazovor. Chunki biz ma'lum bir birlikning nomini aniq atay olmasak, u haqidagi tasavvurni boshqa birovga anglatish uchun boshqa sintaktik darajadagi birliklardan foydalanamiz. Masalan, "Galatepaga qaytish" qissasida G'uchchi chol Jonuzoq arabni uchratganidan so'ng uning otiga minib borgan joy, otning holatini tasvirlash uchun yagona bir so'zni topolmaydi, natijada bir necha gaplardan foydalanadi. Sintaktik birliklar mavjud tushunchani ifodalashga xizmat qiladi.

N.Glazachyov tipologik tadqiqni amalga oshirar ekan, lakunalarni leksik, etnografik va intermadaniy kabi turlarga

⁶¹ Попова З.Д. Язык и национальная картина мира. – Воронеж, 2003.–С.21; Попова З. Д. Язык и национальная картина мира. – Изд. 4-е, стер. – Москва; Берлин: Директ-Медиа, 2015. – С. 101.

⁶² Стернин И.А., Попова З.Д., Стернина М.А. Лакуна и концепты. //Лакуны в языке и речи: Сборник научных трудов/ – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – С. 212.

⁶³ Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: БГПУ, 2003. – С.

ajratadi⁶⁴. Bunday tasnif ham intralingval, ham tillararo lakunlarga daxldordir. Istalgan bir tilda ichki bo'shliqlar bo'lishi tabiiy holdir. Shu bilan birga ma'lum bir tushunchalarning boshqa tillarda mavjud bo'lmashligi natijasida lakunalar yuzaga keladi. Bir tildagi tushunchaning boshqa tilda mavjud emasligi, tabiiyki, o'sha tilda mazkur tushunchani atovchi leksik birlikning bo'lmashligi bilan belgilanadi. Etnografik lakunarlik xalqlarning urf-odatlarini, rasm-rusumlari bilan bog'liq jihatlarga asoslanadi. Ma'lum bir millatda mavjud bo'lmagan milliy xossalar boshqa tillarda mavjud bo'lmasa, demak, uni atovchi qism ham tabiiy ravishda bo'shligicha qoladi. Milliy til doirasida qaralganga ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Har bir hududning o'ziga xos yashash tarzi, odatlari, udumlari mavjud va bu holat ichki lakunalarda namoyon bo'ladi. Leksik birliklarni qo'llash jarayonida turli darajadagi lakunalar mavjudligi ko'rinadi. Bu faqatgina mavjud atovchi birlikning mavjud emasligi bilan emas, balki nutq vaziyatining taqozosi bilan ham yuz berish mumkin. Masalan, *Do'stlar aslida u qadar do'st ham emas edi, Yaxshiboyevdan qo'rqishardi, xolos.* ("Lolazor" romani 5-bet). Ushbu matnda lakunarlik hodisasi ma'lum bir leksik birlikni matn talabiga ko'ra qo'llaganidan keyin kuzatiladi. Ular do'st emas, dushman ham emas, unda ularni qanday tushuncha bilan atash mumkin. Keyingi gapga e'tibor qarataylik: *Do'stlar ham unga qo'shib kulishdi.* ("Lolazor", 6-bet). Mazkur gapdagi "do'st" leksik birligi ayni shu semani ifodalashga xizmat qilmayapti. Ular do'st ham, dushman ham emas, unda mazkur holatga nisbatan qanday leksik birlikni qo'llash lozimligi muammoni yuzaga keltiradi.

Ishqilib, shaharga qaytganida ko'nglida birgina istak bor edi: endi boshqacha yashamoq kerak.

Afsuski, boshqacha yashashning iloji bo'lmadi. ("Lolazor", 6-bet).

⁶⁴ Глазачев Н.Л. Ещё раз о типологии межъязыковых лакун (на материале китайского и русского языков). //Лакуны в языке и речи: Сборник научных трудов/ – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – С. 29.

Odatda, ma'lum bir tushunchani ifodalaydigan birlik topilmasa, nutqimizda "boshqacha, o'zgacha" kabi so'zlar berish odat tusiga aylangan. Shu holatlarning nima ekanligini atovchi aniq birlik mavjud emas. Yuqoridagi olimlarning fikriga tayanilsa, bir necha sintaktik birliklar bilan ifodalashga to'g'ri keladi. Ba'zi birliklar bir-biri bilan shu darajada yaqinlashib ketadigan, uning teskari tomonida boshqa bir so'zni ishlatish imkonsiz bo'ladi. Masalan, *Bekorga ranjiyapsiz, Nazarboy, harna eski qadrdonlarmiz.* ("Lolazor", 7-bet). Ijtimoiy mavjudot sifatida inson doim boshqa subyektlar bilan aloqaga kirishadi. "Qadrdon" birligiga nisbatan "eski" birligining ishlatilishi uning yaqinligi, har qanday holatda ishonchini qozongan, qo'llab-quvvatlagan shaxs ekanligi anglashiladi, unga uzoq muddat bo'lmasa-da, xuddi shu belgilarga ega insonga nisbatan "yangi qadrdon" yoki boshqa bir leksik birlik qo'llanmaydi. Mazkur holatda ham atovchi birlik o'rni bo'sh qoladi.

"Galatepaga qaytish" qissasida aza marosimidan keyin sindirishga oson bo'lishi uchun yupqa toldan yasalgan tobutni sindirishadi. Ammo asarda mazkur odat maxsus nom bilan atalmagan yoki asar mazmunidan kelib chiqib, o'zimiz "tobut sindirish" odati tarzida birikma bilan atashimiz ham mumkin, biroq bunday marosim mamlakatimizning boshqa hududlarida uchramaydi. Shuning uchun ham uni nomlovchi birlik deb ham bo'lmaydi.

Oshni har safar O'rtaqo'rg'onga kelganida uning uyida mehmon bo'lar, maslahatlashar, nufuzliroq hamrohlariga, o'v boxabarlar bo'linglar, deya sha'ma qilardi. ("Lolazor", 7-bet). Keltirilgan ushbu matnda "mehmon" so'zining "O'zbek tilining izohli lug'ati" da keltirilgan izohiga e'tibor qarataylik:

Mehmon [forscha-mehmon, tashrif buyuruvchi.

1. To'y, ziyofat va shu kabi munosabati bilan yo'qlab kelgan(borgan) shaxs. ...*Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat*

bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan to'la-to'kis davom etar edi. A.Qodiriy, "O'tgan kunlar".

2. Majlis, yig'ilish, kengash va shu kabilarga chetdan chaqirilgan shaxs.....

3. Chetdan tashrif buyurgan, vaqtinchalik qo'ngan shaxs. *Eshikni ochishi bilan:- Otdan qo'ningiz mehmon, -dedi (usta Olim) otni Otabek qo'lidan olgach.* A.Qodiriy, "O'tgan kunlar".

Yangi mehmon Yangi tug'ilgan yoki tug'iladigan chaqaloq. Mumtoz "yangi mehmon" kutayotgan sevimli rafiqasi Amalni ham unutib qo'yardi. S.Azimova, "O, Laylo"⁶⁵. O'zbek milliy madaniyatida "Mehmon-atoyi Xudo" degan gap bor. Uyimizga tashrif buyuruvchilarni mehmon leksemasi bilan ataymiz. G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida asar qahramoninig yaylovdagi o'tovda "qo'noq" bo'lganligi aytiladi. "Qo'noq" va "mehmon" birliklari bir-biridan bir qadar farqlanadi. Mehmon kelganida unga, albatta, dasturxon yoziladi, "qo'noq"qa esa bunday iltifotning ko'rsatilishi mezbonning himmatiga bog'liq bo'ladi. O'rni kelib, mehmon uyda qolishi mumkin, shu paytda "mehmon" va "qo'noq" birliklari birlashadi. Masalaning yana bir diqqat qaratadigan tomoni shundaki, odatda, uyimizga ota-onamiz kelishsa, milliy-madaniy qadriyatlarimiz nuqtayi nazaridan biz ularni "mehmon" deb atay olmaymiz. Lekin ular "mezbon" ham emas. Bu insonlarni kim deb atash "bo'shliq"ni hosil qiladi. Uyga tashrif buyuruvchilarni mehmon deb atasak, uyimizga kelmaydigan kishilarni nomlash ham ochiqligicha qoladi.

Biz mazkur tadqiqotimizda badiiy matnni tahlil qilar ekanmiz, V.Izerning bu boradagi fikrlarini keltirishga qaror qidik. Uning fikricha, semantik, ya'ni ma'noviy kengayishga sabab bo'luvchi bunday birliklarni shaxslar o'rtasidagi muloqot,

⁶⁵Ўзбек тилининг изохли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. II жилд. - Б. 586.

muomala, munosabatga lakunalar ta'sir o'tkazmay qolmaydi⁶⁶. Olimning qarashini muloqot jarayoniga tatbiq qilish uchun, avvalo, mazkur fikrning mohiyatini tushunish talab etiladi. Yorida badiiy asardagi matn orqali fikrning mohiyatini dalillash mumkin. Farzand uylanganidan yoki turmushga chiqqanidan so'ng alohida yashay boshlasa, uning uyiga ota-onasi yoki aka-ukalari tashrif buyurishganda, endi u avvalgi kabi qabul qila olmaydi. Qarindoshlik munosabatlariga qo'shimcha ijtimoiy-maishiy mazmunga ega bo'lgan yana bir boshqa tushuncha paydo bo'ladi. Mana shu bo'shliq umumiy muloqot vaziyatini bir qadar qiyinlashtiradi.

Lingvistik lakunalar tadqiqiga alohida e'tibor qaratgan V.Gak "*lakunalarning fenomeni mavjud*" deb hisoblaydi va "*ana shu tizim doirasida bo'shliqlar mavjudligini, mana shu tizim ichidagi bo'shliqlarni atovchi talab qilingan birliklarning yo'qligi*"ni lakuna sifatida ta'riflaydi. Mazkur qarashga atroflicha diqqat qaratilsa, lakunaning ko'p qirrali tomonlariga nisbatan aniqroq tasavvur hosil qilishimizga imkon yaratiladi. "Dasht-u dalalarda" hikoyasida Polvonning xotini Xadicha ketib qoladi, asar mutolaasi davomida bu holatni "*yo'lg'izlik*" deb atash mumkin, lekin shu leksik birlik umumiy vaziyatni atash uchun yetarli nomlovchi bo'la olmaydi. Chunki uning singlisi Adolat kelib turibdi, iti ham yerto'lada u bilan birga, mollarni boqishga ketganida Hasan hamrohlik qiladi, singlisining uyiga ham borib-kelib turibdi, ko'cha-ko'yda boshqa odamlar bilan suhbatlashadi. Demak, bu vaziyatni odiiygina "*yo'lg'izlik*" birligi bilan atash kifoya qilmaydi. Yuqorida keltirilgan fikrning ahamiyatli jihati ham aynan shunday o'rinlarni izohlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tushunchalar inson ongida mavjud bo'ladi, uning fenomeni bor, u haqidagi tasavvurimiz nuqsonsiz,

⁶⁶Iser W. Der Akt des Lesens: Theorie dsthetischer Wirkung. - Mñnhen, 1976. http://window.edu.ru/catalog/pdf2txt/217/71217/48543?p_page=6

lekin mana shu tushunchalarni atovchi birlikning yo'qligi lakana hodisasining mavjudligidan dalolat beradi.

Ozoq tilshunos olimi N.Jusipov lakunalarga tarjima qilish uchun eng ko'p to'siqlardan biri sifatida baholaydi va buning asosiy sababi sifatida ularning yetarli darajada o'rganilmaganligini ta'kidlaydi⁶⁷. Tarjimashunoslikdagi bunday muammoni hal qilishning birinchi va asosiy yo'li intralingval lakunalar tadqiqini aniq va samarali olib borishdan iboratdir. Milliy til doirasida etnografik, sotsiolingvistik va boshqa jihatlariga ko'ra tahlillarni amalga oshirish lozimligi ko'riladi.

Olima A.R.Shaymardanova so'z yasalishining leksik-semantik usuliga asoslanib, tilda yangi omonimlar hosil qilinishi, shu bilan ma'lum bir bo'shliqlar to'ldirishini qayd etadi. Buning uchun esa, polisemantik birliklar tarkibidagi ma'no zanjirining uzilishi zaruriyatini ham keltiradi. Masalan, "uloq"(jonivor)-uloq(sportning bir turi), bet(yuz)-bet(sahifa) kabi qator so'zlarni misol sifatida keltiradi⁶⁸. Keltirilgan mazkur fikr ahamiyatli, bu borada o'zbek tilshunosligida qator ishlar amalga oshirilgan, ammo aynan lingvokulturologik ahamiyati haqida gapirilmagan. Olimaning qarashlari shu jihatdan diqqatga sazovor. Lekin masalaning yana boshqa bir jihati borki, ko'p ma'noli so'zlar orasidagi ma'no zanjirining butunlay uzilishi natijasida emas, balki mazmun saqlanib qolgan holatlarda ham shu bo'shliqlar polisemantiklik asosida ham to'ldirib boriladi. Masalan, *U xotinini umrida bir marta — chimildiqda amallab ko'tarib olgan, xolos. Polvon chimildiq ortidan mast odamday gandraklab chiqdi, chiqdi-yu, ko'chada sho'rquduqlik yigitlar bilan o'ralashib turgan jo'ralarini ko'rdi. "Dasht-u dalalarda"*.

⁶⁷Жүсіпов Н.Қ. С.Торайғыров атындағы ПМУ, Павлодар қ. Исполова А.А.магистрант. Аудармада «лакуна» сөздердің көрінісі // <https://ulagat.com/2020/12/03/>
⁶⁸Shaymardanova A.R. Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati.// International conference of education, research and innovation. - Samara, Russian. 2023.- B.40.

Chimildiq bilan bog'liq jarayon bizda alohida urf-odat sifatida qaraladi. U yerda qo'shimcha boshqa marosimlar ham tashkillashtirilishi ham mumkin. Jumladan, "oyoqbosdi", "Alpomish" dostonida keltirilgani kabi "sochsiypatar", "qo'lushlata" kabi. Demak, shu jarayon chimildiq bilan aloqadorlikda kechgani uchun ham metonimik ko'chim asosida nom ko'chishi yuz beradi. Dastlabki gapda aynan shu urf-odatning bir qismi sanalgan "chimildiqda ko'tarib olmoq" birikmasida "joy" ma'nosini, keyingi gapda esa kundalik detalning o'z ma'nosi ifodalangan.

Demak, lakunalar turli ko'rinishlarga ega bo'lib, bunda Y.Stepanov nutqiy me'yor sifatida maxsus, o'ziga xos me'yoriga ega bo'lmagan holatlarni "me'yorning yetishmasligi" tarzida ta'riflaydi⁶⁹. Lakunalarni izohlash masalasida mazkur fikr ham ma'lum nutqiy vaziyatlar uchun asosli.

Shogirdi Chorshanbiyevga aytib yozdirishga or qildi, negaki bu yigitni ocher-pocherk kabi qoraroq mehnat uchun yonida asrar edi. ("Lolazor", 10-bet).

"Qora mehnat" tushunchasi tilimiz doirasida juda keng qo'llanadi, ammo "oq mehnat" yo'q. Mana shunday me'yoriy buzilishlar yuzaga keladi va uning qarama-qarshi tomonidagi tushunchani nomlovchi birlik topilmaydi.

Umuman olganda, lakuna hodisasini o'ganish ancha qiyin masala, agar belgilangan ikki til yoki ayni bir asarning tarjimasi nuqtayi nazaridan yondashilsa, bu jarayonni amalga oshirish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi, biroq bir necha til nuqtayi nazardan ish olib borilsa, juda yirik muammoga aylanadi.

Intralingval lakunalarni aniqlashda badiiy asar nuqtayi nazaridan yondashish juda yaxshi samara beradi. Tilning ichki lakunalarini aniqlash mazkur tilga xos madaniyat bilan birga undagi leksik birliklarni saqlab qolish imkonini beradi. Bu borada

⁶⁹ Степанов Ю.С. Основы языкознания. - Л.: Просвещение, 1966. - С. 98.

G.Bikoyaning: "...tilning ichki leksikasidagi eng keng tarqalgan tushunchalarni bir necha so'zlar yig'indisida obyektivlashtirish, semantik mazmunini ifodalab, tushuntirish imkoni bo'lsa, bu jarayon semantik bazani ertami-kechmi "o'chib ketishdan, tushirib qoldirib, sakrash"lardan saqlaydi⁷⁰", -degan fikri tadqiqotning naqadar muhimligini yana bir karra isbotlaydi.

Ertalab qo'lga gavron olib cho'lga chiqib ketgani bilan to shomgacha podaga andarmon bo'lib yuradi. "Dasht-u dalalarda".

Badiiy asar mutolaasi davomida qo'llanilgan "gavron" birligi bir qadar lakunalik hodisasi jihatidan tahlilni talab qiladi. Qoramolni boqish, o'tlatish jarayonida ularni nazorat qilish uchun ishlatiladiga ashyoni "gavron" nomi bilan ataymiz. Ammo qo'y, echki, ot, tuya kabilar bilan bog'liq jarayonlarda ularni nazorat qiluvchi ashyoni oddiygina "tayoq" deb atay qolamiz. Har biri uchun alohida nomi yo'q. "Tayoq" so'zning lug'atlarda izohlangan ma'nolariga e'tibor qaratisa, biron - bir hayvonga daxldor emasligi anglashiladi. "Daraxt shoxining unchalik yog'on bo'lmagan qismidan kesib olingan kaltak"ni anglatadigan mazkur birlik qadimgi turkiy tilda "narsani biror holatda tutib turish uchun unga boshqa narasani tira" ma'nosini anglatgan taya fe'liga -q qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. Asli "tayoq, suyanchiq" so'zlari bir ma'noni anglatgan⁷¹. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "daraxt shoxining urish, haydash va shu kabilar uchun ishlatiladigan bo'lagi, undan maxsus ishlangan bo'lagi; kaltak", "shunday yog'och(tayoq)dan tekkan zarb", "hassa vazifasidagi yog'och; hassa" kabi ma'nolarni ifodalashi keltirilgan⁷². "Gavron" birligi orqali lakunarlik hodisasi tahlil qilinganda, unga yondosh boshqa leksik birliklarning ma'nolarini aniqlash, yaqin ma'nodagi birliklarning lug'atlardagi izohlariga mikroskopik nazar tashlash zarurati tug'iladi. "Kaltak"

⁷⁰Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. - Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. - С. 45.

⁷¹Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Т.: Университет, 2009. 1 жилд. - Б. 317.

⁷²Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. III жилд. - Б.

birligi ham tayoq va "gavron" birliklariga sinonim sifataida lug'atlarda aks etgan. Aslida shunday yo'l tutishga zarurat bormi? Buni izohlar orqali aniqlashtirish imkoniyatiga egamiz. "Kalta" forcha "dumi iqsqa, dumsiz" degan ma'nolarni anglatib, uzunlik o'lchovi kichik, qisqa; uzunligi nisbatan kam yetarli emas, qisqa kabi ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. "Kaltak" birligi ham shu tilga mansub bo'lib, "daraxt, buta kabilardan barg-butoqsiz uzun shoxi(singan yoki qirqib olingan, ho'l yoki quruq)", "urish, savash, haydash uchun ishlatiladigan maxsus yog'och, gavron, tayoq", "to'qmoq, cho'qmor, gurzi" kabilarni ifodalash uchun qo'llaniladi ⁷³ (O'TIL, 301,302). Shu kabi izohlanishlarning keltirilishi o'zini oqlaydimi, shu kabi holat;ar tilimizdagi leksik birliklar ma'nosini to'g'ri anglash imkonini bera oladimi? Lakunalarni tadqiq qilish jarayonida mana shunday savollar yuzaga keladi, har bir tushunchaning tadqiqi alohida yondashuvni taqozo etishi oydinlashadi.

"Pochtachining jahli chiqdi. Palag'da tovushda qurtdakkina so'kinib, irg'ay xalacho'p bilan eshagining sag'risiga tushirdi(Darvoza yonidagi it)". Matndagi "qurtakkina" va "xalacho'p" leksik birliklarida boshqa teskari yoki yondosh tushunchalarda bo'shliq borligi kuzatiladi. Odatda, pulga nisbatan holatlarda "qurttak" birligi ishlatiladi va bu holat "naqd, aniq" miqdorni ifodalash vazifasini o'taydi. Demak, pochtachining ham so'kislari aniq, hech qanday shubhasiz bor odamga qaratilganlik kabi semalarni ifodalaydi. Eshakni boshqarish uchun xalacho'p ishlatiladi, xalacho'pning aynan eshak uchun mo'ljallanganligi aniq, qamchini esa, ot, tuya kabilarni boshqarish uchun ham ishlatish mumkin, qamchi eshak yoki xachirga nisbatan ham ishlatiladi, ular uchun mo'ljallangan aniq ajralib turuvchi birlik mavjud emas.

Ma'lum bir tushunchalarning nima ekanligini anglatish uchun sintaktik birliklardan foydalanar ekanmiz, ular ko'nikma hosil qilingan tabiiy leksik, frazeologik birliklar, ko'chim, ramzlar, o'xshatishlar bilan berilishi mumkin, bu holatni G.Bikova "tilning jonli va hayotiy holatdagi kabi" saqlanib qolishi deb izohlaydi⁷⁴.

Bechora it ochiqqa o'rgangan edi, yerto'laga ko'nikolmadi, uch-to'rt kecha uvlab chiqdi, lekin — yo'q, keyin-keyin egasining holiga tushundi chog'i, poygakka to'shalgan poxol ustida indamay yotadigan bo'ldi. "Dasht-u dalalarda".

"Ochiq" deyilganda eshik yoki deraza, yoki xuddi shunga o'xshagan makonning kirish va chiqish mumkin bo'lgan qismi tushuniladi. Tevarak-atrofi ma'lum bir to'siqlarga ega bo'lmagan makon ham, bog'lanmagan hayvonga nisbatan ham xuddi shu leksik birlikni ishlatish mumkin. Polvonning iti bog'lanmaganmi yoki uy ichida yashamaganmi, doim tashqarida yashaganmi, ayni shu vaziyatlarga nisbatan qo'llaniluvchi birlik sifatida polisemantik birlikning ishlatilishi tushunchalarning atalishi zaxirasini to'ldiradi. Har qanday polisemantik birlik lakunalarni to'ldiradi degan fikrdan yiroqmiz. Lakunalar leksik qatlamlardagi bo'shliqlar bo'lsa, ularni atovchi birliklar mavjud bo'lmasa, ko'p ma'noli birliklar mazkur o'rinlarni to'ldirish vazifasini o'tay oladi. Masalan, *Polvonning yomon ajinasi tutdi, lekin urishgani jo'ralari qo'yishmadi, neki har bu zarb bo'lsa, o'zlarini balogardon qilishdi... . Dasht-u dalalarda.*

Polvonning g'azablanganligini "ajinasi tutdi" birligi bilan ifodalaydi, obrazning holatini "g'azablandi" yoki "jahli chiqdi" kabilalar bilan berish mumkin, bo'shliq yo'q, faqatgina qo'shimcha uslubiy baho, emotsionallik, ekspressivlikni berish uchungina mavjud birlik o'rnida boshqa biri qo'llanilishi mumkin.

Ular tog' etaklariga borishdi. "Darvoza yonidagi it".

⁷³ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. II жилд. - Б.301-

⁷⁴O'sha manba: - Б. 46.

Tog'ning ma'lum qismini atovchisi mavjud emas. Insonning a'zolari yoki unga tegishli boshqa ashyolarning qismlari bilan o'xshashlik va aloqadorlikka asoslanish nuqtayi nazaridan nomlanish vujudga keltiriladi. Bunday ko'chimlar tilimizda talaygina. Yana bir e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihati mavjudki, polisemantiklik asosida nomlanishlarning sodir etilishining lingvomadaniy jihatlarini qaysi jihatlariga qarab olish lozimligini belgilab olish kerak bo'ladi. Lakunarlikni bartaraf etishga xizmat qiluvchi bu hodisalarning lingvomadaniy belgisini nimalar bilan belgilanishini bir qadar mulohaza qilish mumkin. Ko'chma ma'nolilik hodisasining turkiy tillar tabiatiga xosligi uning birinchi tomoni sanalsa, ma'lim milliy-madaniy, etnografik birliklar bilan bu hodisaning amalga oshirilishi uning ikkinchi jihatidir.

O'shandan beri Adolat qorasini ko'rsatmaydi. "Dasht-u dalalarda".

Xalqimizda "qorasini ko'rsatmaslik" iborasi mavjud, nima uchun boshqa ranglar ishlatilmaydi? Miliy va diniy tasavvurlarimiz zamirida boshqa bir ranglarni keltirish ham mumkin-ku?! Shunday semik maydon mavjudki, uni sinxron tahlil qilish bilan mohiyat oydinlashmaydi, uning boshqa sinxronimik nuqtayi nazardan shu maydonda turuvchi leksemalar bilan munosabati bo'sh qoladi. Buning asl mohiyatini anglash uchun diaxron yondashuv taqozo qiladi.

D.Xudoyberganovaning ta'kidlashicha, lakunalar muomala-muloqot jarayonida ma'lum bir madaniyat vakillarining boshqa biriga xos jiyatlarini qisman yoki umuman tushunmasligidan kelib chiqadigan hodisa hisoblanadi⁷⁵. Olimaning mazkur fikri intralingval lakunalarni aniqlash uchun muhimdir. Har bir geografik hududdagi kishilik jamiyatining o'ziga xos hayot tarzi, madaniyati, tafakkuri, uni o'rab turgan olamga nisbatan

⁷⁵ Худойбергано́ва Д. Лингвокултурология терминларининг қисқача изоҳли лугати. –Тошкент: Турон замин эсе, 2015.–Б. 25-26.

munosabati mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra ular qo'llovchi birliklarda ham farq yuzaga keladi. "Bir toychoqning xuni" hikoyasida "suv elash" odati berilgan, unga ko'ra it, boshqa jonzot yoki odamning quturgan yoki quturmaganligini aniqlash uchun amalga oshiriladi, adib ayni shu odatni asarida keltiradi. Mazkur odatni boshqa joyda aytishsa yoki qo'llashsa, bu nima ekanligini bir millat vakillarining turlicha joyida yashovchilariga tushuntirilmasa, angolmaydi, so'z birikmasi tarkibidagi har ikki birlik millat vakillariga birdek tushunarli bo'lsa ham. Tushunchaning mavjud emasligi mavjud leksik birlikning ham tushunilmasligiga olib keladi yoki qisman tushuniladi. Xalq nigohining nimaga va qanday yo'naltirilganligiga qarab olamni tasavvur qilish, ko'rish, eshitish va nomlash milliy farqlarni keltirib chiqarishini, bunday vaziyatlarda lakunalar haqida fikr yuritish lozim emasligi haqidagi qarashni D.Rustamov ilgari suradi va ma'lum bir tillardagi birliklar boshqa tillarda mutlaqo boshqa semalarni ifodalashi mumkinligi, shu bilan bo'sh tushunchalarning o'rni ham to'ldirilishi mumkinligini qayd etadi⁷⁶. Olimning mazkur fikri har qanday soha kishilarining diqqatini jalb qiladi. Bir til oilasiga kiruvchi o'zbek va turk tillarida bir qator leksik birliklar mavjudki, ikki tilda mutlaqo boshqa-boshqa ma'nolarni ifodalashgan xizmat qiladi. Chunonchi, o'zbek tilida "cho'p" leksemasi daraxtning yoki yog'ochning kichik parchasini, turk tilida esa "axlat"ni bildiradi. Azaldan bizda xalq tomoshalari o'tkazilgan va ular turlicha obrazlarni gavdalantirishgan, ularni turli nomlar bilan atashgan, ayni bir obrazni yaratuvchi bir shaxs va teatr tushunchalari bo'lmaganligi sababli ularni atovchi maxsus nomlar ham bo'lmagan, ayni obrazni real, alohida tasvirlash psixologiyasi kam shakllangan. Teatr tushunchasi kirib kelishi bilan "aktyor" leksemasi ham kirib keldi. Mazkur tushuncha xalqimiz orasida paydo bo'lganidan so'ng jadidlar ma'naviy-

⁷⁶ Рустамов Д.А. Лексемалар миллий-маданий хосланган семемасининг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дисс. автореф.- Фаргона, 2018. – Б. 10.

mafkuraviy qadriyati, asrlar davomida iste'molda bo'lgan birliklarini ishlatishga harakatlar boshlangan, shu mavjud tushuncha milliy – madaniy leksema bilan to'ldirishga harakat qilingan "aktyor" leksemasini "ashxos" birligi bilan almashtirishga harakat qilishgan. Buni XX asr jadid dramalaridagi boshlang'ich qismida ko'rish mumkin. Turk tilida milliylashtirishga harakat sifatida bu birlik "o'yunju" (c turk alifbosida j ni ifodalagani uchun shunday berishga qaror qildik) leksemasiga almashtirilgan. Millat vakillari yangi tushunchalar kirib kelishi bilan, avvalo, ularni o'zlarida mavjud birliklar bilan atashga harakat qilishadi. Futbolchi, voleybolchi, basketbolchilarni ham "o'yinchi" leksemasi bilan atayverishadi. Lingvomadaniy birlik xalq madaniyati bilan aloqadorlikda vaziyatga aloqador bo'lganligi uchun ham ularning iste'molga kiritilishida ma'lum bir tafovutlar yuzaga chiqadi. Ammo til egalari buni aniq qanday ma'noda ishlatilayotganligini vaziyat taqozosiga ko'ra tushunishadi. Agar maxsus sport turi bilan shug'ullanuvchi shaxsdan uning kasbi haqida so'ralganda, u "futbolchiman", "voleybolchiman", "basketbolchiman" deb javob beradi, lekin hech qachon "o'yinchiman" demaydi. Musobaqa o'tkazilayotgan jarayonda "o'yinchilarimiz maydonga tushdi" yoki "to'p shu raqamli o'yinchida" kabilarni qo'ilydi yoki "Men Surxonda beshinchi raqamdagi o'yinchiman", "yettinchi raqamda o'ynayman" deydi. Qiziq tomoni shundaki, yakka kurash bilan shug'ullanuvchi biror kishini yoki kattalarga mo'ljallangan biror xalq musobaqasi qatnashchilarini ham "o'yinchi" deb atashmaydi. To'liq jonli mavjudotlar bilan amalga oshiriladigan o'yin musobaqalari qatnashchilari ham bu nom bilan atalmaydi. Hozirgi o'zbek tilida raqs tushuvchilar "raqqosa", "o'yinchi" leksemalari bilan ataladi. Tildagi bo'shliqlarni juda ko'p deb tasavvur qilib borish milliy tilimiz haqidagi qarashlarimizni bir qadar salbiy tomonga og'ishiga olib keladi. Mahmud Koshg'ariy o'z devonida leksik birliklarni ikkiga bo'ladi, xolos: o'z va o'zlashma qatlam. Uning ichki

tasniflarini keltirib ham o'tirmaydi, bunday qarash ma'lum til egalarning milliy tilga munosabatini butunlay yangi bosqichga olib chiqadi. Biz ma'lum bir tilning xususiyatlari haqida gapirganimizda, har bir tilning o'ziga xos leksik birliklarini keltirishni ma'qul ko'ramiz va shu bilan tilimiz imkoniyatlarining keng yoki tor ekanligi haqida mulohazalar yuritimiz. Hech bir til yo'qki, boshqa til birliklaridan xoli bo'lsa. Muhim jihati shuki, tilning yashovchanligini, uning imkoniyatlarini oshiruvchi sifatida leksik birliklarni inkor qilmagan holda turkiy tillarga xos o'zbek tilida ham uning grammatik xususiyati yetakchi ahamiyat kasb etadi. Grammatik birliklar vositasida ma'lum bir bo'shliqlar to'ldiriladi, bu esa milliy tilimizning intralingval imkoniyatlari asosida yuzaga chiqariladi.

Jonuzoqning eshagi ko'p karvonchi eshak edi. "Bir toychoqning xuni".

Turkiy xalqlarda karvonning yetakchisi eng yirik, baquvvat nortuya bo'lgan. "Nor" so'zining xalqimiz orasida turli ma'nolari uchraydi, birinchidan, "erkak tuya", ikkinchidan, "ko'zga ko'rinadigan, ajralib turuvchi" kabi semalarni ifodalaydi. Tuya bilan bog'liq lavhalar bir qator asarlarda uchraydi. Chunonchi, Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", "Chingizxonning oq buluti" kabi asarlarda Qoranor tuya va nortuya kabilar uchraydi. Tohir Malikning "Shaytanat" romanida bir boy kishi o'limidan oldin barcha uydagilari, uning xizmatini qilgan jonzotlardan ham rozirizolik so'raganida karvon boshlovchi nortuya shaharga kirayotganlarida uni eshakning dumiga bog'lab olib kirgani va bu bilan uning qadr-qimmatini yerga urganigini aytib zorlanadi. Demak, karvonni yetaklovchi tuyaga nisbatan "nortuya" leksemasi qo'llanilar ekan. Murod Muhammad Do'st Jonuzoq arabning karvoniga eshakni yo'lboshlovchi qilib belgilaganligining ma'lum sabablari mavjud, albatta. Shu yetakchi eshakni qanday nomlash mumkin?! Ijodkor milliy tilimizning o'z ichki imkoniyatlari asosida

"karvonchi" leksemani hosil qiladi va shu bo'shliq to'ldiriladi. Demak, lakunalarni ifodalash uchun o'z ichki imkoniyatlarimizdan foydalanish samarali natija beradi, chunki ishlatilayotgan birlik yangi kabi ko'rinsa-da, uning morfemik tarkibidagi leksik va grammatik birliklar til egalari uchun tushunarli bo'lganligi sababli ortiqcha murakkabliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmaydi.

Tilshunos Sh.R.Usmanova "Madaniy makon va uni tarkib toptiruvchi atrof-muhit, turmush tarzi, bilimlar zaxirasi, madaniy fond kabi unsurlar boshqa madaniyat jamoasining vakili uchun lakuna hosil qiluvchilar sanaladi⁷⁷", degan fikrni ilgari suradi. Umuman, badiiy matn tahlil qilinadimi, ma'lum til alohida tadqiq qilinadimi, mazkur fikrni tatbiq etish mumkin, ammo bu tillararo qiyoslanganda to'liq mos keladi. Ichki holatda esa madaniy guruhlanishlar zamirida amal qiladi. Olima lakunalarning lingvomadaniy voqelanishiga e'tibor berar ekan, subyektiv, ularni milliy-psixologik, kommunikativ, matniy, madaniy makondagi, paralingvistik (noverbal)⁷⁸ kabi turlarga ajratadi.

N.Qurbannazarova "etnografizmlar singari ma'lum bir xalqning o'ziga xos milliy madaniyatiga oid belgilarini ifoda etuvchi maxsus so'zlar boshqa tillar uchun lakuna hisoblanadi⁷⁹" deb ta'kidlaydi. Ushbu qarashga uyg'un holda, lakunani dialektlar doirasida tekshirgan F.Musayeva uning nafaqat turli til va madaniyat vakillari, balki bir tilda muloqot qiluvchilarning ham bir-birini tushunishida ma'lum muammolarni yuzaga keltirishi haqida mulohaza qiladi⁸⁰. Bu o'rinda tadqiqotchi haq. Chunki so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotida noaniq "bo'shliq" tushunchalarning bo'lishi suhbatning cho'zilishiga yoki to'liqsiz va xatoli kechishiga olib keladi.

⁷⁷ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. - Toshkent, 2019. - B. 134.

⁷⁸ Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari (darslik). - Toshkent: ToShDIII, 2017. - B. 148-150.

⁷⁹ Qurbannazarova N.Sh. Suxxonlar vohasi tui marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi: Fil.fan.buyicha fals.dok. (PhD) diss. - Termiz, 2021. - B. 38.

⁸⁰ Musaeva F. Lakuna hodisasi va uni bartaraf etishda sheva leksikasining ahamiyati. // Uzbek tili va adabiyati. - Toshkent, 2020. № 3. - B. 96.

N.Shayxislamov esa ekvivalentsizlik lakuna va realiya hodisalarini umumlashtiruvchi giperonim tushuncha⁸¹ ekanligini ta'kidlaydi. Realiyadan farqli ravishda lakunaning anglanilishi va qo'llanilishi mumkin bo'lgan sememaning leksemasizligi tarzida tushunilishi bu boradagi izlanishlarda ilmiy mo'ljalni to'g'ri olinishini ta'minlaydi⁸².

A.Hasanov ta'kidlaganidek, "Bir tilga xos lakuna, bu til egalari ongida mavjud tushunchalarning tilda o'z nomiga ega emasligidir. Uning mavjudligi tabiiy: til har qancha taraqqiy etganda ham borliqdagi barcha tushunchalarni ifodalashda muayyan kamchiliklardan xoli bo'lmaydi. Zero, inson tafakkuri chegara bilmas imkoniyatlarga ega. Shu bois uning bag'ridagi kognitiv jarayonlarning hammasi ham lisoniy jihatdan voqelanmasligi aniq"⁸³.

A.M.Hasanovning fikricha, adabiy tilda o'z nomiga ega bo'lgan, biroq muayyan nutq uslubi uchun lakuna birlik hisoblanuvchi, ya'ni tegishli uslubiy xoslangan so'z bilan nomlanmagan tushuncha ham unga bo'lgan kuchli kommunikativ-informativ ehtiyoj sabab lakuna sifatida baholanishi mumkin. Bu kabi holatlarda tegishli tushunchani nomlovchi shevalardagi uslubiy, sinonimik variant(lar)ni adabiy tilga qabul qilish zarurati paydo bo'ladi⁸⁴.

Ishimizda biz ham lakuna terminini ishlatishni o'rinli deb hisoblab, uni konnotatsiyadan xoli bo'lgan qisqa so'z ekanligini e'tirof etamiz. O'z navbatida, uning o'rniga muqobilsiz (ekvivalentsiz) terminini qo'llashni o'rinsiz deb hisoblaymiz. O'zbek tilidagi (inralingval) lakunalarni tushuncha mavjud bo'lgani holda, nomlovchi so'z yo'qligi va tushuncha ham, nomlovchi so'z

⁸¹ Shayxislamov N. Tilda lakuna muammosi va uning echimi. Scientific Progress. - Uzbekistan, 2021. - P.1287

⁸² Hasanov A. Tillar kichida lakuna // Tashqi sinfiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta'limi va tarjima masalalari. - Toshkent, 2020. - B.222.

⁸³ Hasanov A. A'zam O'ktam she'rlari leksikasida intralakuinalar // A'zam O'ktam ijodi badiiyati. - Andijon. 2020. - B.552.

⁸⁴ Hasanov A.M. Uzbek adabiy tilidagi leksik lakunalarning dialektal asoslari. Filol.fan. buyicha falsafa d.r.n. (PhD) diss. avtorref. - Toshkent, 2021. - B.18.

“karvonchi” leksemani hosil qiladi va shu bo’shliq to’ldiriladi. Demak, lakunalarni ifodalash uchun o’z ichki imkoniyatlarimizdan foydalanish samarali natija beradi, chunki ishlatilayotgan birlik yangi kabi ko’rinsa-da, uning morfemik tarkibidagi leksik va grammatik birliklar til egalari uchun tushunarli bo’lganligi sababli ortiqcha murakkabliklarning kelib chiqishiga sabab bo’lmaydi.

Tilshunos Sh.R.Usmanova “Madaniy makon va uni tarkib toptiruvchi atrof-muhit, turmush tarzi, bilimlar zaxirasi, madaniy fond kabi unsurlar boshqa madaniyat jamoasining vakili uchun lakuna hosil qiluvchilar sanaladi⁷⁷”, degan fikrni ilgari suradi. Umuman, badiiy matn tahlil qilinadimi, ma’lum til alohida tadqiq qilinadimi, mazkur fikrni tatbiq etish mumkin, ammo bu tillararo qiyoslanganda to’liq mos keladi. Ichki holatda esa madaniy guruhlanishlar zamirida amal qiladi. Olima lakunalarning lingvomadaniy voqelanishiga e’tibor berar ekan, subyektiv, ularni milliy-psixologik, kommunikativ, matniy, madaniy makondagi, paralingvistik (noverbal)⁷⁸ kabi turlarga ajratadi.

N.Qurbonnazarova “etnografizmlar singari ma’lum bir xalqning o’ziga xos milliy madaniyatiga oid belgilarini ifoda etuvchi maxsus so’zlar boshqa tillar uchun lakuna hisoblanadi⁷⁹” deb ta’kidlaydi. Ushbu qarashga uyg’un holda, lakunani dialektlar doirasida tekshirgan F.Musayeva uning nafaqat turli til va madaniyat vakillari, balki bir tilda muloqot qiluvchilarning ham bir-birini tushunishida ma’lum muammolarni yuzaga keltirishi haqida mulohaza qiladi⁸⁰. Bu o’rinda tadqiqotchi haq. Chunki so’zlovchi va tinglovchi o’rtasidagi muloqotida noaniq “bo’shliq” tushunchalarning bo’lishi suhbatning cho’zilishiga yoki to’liqsiz va xatoli kechishiga olib keladi.

⁷⁷ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 134.

⁷⁸ Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari (darslik). – Toshkent: ToShDShi, 2017. – B. 148-150.

⁷⁹ Курбаназарова Н.Ш. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи: Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Термиз, 2021. – Б. 38.

⁸⁰ Мусаева Ф. Лакуна ҳодисаси ва уни бартараф этишда шева лексикасининг аҳамияти. // Ўзбек тили ва адабиети. – Тошкент, 2020. № 3. – Б. 96.

N.Shayxislamov esa ekvivalentsizlik lakuna va realiya hodisalarini umumlashtiruvchi giperonim tushuncha⁸¹ ekanligini ta’kidlaydi. Realiyadan farqli ravishda lakunaning anglanilishi va qo’llanilishi mumkin bo’lgan sememaning leksemasizligi tarzida tushunilishi bu boradagi izlanishlarda ilmiy mo’ljalni to’g’ri olinishini ta’minlaydi⁸².

A.Hasanov ta’kidlaganidek, “Bir tilga xos lakuna, bu til egalari ongida mavjud tushunchalarning tilda o’z nomiga ega emasligidir. Uning mavjudligi tabiiy: til har qancha taraqqiy etganda ham borliqdagi barcha tushunchalarni ifodalashda muayyan kamchiliklardan xoli bo’lmaydi. Zero, inson tafakkuri chegara bilmas imkoniyatlarga ega. Shu bois uning bag’ridagi kognitiv jarayonlarning hammasi ham lisoniy jihatdan voqelanmasligi aniq⁸³”.

A.M.Hasanovning fikricha, adabiy tilda o’z nomiga ega bo’lgan, biroq muayyan nutq uslubi uchun lakuna birlik hisoblanuvchi, ya’ni tegishli uslubiy xoslangan so’z bilan nomlanmagan tushuncha ham unga bo’lgan kuchli kommunikativ-informativ ehtiyoj sabab lakuna sifatida baholanishi mumkin. Bu kabi holatlarda tegishli tushunchani nomlovchi shevalardagi uslubiy, sinonimik variant(lar)ni adabiy tilga qabul qilish zarurati paydo bo’ladi⁸⁴.

Ishimizda biz ham lakuna terminini ishlatishni o’rinli deb hisoblab, uni konnotatsiyadan xoli bo’lgan qisqa so’z ekanligini e’tirof etamiz. O’z navbatida, uning o’rniga muqobilsiz (ekvivalentsiz) terminini qo’llashni o’rinsiz deb hisoblaymiz. O’zbek tilidagi (inralingval) lakunalarni tushuncha mavjud bo’lgani holda, nomlovchi so’z yo’qligi va tushuncha ham, nomlovchi so’z

⁸¹ Shayxislamov N. Tilda lakuna muammosi va uning echimi. Scientific Progress. – Uzbekistan, 2021. – P.1287

⁸² Hasanov A. Tillar kitesida lakuna // Tashqi siniesiy va tashqi iktisodiy aloqalar uchun kadrlar tayёрlashda til ta’limi va tarjima masalalari. – Toshkent, 2020. – B.222.

⁸³ Hasanov A. A’zam O’ktam she’rlari leksikasida intralakuinalar // A’zam O’ktam ijodi badiiyati. – Andijon. 2020. – B.552.

⁸⁴ Hasanov A.M. Ўзбек адабий тилидаги лексик лакуналарининг диалектал асослари. Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б.18.

XULOSA

1. Badiiy matn tarkibida realialarning bo'lishi kitobxonga qiziqish uyg'otadi, chunki bunday birliklar mavjud bo'lgan badiiy matnlar nafaqat ta'sirchanlikni oshiradi, balki boshqa xalqlar dunyoqarashiga kirib borish, tafakkurlar integratsiyasini ta'minlab berishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

2. Har qanday hodisani tahlil va tadqiq qilish qiyoslash asosida amalga oshirilishi hammamizga ma'lum. Shundan kelib chiqib, boshqa xalqlarning ayni o'z madaniyatiga xos leksik birliklarini aniqlash uchun ham o'z milliy-madaniy leksik qatlamimizga tegishli bo'lgan leksik birliklarni tadqiq qilish zarurati tug'iladi. Uning tashqi ko'rinishi, turmush tarzi, bosib o'tgan tarixiy davrni inobatga olish ehtiyoji mazkur birliklarni aniqlash imkoniyatini beradi.

3. Murod Muhammad Do'st asarlaridagi realialar dastlab har bir asar tarkibidan realialar aniqlab olindi, jumladan, "Lolazor" romanidan (ishton-ko'ylak, belbog', to'n...), "Galatepaga qaytish" qissasidan (belbog', salla, to'n...), "Dasht-u dalalarda" hikoyasidan (chakmon, ishton, so'm...), "Darvoza yonidagi it" asaridan (ishton, qiyiq, chakmon...), "Bir toychoqning xuni" asari tarkibidan (qiyiq, chopon, belbog'...) bir qator leksik birliklar ajratilib, so'ng lug'atlar asosida alohida-alohida tahlilga tortildi.

4. Tadqiqotda realialar alohida leksik-semantik: kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-ro'zg'or, musiqaga doir kabi qator guruhlariga ajratib tasniflandi hamda badiiy asar tarkibidan misollar bilan asoslab berildi.

5. Realialar xalq hayotining turli bo'g'inlarida milliy lingvomadaniyatning muhim va alohida jihatlarini o'zida aks ettira olishi bilan dunyo lingvokulturologiyasining ham ajralmas bir qismi hisoblanishi ayon bo'ldi.

6. Tadqiqot jarayonida lakunalar masalasi bo'yicha yetakchi olimlar – Yu. A. Sorokin, V. V. Krasnyx, S. G. Ter-Minasova, Sh. Safarov va boshqalarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Ularning fikricha, lakunalar til va madaniyat o'ziga xosligining muhim ko'rsatkichi bo'lib, ularni o'rganish milliy tafakkur va konseptual dunyoqarashni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu fikrlar asosida lakunalarni faqat lingvistik emas, balki madaniyatlararo fenomen sifatida baholash zarurligi asoslab berildi.

7. Tadqiqotda milliy tilning ichki imkoniyatlari, ya'ni sinonimiya, antonimiya, perifraz; metaforik ifoda va semantik kengayish kabi vositalar orqali intralingval lakunalarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatildi. Bu jarayon tildagi mavjud semantik resurslarni faollashtirish va kontekstual moslashtirish orqali amalga oshiriladi.

8. Badiiy asarlar tarkibida intralingval lakunalarning turli shakllari aniqlanib, ularning ma'no hosil qilishdagi roli tahlil qilindi. Masalan, O'zbek adabiyotidagi xalqona so'z birikmalari va metaforik ifodalar orqali "madaniy bo'shliqlar"ning to'ldirilishi misollar asosida dalillab berildi. Bu esa lakuna badiiy matnning estetik qatlamini boyituvchi vosita ekanligini ko'rsatdi.

9. Tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya va til o'qitish jarayonlarida qo'llanilishi mumkinligi ta'kidlandi. Ayniqsa, intralingval lakunalarni to'ldirish usullarini o'rgatish tarjimonlarning kompetensiyasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

10. Lakunalar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yorituvchi muhim hodisa bo'lib, ularni o'rganish milliy tafakkur, madaniy xotira va badiiy tafsir mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Intralingval lakunalarni milliy tilning ichki imkoniyatlari asosida bartaraf etish esa til taraqqiyotining tabiiy jarayoni sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR VA METADOLOGIK ANAMIYATGA MOLIK NASHRLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз! – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
2. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 507 б.
3. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 486 б.

MONOGRAFIYA, O'QUV QO'LLANMA, ILMIY MAQOLA, ILMIY TO'PLAMLAR

1. Ахманова О.С. (1957). Очерки по общей и русской лексикологии. М.: Учпедгиз.
2. Даниленко В. П. (1977). Русская терминология. – Опыт лингвистического описания. М. 7-б.
3. Лесных Е.В. (2001). Отражение истории народа в слове. Материалы по славянской письменности и культуре. Выпуск XIX. Липецк. 11-б.
4. Смирницкий А. И. (1956). Лексикология английского языка. М., 204 с. 61.
5. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М.: Международные отношения, 1986. В-416.
6. Файзуллаева Р. Йўллар йироқ, кўнгиллар яқин // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). – Т.: 1973. В-257.
7. Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. –Т.:“Ўқитувчи” нашриёти, 1983. В-101.
8. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Т.: Фан, 1981. – 116 б.
9. Аҳмедов А. Фурқат поэзиясининг лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1976. – 179.б.
10. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент, Фан, 1983.- 205.б.
11. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономические терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Тошкент, Ёзувчи, 1991.-195 б.
12. Saidov Y. Fitrat badiiy asarlari leksikasi: Филол. фан. номз. ... дисс.- Тошкент, -187 б.

13. Saidov Y. Jadid badiiy asarlari leksikasi: Filol. fan.doktori.disser. – Tashkent, 2018. –276 b.

14. Рустамова С. М. Кошғарий луғатининг лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. –183 б.

15. Абдушукуров Б. XI-XIV аср туркий манбалар тилидаги зоонимлар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф.– Тошкент, 1998. –64 б.

16. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2017.-214 б.

17. Холманова З. “Бобурнома”нинг лексик тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2009. –238 б.

18. Исоқова З. А Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. -65 б.

19. Ўразбоев А. Огаҳий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. д-ри (DSc). ... дисс. – Тошкент, 2018. –201 б.

20. Абдувалиева Д. А Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2017. –153 б.

21. Холмурадова М. “Кутадғу билиг” лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2018.-145 б.

22. Синдоров Л. “Ҳибат ул-ҳақойиқ” лексикаси : Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Жиззах, 2021.-149 б.

23. Ахатова М. Ўзбек тили тасаввуф лексикаси: Филол.фан. д-ри (DSc). ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021.-154 б.

24. Ziyotova S. “Mehrobdan chayon” asari leksikasi: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD)...diss. – Tashkent, 2022. -154 b.

25. Cho'liyev. R. Abdulla Qodiriy kichik prozaik asarlari leksikasi. Filol.fan.bo'y. fal.dok.(PhD) ,,diss. – Buxoro, 2024.-141 b.

26. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: 1971. –Б. 49; 106; 216; 222; 227. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. -Тошкент: Фан, 1981. –Б.19.

27. Muxammadiyev X.L. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi maishiy leksika. Fil. fan. bo'yicha fals. dok. diss. Jizzax:2022.

28. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari izohli lug'ati. – Tashkent, 1981, -Б. 20.

29. Убайдуллаев А. “Луғати туркий”да сўз маъноларининг изоҳланиши // Лингвист VII. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2016. –Б. 18.

30. Ergash Ochilov. Umrboqiy qo'shiqlar, 1-jild, Tashkent: „Sharq“ nashriyoti, 2013-yil — 456-bet.

31. Shaymardanova A.R. Madaniy lakunaning mulokotdagi ўрни (“Янга” тушунчаси мисолида)// UZA ILM-FAN// -Т.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR VA METADOLOGIK ANAMIYATGA MOLIK NASHRLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз! – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
2. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 507 б.
3. Мирзиёев Ш. Буюк келажгимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 486 б.

MONOGRAFIYA, O'QUV QO'LLANMA, ILMIY MAQOLA, ILMIY TO'PLAMLAR

1. Ахманова О.С. (1957). Очерки по общей и русской лексикологии. М.: Учпедгиз.
2. Даниленко В. П. (1977). Русская терминология. – Опыт лингвистического описания. М. 7-б.
3. Лесных Е.В. (2001). Отражение истории народа в слове. Материалы по славянской письменности и культуре. Выпуск XIX. Липецк. 11-б.
4. Смирницкий А. И. (1956). Лексикология английского языка. М., 204 с. 61.
5. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М.:Международные отношения, 1986. В-416.
6. Файзуллаева Р. Йўллар йироқ, кўнгиллар яқин // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). – Т.: 1973. В-257.
7. Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. –Т.:“Ўқитувчи” нашриёти,1983. В-101.
8. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Т.: Фан, 1981. – 116 б.
9. Аҳмедов А. Фурқат поэзиясининг лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1976. – 179.б.
10. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент, Фан, 1983.- 205.б.
11. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономические терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Тошкент, Ёзувчи, 1991.-195 б.
12. Saidov Y. Fitrat badiiy asarlari leksikasi: Филол. фан. номз. ... дисс.- Тошкент, -187 б.

13. Saidov Y. Jadid badiiy asarlari leksikasi: Filol. fan.doktori.disser. – Toshkent, 2018. –276 b.

14. Рустамова С. М. Кошғарий луғатининг лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. –183 б.

15. Абдушукуров Б. XI-XIV аср туркий манбалар тилидаги зоонимлар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф.– Тошкент, 1998. –64 б.

16. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2017.-214 б.

17. Холманова З. “Бобурнома”нинг лексик тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2009. –238 б.

18. Исоқова З. А Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. -65 б.

19. Ўразбоев А. Огаҳий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. д-ри (DSc). ... дисс. – Тошкент, 2018. –201 б.

20. Абдувалиева Д. А Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2017. –153 б.

21. Холмурадова М. “Кутадғу билиг” лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2018.-145 б.

22. Синдоров Л. “Ҳибат ул-ҳақойик” лексикаси : Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Жиззах, 2021.-149 б.

23. Ахатова М. Ўзбек тили тасаввуф лексикаси: Филол.фан. д-ри (DSc). ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021.-154 б.

24. Ziyotova S. “Mehrobdan chayon” asari leksikasi: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD)...diss. – Toshkent, 2022. -154 b.

25. Cho'liyev. R. Abdulla Qodiriy kichik prozaik asarlari leksikasi. Filol.fan.bo'y. fal.dok.(PhD) ...diss. – Buxoro, 2024.-141 b.

26. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: 1971. –Б. 49; 106; 216; 222; 227. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. –Тошкент: Фан, 1981. –Б.19.

27. Muxammadiyev X.L. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi maishiy leksika. Fil. fan. bo'yicha fals. dok. diss. Jizzax:2022.

28. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari izohli lug'ati. – Toshkent, 1981, -Б. 20.

29. Убайдуллаев А. “Луғати туркий”да сўз маъноларининг изоҳланиши // Лингвист VII. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2016. –Б. 18.

30. Ergash Ochilov. Umrboqiy qo'shiqlar, 1-jild, Toshkent: „Sharq“ nashriyoti, 2013-yil — 456-bet.

31. Shaymardanova A.R. Маданий лақунанинг мулоқотдаги ўрни (“Янга” тушунчаси мисолида)// UZA ILM-FAN// –Т.,

2021.<https://cdn.uza.uz/2021/12/22/11/27/yvI5Sm6BRgLnUMuC191oujvavOskgHd.pdf>.

32. Муравьев В.Л. Лексические лакуны(на материале лексики французского и русского языков). – Владимир, 1975. – С. 96;

33. Стернин И.А. Структурная семасиология и лингводидактика // Русское слово в лингвострановедческом аспекте: Межвузовский сб. научн. трудов. – Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1987. – С. 104 – 121.

34. Сорокин Ю.А., Морковина И.Ю. Текст и его национальная культурная специфика // Текст и перевод. – М.: Наука, 1988. – С.77.

35. Türker M. Rus dilbiliminde lakuna (lacuna) kavramına bir bakış. Erciyes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Yüksek Lisans Tezi, Mayıs 2014.–S.5.

36. Попова З.Д. Язык и национальная картина мира. – Воронеж, 2003.–С.21.

37. Попова З. Д. Язык и национальная картина мира. – Изд. 4-е, стер. – Москва; Берлин: Директ-Медиа, 2015. –С. 101.

38. Стернин И.А., Попова З.Д., Стернина М.А. Лакуна и концепты. /Лакуны в языке и речи: Сборник научных трудов/ – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. –С. 212.

39. Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: БГПУ, 2003. – С. 51.

40. Глазачев Н.Л. Ещё раз о типологии межъязыковых лакун (на материале китайского и русского языков). /Лакуны в языке и речи: Сборник научных трудов/ – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – С. 29.

41. Iser W. Der Akt des Lesens: Theorie dsthetischer Wirkung. – München, 1976. [http:// window .edu.ru/ catalog /pdf2txt/217/71217/48543?p_page=6](http://window.edu.ru/catalog/pdf2txt/217/71217/48543?p_page=6).

42. Жүсіпов Н.Қ. С.Торайғыров атындағы ПМУ, Павлодар қ. Исполова А.А. магистрант. Аудармада «лакуна» сөздердің көрінісі // <https://ulagat.com/2020/12/03/>.

43. Shaymardanova A.R. Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati.// International conference of education, research and innovation. – Samara, Russian. 2023.– В.40.

44. Степанов Ю.С. Основы языкознания. – Л.: Просвещение, 1966. – С. 98.

45. Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – С. 45.

46. Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. –Тошкент: Турон замин зиё, 2015.–Б. 25-26.

47. Рустамов Д.А. Лексемалар миллий-маданий хосланган семемасининг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. (Phd) дисс. автореф.– Фарғона, 2018. – Б. 10.

48. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – Б. 134.

49. Усманова Ш. Таржиманинг лингвомаданий аспекти (дарслик). – Тошкент: ТошДШИ, 2017. – Б. 148-150.

50. Курбаназарова Н.Ш. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи: Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Термиз, 2021. – Б. 38.

51. Мусаева Ф. Лакуна ҳодисаси ва уни бартараф этишда шева лексикасининг аҳамияти. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. № 3. – Б. 96.

52. Шайхисламов Н.Тилда лакуна муаммоси ва унинг ечими. Scientific Progress. – Uzbekistan, 2021. – P.1287.

53. Ҳасанов А. Тиллар қиёсида лакуна // Ташқи сиёсий ва ташқи иқтисодий алоқалар учун кадрлар тайёрлашда тил таълими ва таржима масалалари. – Тошкент, 2020. – Б.222.

54. Ҳасанов А. Аъзам Ўктам шеърлари лексикасида интралакуналар // A'zam O'ktam ijodi badiiyati. – Андижон. 2020. – Б.552.

55. Ҳасанов А.М. Ўзбек адабий тилидаги лексик лакуналарнинг диалектал асослари. Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. (Phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2021.– Б.18.

56. Досбаева Н.Т. Лакуна лингвомаданий ҳодиса сифатида// Илмий хабарнома, АДУ, №1 2018. – 87 б.

57. Гак В.Г. О современной французской неологии // Новые слова и словари новых слов. –Л.: Наука, 1978. –С.37.

58. Абдина Р.П. Экзотизмы, номинирующие реалии, связанные с духовным миром человека, в хакасском героическом эпосе // Мир науки, культуры, образования. – 2012. – № 6 (37). – С. 3–5.

59. Амосова Н.Н. Этимологические основы словарного состава современного английского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1956. – 218 с.

60. Казкенова А.К. Онтология заимствованного слова: монография. – М.: ФЛИНТА, 2013. – С. 248.

61. Крысин Л.П. Современный русский язык. Лексическая семантика. Лексикология. Фразеология. Лексикография: учеб. пособие. – М.: Академия, 2007. – С. 240.

62. Маринова Е.В. Иноязычная лексика современного русского языка: учеб. пособие. – М.: ФЛИНТА: Наука, 2012. – С.296

63. Маринова Е.В. Теория заимствования в основных понятиях и терминах: словарь-справочник. – М.: ФЛИНТА: Наука, 2013. – 240 с.;

Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. Энцикл., 1969. – С. 606.

64. Исматуллаева Н.Р. Хитой ва ўзбек тилларида лақналарнинг воқеланиши: Фил.ф.б.ф.д (PhD) дисс. автореф. – Т., 2021. – Б.11.

65. Дегтерева А. Формы проявления семасиологических законов // “Законы семантического развития в языке” – М., 1961. – С. 3-4.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Murod Muhammad Do'st asarlarida realialar.....	4
Kiyim-kechak realiyalari.....	12
Uy-ro'zg'or maishiy ashyo realiyalari.....	32
Oziq-ovqat realialari.....	45
Murod Muhammad Do'st asarlarida lakunarlik hodisasining ifodalanishi.....	82
Xulosa	102
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	104

XAMIDOV ABDUMALIK KIRONOVICH

**MUROD MUHAMMAD DO'ST
ASARLARIDA REALIA BIRLIKLAR
VA LAKUNARLIK HODISALARI**

Monografiya

Toshkent - "METODIST NASHRIYOTI" - 2025

Muharrir: Xolsaidov F.B.

*Bosishga 12.11.2025.da ruxsat etildi.
Bichimi 60x90. "Cambria" garniturasini.
Shartli bosma tabog'i 7. Nashr bosma tabog'i 7.
Adadi 100 nusxa.*

*"METODIST NASHRIYOTI" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Shota Rustaveli 2-vagon tor ko'chasi, 1-uy.*



+99893 552-11-21

Nashriyot roziligisiz chop etish taqiqlanadi.

ISBN 978-9910-03-887-7



9 789910 038877

